9. LeBlanc, S. J. The effect of treatment of clinical endometritis on reproductive performance in dairy cows / S. J. LeBlanc, T. F. Duffield, K. E. Leslie, K. G. Bateman, G. P. Keefe, J. S. Walton, W. H. Johnson // J. Dairy Sci. – 2002. – №85(9). – P. 2237-2249
10. Thatcher W. W. Strategies for improving fertility in the modern dairy cow / W. W. Thatcher, T. R. Bilby, J. A. Bartolome, F. Silvestre, C. R. Staples, J. E. Santos // Theriogenology. – 2006. – Vol.65.– P. 30-44.

**РИВОЖЛАНГАН ЎРТА АСР СУҒД ШАҲАРСОЗЛИГИ ХУСУСИДА
(Насаф ва Кеш шаҳарлари мисолида)**

Жўрақулова Нурмоҳи. ЖДПИ I-босқич магистранти.

*Илмий раҳбар: Анвар Мажидов. ЖДПИ тарих
факультети катта ўқитувчиси.*

Аннотация. Мазкур мақолада муаллифларнинг ривожланган ўрта асрларда Суғд тарихий маданий ўлкасининг йирик вилоятлари ҳисобланган Насаф ва Кешнинг шаҳарсозлик тарихи хусусидаги фикр-мулоҳазалари ўрин олган. Мазкур вилоятлар шаҳарсозлиги бир қанча археологик ва ёзма манбалар асосида кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Суғдиёна, Зарафшон водийси, Қашқадарё, Нахшаб, Мохондарё, Қалаи Захоки Марон, Шулуктепа, С.К,Кабанов, А.Сагдуллаев, Даратепа, Чироқчитепа, Узунқир, Сангиртепа.

Мана ўттиз йилдан кўпроқ йилдирки, суверен давлат ва озод халқ сифатида янги ҳаёт асосларини яратиб, яшаб келяпмиз. Миллий истиқлол миллатимизнинг нафақат тасаввурини, балки руҳияти, дунёқараши ва тараққиёт йўлини ҳам ўзгартириб юборди. Бу ўзгаришлар аслиятга қайтиш-шонли ўтмишимизда мавжуд бўлган халқимизнинг инсоният тарихида ёрқин из қолдирган давлатчилик анъаналари, бой тарихи, улкан маънавий мероси аслиятни замонавий омиллар-демократик асосларда ривожлантириш орқали амалга ошириб келинмоқда.

Бугунги глобал даврда, дунёда кечаётган оммавий маданият кўринишидаги таҳдидлар, халқларнинг миллий қадриятлари ва маънавий меросига ҳам раҳна солмоқда. Унга қарши курашишнинг энг самарали усули маданиятимиз-миллий қадриятларимизни тарғиб қилиш орқали ёшларимизда маънавий иммунитетни шакллантириш, бой моддий ва маънавий меросимизга

нисбатан юксак хурмат ва содиқлик руҳини шакллантириш зарур¹.

Халқимизнинг ҳақиқий тарихи, жумладан унинг ажралмас қисми бўлган Суғдиёна халқлари қадимиятини тадқиқ қилиш ҳозирги кунда тарихчиларимиз олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Маълумки, қадимда Суғдиёна деб номланган тарихий-маданий ўлка ҳозирги кунда Самарқанд, Навоий, Бухоро ва Қашқадарё вилоятларини ташкил этади. Аслида қадимги Суғд уч қисмдан иборат бўлиб, унинг марказий ва ғарбий қисмлари Зарафшон водийсида жойлашган бўлса, унинг жанубий қисми Қашқадарё ҳавзаларида таркиб топган². Бу она заминнинг таркиб топиши, ривожланиши ва гуллашида Зарафшон ва Қашқадарё дарёларининг ўрни беқиёс ва беназир бўлган. Ана шу икки дарё сувлари асосида жуда қадим замонларда Суғд бободехқонларининг қишлоқлари ва шаҳарлари қад кўтарган. Қашқадарё воҳаси қадим даврлардан бошлаб географик жиҳатдан иккита йирик тарихий вилоятга-Шаҳрисабз ва Қаршига бўлинади. Шаҳрисабз воҳаси (Қадимги Кеш) Қашқадарёнинг юқори оқимида жойлашган бўлиб, Шарқдан Ҳисор тоғ тизмалари билан ўралган. Қуйи Қашқадарёда, воҳанинг текислик қисмида эса Қарши (Қадимги Нахшаб) вилояти жойлашган бўлиб, у Ғарбда Сандиқли қумликлари орқали Қизилқум билан туташиб кетган. Нахшаб шаҳри ва вилояти Қашқадарё воҳасининг ғарбий қисмида жойлашган бўлиб, бу ерда суғорма деҳқончилик ва кўчманчи чорвачилик азалдан ривожланган бўлиб, ўзининг табиий шароити билан Шарқий Қашқадарё, яъни Кеш Шаҳрисабз вилоятидан тубдан фарқ қилган³. Насаф вилоятининг асосий сув манбаи бўлган Қашқадарё суви ёз фаслида кескин камайиб, қурғоқчилик йилларида эса бутунлай куриб қолган.

Археологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, Қашқадарё қадимги даврдан то XIII аср бошларигача Зарафшон дарёсига қуйилган. Зарафшон дарёси эса ўз

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. / Xalq so'zi. 2017 yil 16 iyun.

² Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: "О'ЗБЕКISTON" НМИУ, 2015.193-б.

³ Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий -иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар). // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари // А.Ҳасанов. Ривожланган ўрта асрларларда Насаф. 2018 йил 19 май.144-б.

навбатида ҳозирда қуриб қолган Моҳондарё ўзани орқали Амударёга қуйилиб турган⁴. Илк ўрта асрларда Нахшаб уч қаторли мустаҳкам мудофаа деворлари билан ўраб олинган бўлиб, 225 га яқин майдонни эгаллаган. Қалаи Захоки Марон ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотларнинг кўрсатишича, Нахшаб шаҳрига мил.авв. III-II асрларда асос солинган.

Ривожланган ўрта асрлар бошида Қуйи Қашқадарёда, ҳозирги Қарши шаҳрининг шимолий ғарбий қисмида, Қашқадарёнинг чап қирғоғида янги шаҳарга асос солинган. Маҳаллий аҳоли Нахшаб деб атаган бу шаҳарни араблар ўз талаффузларига мослаб Насаф деб номланганлар. Шаҳарнинг ривожланган даври X-XII асрларга тўғри келади. Насаф шаҳри (бу шаҳар мўғуллар босқинидан сўнг харобага айланган), археологик тадқиқотларга кўра, Қаршидан 8 км. шимоли-ғарбдаги Шуллиуктепа ёдгорлиги ўрнида бўлган⁵. Мазкур янги шаҳар манбаларда икки хил номда Нахшаб ёки Насаф тарзида келтирилади. Бу шаҳарни араблар ўз талаффузларига мослаб Насаф деб атаган бўлсаларда, маҳаллий аҳоли янги барпо бўлган шаҳарни ҳам Нахшаб деб атаганлар. Хусусан, муаррих Наршахий ўзининг “Бухоро тарихи” асарида Нахшаб шаҳрини ҳам эслатиб ўтади⁶.

Кўриб ўтилаётган даврда, яъни ривожланган ўрта асрларда Насаф шаҳри қуйи Қашқадарёнинг бош шаҳри сифатида фаолият кўрсатган. Нахшаб ва Насаф тарихига бағишланган дастлабки тадқиқотлар XX аср бошларига тегишлидир. Таъкидлаб ўтганимиздек, Қашқадарё воҳаси жанубий Суғд сарҳадларини ташкил этади. Бу ўлкада қадимги деҳқончилик маданият ёдгорликлари ҳудуднинг 32 жойидан топиб ўрганилган⁷. Уларнинг айримлари ўтган асрнинг 50-йилларида С.К.Кабанов томонидан Яккабоғ ва Танхоздарёларининг қуйи

⁴ Гулямов Я.Г. Исследование исторической географии низовьев Кашкадарьи и Зеравшана. ИМКУ. Вып.6. Ташкент: Фан, 1965.

⁵ Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий -иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар). // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари // . А.Ҳасанов. Ривожланган ўрта асрларларда Насаф. 2018 йил 19 май.144-б.

⁶ Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А. Расулов таржимаси) // . Т.: “Камалак”, 1991. 154-б.

⁷ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2015.202-б.

ҳавзаларида очилган⁸.1970-йилларнинг бошларида Чимқўрғон сув омбори соҳилларидан Жартепа 2 ва Чироқчитепа қишлоқ маконлари топиб ўрганилган⁹.

Илк темир даври моддий маданият қолдиқлари Ерқўрғон қадимги шаҳар харобасининг қуйи қатламларида мавжудлиги аниқланган. 1976-1979 йилларда тадқиқотчи олим А.Сағдуллаев Қашқадарё водийсининг иккита маданий-хўжалик воҳасидан 9 та қадимги деҳқончилик қабилаларининг қишлоқ маконларини топади ва улардан бири-Даратепада кенг кўламли қазишмалар олиб боради¹⁰. Қуйи қатламлари сўнгги бронза ва илк темир даврига тегишли ёдгорлик Тўрткўлтпепада ўрганилади.1986-1992 йиллар давомида А.Сағдуллаев бошчилигидаги археологик отряд Узунқир ва Сангиртепа ёдгорликларида кенг кўламли қазишмалар олиб боради¹¹.

Бизга маълумки, ўрта аср шаҳарларини бошқа аҳоли пунктларидан ажратиб турадиган бир қанча белгилари ва хусусиятлари мавжуд. Ўрта асрларга оид ёзма манбаларда шаҳарлар кўпроқ маъмурий марказ сифатида таърифлансада, жума масжиди мавжуд бўлган барча йирик аҳоли пунктларини шаҳарлар сифатида қараш ҳам учраб туради.

Замонавий тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, шаҳарлар маълум катталиқдаги худудга эга бўлган, тузилишига кўра бир нечта қисмларга бўлинган монументал иншоотлар мавжуд бўлган, аҳолиси ҳунармандчилик ва савдо сотиқ билан машғул бўлган йирик аҳоли пунктларидир. Араблар истилоси оқибатида Нахшаб шаҳри вайрон этилгач, Қашқадарё воҳасининг қуйи оқимида деярли 100 йилга яқин шаҳарсозлик маданияти инқирозга учрайди.Ўрта Осиё тарихининг чуқур билимдони М.Е.Массоннинг таъкидлашича, X асрда Насаф шаҳри уч қисмдан, яъни шаҳар ҳокимининг қароргоҳи бўлган қалъа, бевосита шаҳар ва унинг рабодидан иборат бўлган йирик шаҳар эди¹².

⁸ Кабанов С.К. Археологические разведки в Шахрисабзском оазисе. ИАН Уз ССР, №6, Т.: 1951.С.61-68.

⁹ Усманова З.И.К вопросу о ранней античной керамике древней области Кеш.ИМКУ,вып.10.Т.:1973.С.52-57.

¹⁰ Сағдуллаев А.С. Памятники материальной культуры Южного Согда эпохи раннего железа. // " Культура юга Узбекистана в древности и средневековье"// Т.: 1987.С.3-16.

¹¹ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: "O'ZBEKISTON" НМИУ, 2015.202-б.

¹² Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Т.: Фан,1973.С. 47.

Археологик маълумотлар Насаф шаҳри аҳолиси сувга бўлган эҳтиёжини қондиришда Қашқадарё сувидан фойдаланганлигини тасдиқламоқда. Хусусан, шаҳар рабодининг шимоли-шарқий қисмида сопол қувурлар топилгани шундан далолат беради¹³. Лекин Қашқадарёнинг суви қурғоқчилик йилларида, айниқса ёз фаслида кескин камайиб кетиши сабабли шаҳарда кўплаб қудуқлар ҳам бўлган. Шаҳар аҳолисининг нафақат ичимлик сувини, балки экинларини ҳам қудуқлар сувидан фойдаланиб суғоргани манбаларда сақланиб қолган¹⁴.

Суғднинг яна бир катта ва кўҳна тарихий шаҳри Кеш турли номлар билан қадимий манбаларда тилга олинган. “Авестода” “Гава Суғда” яъни Суғдийлар юрти деб кўрсатилади. Ушбу сўзнинг ўзи Қашқадарёнинг шарқий қисмидаги кўпгина замонавий атамаларда сақланиб қолган (Гавдара, Гавтепа, Говхона, Говмард, Говмурда, Говмардтепа).

Ўрта асрларда битилган ёзма манбаларда мазкур кўҳна шаҳар ва у жойлашган маскан “Каш-Кашш”, “Кас-Кос”, “Кис-Кисс” шаклларида тилга олинган. Қадимги Хитой солномаларида эса шаҳар номи “Сушие”, “Циши” ёки “Сусе” тарзида учрайди.

Шу ўринда эътиборимизни яна бир тарихий деталга қаратсак. Афғонистон ҳудудидан топилган аҳмонийлар даврига оид ҳужжатлардан бирида ҳозирги Китоб-Шаҳрисабз ҳудудидаги вилоят ва унинг марказий шаҳри Кеш деб аталгани ҳақидаги ёзма манба мавжуд. Бу ҳужжат жуда ноёб ҳисобланиб, шаҳарнинг номи суғдий тилда Кеш деб аталганидан далолат беради. Антик даврда юнон тарихчилари томонидан таърифланган Наутака (Навтака) айнан Кеш-Шаҳрисабз бўлиб, “янги қурилиш”, “янги жой” деб таржима қилинади. Арриан ўз асарида Наутакани-“Суғдийлар ери” маъносида талқин этган. Истаҳрий, Ибн Хавқал, Муқаддасий каби араб сайёҳлари асарларида-Кеш, Араб сайёҳи Ёқут ал-Ҳамавий эса маҳаллий аҳоли Кисс деб ишлатганлигини эслатиб ўтади. Кеш-киш-кат сўзининг қадимий маъноси-тоғ, сувайиргич, баландлик,

¹³ Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий -иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар). // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари // А.Ҳасанов. Ривожланган ўрта асрларларда Насаф. 2018 йил 19 май.144-б.

¹⁴ Ўша манба. 145-б.

кўрғон каби маъноларни англатган¹⁵. В.В. Бартольд Ёкут Ҳамавий асарига асосланиб шаҳарнинг номини “Кишш” деб талаффуз қилиш тўғри бўлишини уқтиришга уринади. Туркий тилларнинг айрим тармоқларида “Кеш” сўзи сув билан боғлиқ маънода қўлланиб келганлиги ҳақида маълумотлар ҳам мавжуд¹⁶.

Академик А.Муҳаммаджонов ёзма манбаларда тилга олинган айрим жой номлари таркибида ҳам “Кеш” атамасининг турли кўринишлари ўрганиб, изчил тадқиқ этган. Унинг фикрича, Касби, Косдори, Косон, Косонсой, Кошон ва “Кеш” лексемаси ва унинг барча синонимик шакллари аслида “уй” ёки “тураржой” маъносини англатган суғдча “кат-ката” каби сўзлардан келиб чиққан. Бироқ бу сўзлар “уй” ёки “хона” ибораларига нисбатан кенгроқ маънони англатган. Баъзи бир тарихий атамаларнинг мазмун-моҳиятидан англанилишича, “кат лексемаси нафакат “уй” ёки “тураржой”, балки қишлоқ, мавзе, ҳатто катта-кичик шаҳарлар тушунчасида ҳам қўлланилган¹⁷.

Ёзма манбаларнинг гувоҳлик беришича, қадимги “Кат-кад” асосида юзага келган “Кеш, Каш, Кош” ва уларнинг “кас, кос” каби синонимик шакллари бириккан топонимлар қадимги Турон-Туркистоннинг дарё ҳавзалари ва деҳқончилик воҳаларининг тарихий географиясида алоҳида ўрин тутди. Рус шарқшуноси В.В.Бартольднинг таъкидлашича, бундай жой номлари асосан Зарафшон водийси ва Сирдарё ҳавзаси ҳамда Чирчиқ ва Оҳангарон воҳаларида кўпроқ учрайди¹⁸.

Истаҳрийнинг қайд этишича, Элоқ (Оҳангарон) воҳасида 14 та шаҳар ва қишлоқларнинг номларидан 7 таси, Чоч-Шош (Тошкент) вилоятида эса 27 та жой номларидан 14 таси “Кат” атамасига эга бўлган. “Кат, кад” ёки унинг “кеш, каш, кас, кос” каби синонимик шаклларида кўпинча “би - бин; бар - пар; за - зар; ну - нау; пас - пис” каби қўшимчалар бирикиб турли маънодаги топонимлар юзага келган. Бинкат - қуйи шаҳар, Касби - қуйи қишлоқ, Паркат - қияликдаги қишлоқ,

¹⁵ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимлари изоҳли луғати Т.1988.96-97бетлар.

¹⁶ Муҳаммаджонов А. Кеш-уй, яъни Ватан демақдир. Мозийдан садо. 2003.№2 44 бет.

¹⁷ Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий -иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар).

// Республика илмий-амалий конференцияси материаллари // А.Ҳасанов.Кеш топоними ҳақида мулоҳазалар. 2018 йил 19 май.170-б.

¹⁸ Муҳаммаджонов А. Кеш-уй, яъни Ватан демақдир. Мозийдан садо. 2003.№2 44 бет.

Навкат - янгикат каби маъноларни англатган. Баъзи ҳолларда кўшимчаси “он” бирикиб, “Косон” (қишлоқлар), “Косонота” сой бўйидаги қишлоқлар каби топоним ва гидротопонимларни юзага келтирган.

XIV аср ўрталаридан бошлаб шаҳар Кеш ҳамон Шаҳрисабз номи билан юритила бошланган. “Бобурнома”да вилоят ва баъзан шаҳарга нисбатан Кеш, Шаҳрисабз қўлланган. З.М.Бобур бу ҳақда: “... Боҳорлар саҳроси ва шаҳри ва боми ва томи хуб сабз бўлур учун Шаҳрисабз ҳам дерлар”¹⁹, деб ёзади. Шундай қилиб, юқоридаги фикр-мулоҳазалар асосида “Кеш” топоними уй, қишлоқ, шаҳар, пойтахт, вилоят, эл-юрт, диёр, ватан каби маъноларни англатганини кўришимиз мумкин. Умумий тарзда Кеш топоними яшаш жойи маъносини билдиради²⁰.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистоннинг, хусусан Қашқадарё воҳасининг қадимий тарихий вилоятлари, бош шаҳарлари Кеш ва Насаф мисолида, шаҳарсозлик масалаларини ёритиш орқали биз тарихчилар бу воҳа тарихига жиддий эътибор қаратиш лозим бўлади. Ўрта асрлар даврига хос мураккаб сиёсий вазиятга қарамасдан, воҳа шаҳарлари ўзининг узоқ йиллик улуғвор кечмишини босиб ўтган. Мазкур шаҳарлар тарихига бағишланган тадқиқотларни давом эттириш айти пайтда тарихчиларимиз олдида турган долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда, бу эса Ўзбекистон шаҳарлари тарихини тўлиқ ва ҳаққоний яратишда катта ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: “O’ZBEKISTON” НМИУ, 2015.
- 2.Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / (Форс тилидан А. Расулов таржимаси) // . Т.:“Камалак”,1991.

¹⁹ Захириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Т.: “Юлдузча”, 1989. 47-б.

²⁰ Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий -иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар). // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари // . А.Ҳасанов.Кеш топоними ҳақида мулоҳазалар. 2018 йил 19 май.170-б.

3. Гулямов Я.Г. Исследование исторической географии низовьев Кашкадарьи и Зеравшана. ИМКУ. Вып.6. Т.: “Фан”, 1965.
4. Захириддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”. Т.: “Юлдузча”, 1989.
5. Кабанов С.К. Археологические разведки в Шахрисабзском оазисе. ИАН УзССР, №6, Т.:1951.
6. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Т.: “Фан”, 1973.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash-davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. / Xalq so‘zi. 2017 yil 16 iyun.
8. Мухаммаджонов А. Кеш-уй, яъни Ватан демакдир. Мозийдан садо. 2003. №2-сон.
9. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимлари изоҳли луғати. Т.:1988.
10. Сагдуллаев А.С. Памятники материальной культуры Южного Согда эпохи раннего железа. // “Культура юга Узбекистана в древности и средневековье”//Т.:1987.
11. Усманова З.И.К вопросу о ранней античной керамике древней области Кеш. ИМКУ, вып.10. Т.:1973.
12. Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий -иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар). //Республика илмий-амалий конференцияси материаллари //. 2018 йил 19 май.

APHORISMS AND QUATATIONS AS AN ELEMENT OF LINGUISTIC ART

Ganieva Dilafruz Khasanovna

Teacher at Fergana State University

Email: dilyaganieva17@gmail.com

Bozorboyeva Xusnidaxon

Student at Fergana state university

E-mail: bozorboyevaxusnidaxon@gmail.com

Abstract:

The article presents an attempt to establish and describe the main features (properties) of aphorism and quotations as an object of linguistics. Most of the scientists agreed that aphorisms and quotations give emotionality, expressiveness to the speech, where was not only the person's point of view, but also general people's outlook is expressed. Aphorisms and quotations play important role in language.

KEYWORDS: Statistical aphorisms, criteria, inspiration, structural types, newspaper, report

Introduction: An aphorism is a pithy statement or observation that conveys a general truth about the world. Writers often create general statements in their texts in order to convey a moral or philosophical idea they hold to be universally true. it helps them to solve a set of different tasks such as to state particular facts, making information more precise and vivid, to express indirectly one's attitude towards the quoted statement, to create a dramatic effect, influencing readers, and even to detach from what is claimed.

An aphorism can be a thought , a joke , a small 'poem' , a loose haiku , an image , a glance , a paradox , an observation –almost anything , as long as it is short and concise .¹It is defined as " a short , pithy statement containing a truth of general import"².

The etymological root of the word 'aphorism' also comes from the Greek: 'apo' means 'from' and 'boros' means 'boundary' or 'horizon'. So the original meaning of the term was 'something that marks off or set apart'- i.e., a definition. The definition is among the most durable forms of the aphorism , and the English

novelist Samuel Butler supplied a wonderful example of it: A definition is the enclosing of a wilderness of idea within a wall of words .

Modern aphorisms are concerned with the same ideas and questions that have been puzzling humanity from the beginning of time. The desires and longings of the heart , our sense of identity , the nature of good and evil , time , religion , and the aftertime are common themes found in today's' aphorisms. They

are used to express the need to find spiritual fulfillment and understanding of the cultural experience of the 20th century.

Main part:

The purpose of an aphorism is to convey a message to people that is generally regarded as a universal moral or truth. Therefore, when creating an aphorism, it is important to identify your audience and the purpose of your writing in order to convey an appropriate message. The correct usage of aphorisms these is also important, while translating any other work of art we should pay close attention to this point, and that is the reason of the study of the theme we have taken under discussion. So express any idea or plot of the work in translation as in original demands a person's high skill and deep knowledge. Translator ought to know the rules of translation, furthermore the history, slang, life, customs and traditions of the people whose language he / she translating into.

¹ Chapko , W. (2007) "Writing Aphorism" .copyright deposit. com

² Gross, J. (2003) .The Oxford Book of Aphorisms . Oxford : Oxford University Press.

These are present in common phrases as well as in well-known literature. Here is examples:

- Common statement: a penny saved is a penny earned.

This aphorism is used to convey the importance of frugality.

From Anthony Burgess's *A Clockwork Orange*,

- "A man who cannot choose ceases to be a man."

This aphorism is used to emphasize the importance of free will. Furthermore, we also can classify following aphorisms according to subjects. For example:

I. Statistical aphorisms: a) Statistics analyzes variability

b) What is special about statistics is its capability to quantify uncertainty

c) Descriptive statistics is not the poor sister of research

d) Our world, our life, our destiny are dominated by uncertainty; this is perhaps the only statement we may assert without uncertainty – Bruno de Finetti

II. Aphorisms on scientific diffusion.

1. Nobody puts a candelabrum under a table.

2. English is the Esperanto of science.

3. The summary is the offspring of the research work.

4. No one is born an orator, but becomes one.

In addition to the above mentioned analysis of aphorisms, they also should be differentiated from quotations³. An aphorism is usually a saying expressing a belief, an

³ Wells-Jopling R. When is writing already quotation. A developmental perspective on a postmodern question? *J Aesthet Educ.* 2006;40:59–74. [[Google Scholar](#)] [[Ref list](#)]

idea, a thought, a saying, a piece of literature and so on. They can act as an inspiration and serve as a practical guide to living a better and more conscious life. Quotation, being one of the most common structural and semantic constituents of media discourse, is widely employed by a great number of journalists time and again. Since it may perform various functions, quotation constitutes a powerful tool at reporters' disposal used to suit their own purposes. Consequently the analysis of this issue can be found in numerous works, but authors mostly study quotation from a stylistic perspective, paying less attention to its lexical aspect, which requires a closer examination.

Since quotation is really popular with many authors, it is quite reasonable that there are a great number of classifications, based on different criteria or characteristics of quotes. For example, Prof. Aleshchanova in her Candidate of Science Thesis "Quotation in media discourse" among other classifications, suggests grouping quotes according to their form, thus she defines the following structural types: full, reduced and segmented quotes⁴.

Quotation structural classification

1. The quote-sentence type presents a literal logically finished utterance, without any abridgements.

e.g.: They need more incentive to make the transition that they must know they need to make, from fossil fuel companies to energy companies,"

2. The quote-word-combination type is represented by a contracted part of a quoted text, the content of which is not altered. While this quotation type is not introduced by any words, it still logically fits the new environment, becoming a part of a sentence. The case of quotation in this type is apparent only in writing as quotation marks are used.

e.g.: Set out your "strategic posture" - for instance, emphasising IT as a driver or enabler of strategy. (The Financial Times, The first 100 days of a new CIO: Nine steps for wiring in success, December 4, 2012)

⁴ Aleshchanova, I.V. (2000). Quotation in Media Discourse. Candidate of Science Thesis: 10.02.20 Volgograd

3. According to the findings of this study, which are constituent with what is known about quotation, the quote-word type is the least employed by authors, while it is also claimed to be the most expressive one. Quotes of this type are inseparably linked with the text they are introduced in.

e.g.: The British state's determination to chase foreign earnings while lowering public spending threatens the judicial standards that bring in international "business" in the first place. (The Spectator, Export only justice, December 8, 2012)

Needless to say, that to quote somebody is to manage "the words of others to convey and serve the purpose of the writer, giving a slant to what is said." (Calsamiglia & Ferrero 2003, p.149)⁵. In media discourse, journalists actively make use of quotations, trying to "control the way readers process and make sense of the report" (Teo, 2000, p.14)⁶. The findings of this research suggest that newspaper authors may alter the organization of a quoted utterance, trying to achieve desired effects, which in their turn usually determine the author's choice of a quote structural and semantic type.

In conclusion, aphorisms and quotations have certain pure linguistic features that must always be taken into account in order to distinguish them from ordinary sentences. They are brief statements showing uncondensed form of the accumulated life experience of the community and serving as conventional practical symbols for abstract ideas. This study provides insights into structural and semantic features of quotation and assists readers in perceiving and analyzing information given in English.

REFERENCES:

1. Aleshchanova, I.V. (2000). Quotation in Media Discourse. Candidate of Science Thesis: 10.02.20 Volgograd

⁵ Calsamiglia, H. & Lopez Ferrero, C. (2003), Role and position of scientific voices: reported speech in the media. *Discourse Studies*, Vol. 5 (2). 147-173.

⁶ Teo, P. (2000). Racism in the news: A critical discourse analysis of news reporting in two Australian newspapers. *Discourse & Society*, Vol. 11 (1). 7-49

2. Calsamiglia, H. & Lopez Ferrero, C. (2003), Role and position of scientific voices: reported speech in the media. *Discourse Studies*, Vol. 5 (2). 147-173.
3. Mr. McKibben The NY Times, To Stop Climate Change, Students Aim at College Portfolios, December 4, 2012
4. Teo, P. (2000). Racism in the news: A critical discourse analysis of news reporting in two Australian newspapers. *Discourse & Society*, Vol. 11 (1). 7-49
5. Wells-Jopling R. When is writing already quotation. A developmental perspective on a postmodern question? *J Aesthet Educ.* 2006;40:59–74. [[Google Scholar](#)] [[Ref list](#)]
6. Ganieva, D., & Moxichexra, I. (2022). STUDY OF SYNONYMS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *Conferencea*, 56-57.
7. Kempson M.R. *Semantic Theory*.- Cambridge University Press,-1995.-977p
8. Khasanovna, G. D. LEXICAL SEMANTIC ANALYSIS “EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS” IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.
9. Kuchkarova, Z. (2021). COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS VERBALIZING THE CONCEPT OF " WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
10. Tolkinovna, I. S. (2022). SEMANTIC FEATURES OF MODERN MEDICAL TERMINOLOGY. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(2), 78-84.
11. ugli Mirzaev, A. B. IMPROVING EFL/ESL CLASSROOMS THROUGH USING ONLINE PLATFORMS: NEARPOD–AS AN EXAMPLE OF TOP-RATED ONLINE EDUCATIONAL PLATFORMS.

GENDER ISSUES IN TRANSLATION

Madina Khursandova

Student of the Uzbekistan State World Languages University

ABSTRACT

It is quite likely, that as long as language has existed, the distinction between male and female has also been present within it. Today, there are no languages, which do not distinguish between the genders at all, leading linguists and psychologists to believe that gender may be so fundamental to social organization and social structure that linguistic means to refer to this category are indispensable for speech communities” (Stahlberg et al. 2007, p.163). However, references to grammatical conventions of gender in language have prompted contemporary concerns over the power of language to shape social stereotypes about gender, and perhaps ultimately shape status distinctions between men and women. The feminist language critique, in particular, deems language to be overwhelmingly androcentric, putting girls and women at a disadvantage in personal and professional relationships (Stahlberg et al. 2007), and some countries, such as Norway, have actively reformed their languages to reflect a more genderless outlook (Gabriel and Gygax2008). In spite of attempts at language reform already underway, numerous questions remain regarding the relationship between the social aspects of gender and language and the potential benefits of modifying languages to be more gender-neutral.

Key words: *gender aspect of language, gender and translation, gender inclusive language, grammatical gender.*

Have you ever discovered while learning a foreign language that what you always assumed as feminine could be masculine in another culture? Or that some languages didn't make any gender differences as it is the case of Chinese or Turkish?

Around one-quarter of the world's languages use grammatical gender. For instance, most of the Indo-European languages refer to a three-gender classification (masculine, feminine and neuter) although the gender attribution varies according to the cultures. English is one of the rare in this family to do little distinction regarding gender. No hesitation when using you for example as it refers to anyone. Or when employing an article; whoever you are speaking about makes any difference (the girl, a hairdresser, etc). On the opposite, Russian marks the gender almost in every word of a sentence until the extent of certain verb forms.

So, what are the various challenges when it comes to translating? In fact, gender issues create a whole lot of questions during translation that are not only challenging because a mistranslation could change textual meaning, but it could go so far as to cause offense.

Main Gender Issues In Translation

Grammatical gender may cause translators some difficulties when they translate from source languages in which gender is differently grammaticalized compared with the target language. These difficulties may be particularly intensified when grammatical gender coincides with the sex of the referent; for example, when the source language shows no gender distinction in the third-person pronoun but grammatical gender agreement patterns which may produce the effect of gendered self-reference through gender concord, and the target language shows not only no gender distinction in the third person pronoun, but also no grammatical gender agreement.¹

Grammatical gender refers to gender assigned to nouns. Some languages do this and others do not. Two main problems arise when translating between these two systems:

- The source language uses a gender-specific article or pronoun, but the target language does not have such. There are times when the gendered use of “you” may be grammatical only, but there may be other times when it is important that the

¹ <https://www.ulatus.com/translation-blog/gender-issues-in-translation/>

“you” refers to a boy or girl given the context of the text. Since English does not have a gender-specific word for you, the translator must address this issue.

- The source language does not have a gender-specific article or pronoun, but the target language does. While English may just say son or girl, putting an “el” before sol or a “la” before fille is not an issue when translating into Spanish or French. The issue arises when the gender is not specified in the source language and it could change the context in the target language. Consider “I do”; no gender is associated with the pronoun “I” in many languages not only must the pronoun be gender specific, but the verb form of “do” must be conjugated based on gender as well.

Social Gender: Social gender refers to the biological gender that is assumed based upon a noun use and the society in which it was used. The distinction between sex, gender, and roles are not as clear as they once were, yet, in a linguistic sense, the lines have not been adjusted. For instance, the English word “**secretary**” once implied that the position was held by a male, this is no longer the case. In other cultures, the word “**cook**” or “**maid**” will have a distinctive gender assignment, culturally. Many social-gender roles have deep historic and cultural roots, and, though they are often highly stereotyped, the [contextual issues](#) associated with translation cannot be overstated.² Complicating matters, the cultures, context, and ideology behind the gender assignment change making the translation all the more difficult.

What is gender-inclusive language? Let’s look at the example of “fireman.” We don’t really say “firewoman” in English. But [women also can fight fires](#). At the same time, traditionally feminine nouns such as **actress** and **waitress** are becoming less common. There are lots of examples where the masculine term of actor and waiter is now used for both men and women.

Why use gender-inclusive language? So, why would you use gender inclusive language? It’s good to use words that avoids bias towards a particular sex or social gender. In the list of gender-inclusive language you can see terms such as “**chairman.**” This word contains the component **-man**. Yet, women are equally capable of holding

² <https://www.ulatus.com/translation-blog/gender-issues-in-translation/>

very senior positions. If you use the term chairperson, it means the same but demonstrates inclusion of all people, regardless of their biological gender. So, by not using a word ending in “-man” as the standard for certain jobs, we can normalise the idea that anyone can perform a job, regardless of their gender identity.

CONCLUSION

This article is written regarding gender in translation dealing specifically with the issue of the translators’ gender identity and its effect on their translations, as well as on how gender itself is translated and produced. The study tried to clarify what gender is, how gender manifest itself in grammatical and social systems of language, and what problems translators encounter when translating or producing gender-related materials.

We hope that our first steps on gender researches in the field of translation will contribute to the development of gender aspects of translation as one of the important directions of gender linguistics and to further in-depth study of this problem in the theory of translation.

REFERENCES

1. Romaine, S. *Communicating Gender*. London: Lawrence Erlbaum Associates, Publishers, 1999.
2. Simon Sherry. *Gender in Translation. Culture and Identity and the Politics of Transmission*. London & New York: Routledge, 1996.
3. Von Flotow Louise. *Translation and gender. Translating in the "Era of Feminism"* Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.

**ABDULLA QODIRIYNING “O'TKAN KUNLAR” ASARIDA KINOYA
NING GENDEROLOGIK XUSUSIYATLARI**

GENDEROLOGICAL FEATURES OF IRONY IN ABDULLA QODIRIY'S
NOVEL “LAST DAYS”

ГЕНДЕРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИРОНИИ В «МИНУВШИЕ
ДНИ» АБДУЛЛЫ КАДИРИ

Andijon davlat universiteti Lingvistika 1-bosqich magistranti

Yo'Ichiyeva Gulmira

[*Gulmiraqiz1995@gmail.com*](mailto:Gulmiraqiz1995@gmail.com)

Андижанский государственный университет

Магистр лингвистики 1- уровня

Юлчиева Гульмира

Andijan state university 1-master degree of linguistics

Yulchieva Gulmira

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender lingvistika xususida so'z yuritilib, erkaklar va ayollar nutqidagi kinoyaviy jumalarning o'ziga xosliklari haqida fikr bildiriladi. Aniq faktlarni yanada yoritish uchun esa Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asaridan olingan badiiy parchalar misolida batafsilroq tushuntiriladi.

Abstract. This article discusses gender linguistics and discusses the uniqueness of ironic sentences in male and female speeches. To further clarify the exact facts, it is explained in more detail in the example of artistic excerpts from Abdulla Qodiriy's "Last Days."

Аннотация. В данной статье рассматривается гендерная лингвистика и обсуждается своеобразие иронических предложений в мужской и женской речи. Для дальнейшего уточнения точных фактов более подробно объясняется на примере художественных отрывков из романа Абдуллы Кадыри "Минувшие дни"

"

Kalit so'zlar: gender lingvistika, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, kinoya, ijtimoiy jins, badiiy asarda gender xususiyatlar, qahramonlar nutqidagi kinoyaviy jumlar

Key words: gender linguistics, male speech, female speech, irony, social gender, inbelles-lettres a gender pecualitary, ironic sentences in the speech of the heroes.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, мужская речь, женская речь, ирония, социальный пол, гендерные особенности в литературном шедевре, ироничные фразы в речи героев.

Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi. Insoniyatning uzoq yillik evolutsiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins o'ziga xos bo'lgan umumiylik hamda farqlarga ega bo'lib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni nazarda tutadi. [Islomov Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragsmatik xususiyatlari. tadqiqot ishi]

Ma'lumki, sotsiologiya hamda psixologiya fanlarida gender tushunchasi "biologik jins" tushunchasidan farqlanuvchi ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Buning asosida jamiyatda erkak va ayollarga xos bo'lgan xususiyatlar negizida shakllangan "ijtimoiy jins" tushunchasi yotadi. Boshqacha aytganda, gender tadqiqotlarda uzoq vaqt davomida odamlar dunyoqarashida shakllangan jamiyat tomonidan qabul qilingan erkaklik va ayollik (muskullinost va feminizm)ga xos axloq me'yorlari tushuniladi. Ana shunday axloq me'yorlari ichida muloqot xulqi masalasi markaziy masalalardan biri bo'lganligi bois genderologik muammolarni lingvistik aspektda o'rganish zarurati tug'iladi va genderolingvistika ana shu zarurat asosida alohida bir soha sifatida paydo bo'ldi.

[Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiqot yangi paradigma sifatida O'TA. 2014 43-bet]

Daniyalik tilshunos Otto Yespersen ESA e'tiborini erkaklar va ayollarning tildagi mavjud birliklardan foydalanishiga, ularning so'z qo'llashda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratdi. U o'z tadqiqotlarida ayollarning nutqiy vaziyatdan kelib chiqib

ko'proq hissiyotga berilishiga, shuning uchun evfemizmlardan ko'proq, ba'zan eng imkonsiz qolganda vulgarizmlardan foydalanishga majbur bo'lishga moyilligini ko'rsatib beradi

[Alimova B. Badiiy matnda "lisoniy shaxs" namoyon bo'lishining sotsiopragmatik talqini]

V.V.Potapov til va gender munosabatlari muammosini shuningdek ayol va erkak nutqini o'rganish borasida lingvistik tadqiqotlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin deb hisoblaydi:

-ayollar va erkaklarning idroki, ongidagi tilning fonetika,morfologiya, semantika va sintaksis kabi sathlari bo'yicha tafovutlarni aniqlash;

- ayol va erkak nutqining ijtimoiy genezisiga bo'lgan yondashuv, ya'ni jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarning qayta taqsimlanish xususiyatlari bilan izohlanuvchi semantik tafovutlarni aniqlash;

- ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ayol va erkaklar tilini tadqiq qiluvchi lingvistik nazariyalarni ishlab chiqish;

- aniqlangan ko'rsatkchlarni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tushuntirib berish;

Bu yerda nafaqat tafovutlarning takrorlanish darajasini balki dunyo manzarasining turli jihatlari bilan aloqalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

[Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigma sifatida O'TA. 2014 44- bet]

Yuqorida keltirilgan barcha fikr-mulohazalar genderologik izlanishlar natijasi bo'lib, ularda bildirilgan fikrlar ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xos individualligi,etnik jihatdan farqlanishlari, mental qarashlari, kasb-hunar doirasidagi o'ziga xosliklari yoki dunyoqarashidagi farqli xususiyatlari, psixologiyasi, jamiyatdagi mavqeyi, yashash sharoiti, tili, yoshi, orzu-umidlari kabi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlarga egaligini namoyon etadi.Har bir erkak va ayol nutqi yuqorida keltirilgan yo'nalishlar asosida turlicha farqlanishlarga ega bo'ladi.

Masalan, erkaklar nutqi alohida olinganda ham har bir erkak nutqida turlicha farqlanishlar mavjuddir. Erkaklar nutqi ixcham, sodda, emotsionallikdan holi bo'lgan holda yuzaga chiqadi. Asosan aniq faktlarga asoslangan ilmiy sifatga ham ega bo'ladi. Erkaklar nutqida asosan biznes, daromad topish, oilasini moddiy jihatdan ta'minlash, texnika, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa turli yo'nalishlardagi fikr almashishlar yetakchilik qiladi. Erkaklar nutqida varvarizm, vulgarizm, tabu, kinoya, qochirim, o'xshatishlar kam holatlarda uchrab turadi. Erkaklarning yozma nutqi aniq faktlarga asoslangan va ayollarnikiga qaraganda mazmunlirog' hisoblanadi.

Ayollar nutqi esa erkaklar nutqidan tubdan farqlanadi. Ayollar nutqi katta hajmga ega, murakkab tuzilishli va eng asosiysi emotsionalligi bilan tafovutlanadi. Ayollar nutqida asosan qarindosh urug'chilik munosabatlari, ish joyidagi munosabatlar, oilaviy munosabatlar, moda, go'zallik, pazandachilik, kiyim-kechak bilan aloqador yo'nalishlar, uy yumushlari, mehmondorchilik bilan bog'liq bo'lgan va ko'plab shunga o'xshash holatlar bo'yicha ijobiy va salbiy bo'lgan nutqlar yuzaga keladi. Ayollar nutqida asosiy urg'u kinoya va mubolag'aga yo'naltiriladi. Ayollar nutqida ham kinoya, o'xshatish, qochirim, mubolag'a, varvarizm, vulgarizm, tabu kabi til unsurlarining o'rni beqiyosdir. Har bir ayolning nutqida u yoki bu element albatta o'zini namoyon etadi. Ayollar bir-biri bilan suhbatlashish orqali ruhan o'zlarini yanada tetik his qilishadi. Erkaklar esa asosan bir-biri bilan fikr almashish, tajriba orttirish maqsadida suhbatga kirishishadi.

Bu fikrlardan kelib chiqqan holda ayollar nutqi emotsionalligi bilan, erkaklar nutqi esa aniq faktlarga asoslanganligi bilan bir-biridan tubdan farqlanadi va biri ikkinchisini takrorlamaslik xususiyati mavjuddir.

Tilshunoslikda antroposentrik nazariyasi asosida ish ko'rish ko'plab fanlarning bir-biri bilan aloqadorligini yuzaga keltirdi. Jumladan gender lingvistika ham tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati asosida yuzaga kelgan hisoblanadi. Gender lingvistika juda qiziqarli yo'nalishlardan biri hisoblanib, unda erkak va ayol nutqining o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlari tadqiq etiladi. Gender xususiyatlar faqat so'zlashuv nutqida, ilmiy, rasmiy, publisistik nutqlarda yuzaga kelib qolmaydi. Balki, badiiy uslub namunalari hisoblanmish ko'plab badiiy asar

namunalarida ham yorqin ifodalanadi. Yaratilgan asar xoh nazmiy yo'lda yozilgan to'rt misragina she'r bo'lsin, xoh nasriy yo'lda yozilgan ertak, hikoya, qissa yoki roman bo'lsin ularning hammasida gender jihatlar o'zini namoyon etadi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani xalqimiz sevib o'qiydigan, milliylikimiz aks etgan badiiy asarning yorqin namunasi. "O'tkan kunlar" asarida ham gender jihatlarni turli ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. Asar qahramonlarining bir-biri bilan munosabatlari, ular o'rtasidagi turli vaziyatlar, qahramonlar o'rtasida yuzaga kelgan konflikt, kinoyali va istehzomus muloqot holatlarida gender xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin.

"O'tkan kunlar" asaridan olingan quyidagi parchalar orqali gender xususiyatlar qay tarzda ifodalanganligini kuzatamiz.

Ikkinchi bo'limda berilgan "Ota-ona orzusi" bobidan quyidagi personajlar nutqini tahlil qilamiz.

O'zbek oyim uncha-muncha to'yu azalarga "kavshim ko'chada qolg'an emas" deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o'z toylarini O'zbek oyim ishtiroki bilan o'tkazib olsalar o'zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab "manim to'yimni bek oyim o'z qo'llari bilan o'tkazdilar degan jumlaning majlislarda iftixor o'rnida so'zlab yurar edilar.

Ushbu keltirilgan parcha Otabekning onasi O'zbek oyim nutqidan olingan bo'lib, unda ayollarga xos bo'lgan gender jihatlarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekoyim o'zini uncha-muncha ayollardan ko'ra yuqori pog'onalarda ko'ruvchi ayol bo'lgan. Buni o'z nutqida foydalangan kavshim ko'chada qolg'an emas maqolidan anglash qiyin emas. Boshqa ayollar uchun esa O'zbekoyimni o'zlarining to'y-ma'rakalarida ishtiroki katta obro'ni bildirgan. Bunday holatni faqat ayollar psixologiyasida, xarakteridagina ko'rishimiz mumkin. Erkaklarni esa bunday mavzularda gaplashish, maqtanish holatlari deyarli qiziqitirmaydi.

Quyida yana bir parchada O'zbekoyimga va jamiki o'zbek ayollarga xos bo'lgan gender xususiyat namoyon bo'ladi.

Ul o'z uyida o'lturg'onida ham ustidagi atlas ko'ynak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan qahrabo tasbihni qo'ymay, qish kunlari tanchadan par yostiqa

suyalib, yoz kunlari ayvonning to'riga yaslanib Hasanalining xotini bo'lg'an Oybodoqqa, cho'ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmaslikni tanbihlabgina o'lturar edi.

Quyidagi parcha orqali O'zbekoyim timsolida o'zbek ayollarga xos bo'lgan kiyinish madaniyatiga jiddiy e'tibor berish, asosan uy yumushlari to'g'risida gaplashish holatini ko'rishimiz mumkin. Bu gender jihatlar ham asosan ayollar nutqidagi yetakchi mavzulardan sanaladi. Har bir ayol o'z nutqi davomida bu narsalarga alohida urg'u berib gapiradi. Erkaklarda esa bu xususiyat deyarli uchramaydi. Erkak kishilar uchun suhbatdoshning egnidagi kiyimi yetakchi ahamiyat kasb etmaydi. Bundan tashqari erkaklar nutqida ayollarga xos bo'lgan uy yumushlari haqida gaplashish holatlari uchramaydi. Bu parchadagi nutq ayolalrning gender jihatlarini yorqin ochib berishga xizmat qiladi.

Quyida Otabekning otasi bo'lmish Yusufbek hoji nutqi misolida esa erkaklarga xos gender xususiyatlar yorqin o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin.

Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'lturmaydir. Otabekmi, onasini, Hasanalimi ishqilib uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar, maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydilar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'ziga tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'b" deydir, noma'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalani, bundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmasdir.

Ushbu parchada yuqorida gender farqlanishlarda erkaklar nutqi sodda, ravon, kam hajmli degan fikrlarga ushbu misol yorqin dalil bo'la oladi. Yusufbek hojining kam gapidan ham uy ichidagilari nima demoqchi ekanliklarini tushunadilar. Bu kam gapirish xususiyati so'z boyligi bilan emas balki, Yusufbek hojining aqlli shaxsligidan, uzoqni ko'zlab ish tutishidan darak beradi. Ayollardan farqli o'laroq erkaklar o'z nutqlarini keng tarzda emotsiyalarga boy holda ifodalashdan kora, shu kam

so'z bilan anig' faktlarga asoslangan nutq orqali suhbatdoshiga o'z fikrlarini ifodalashni afzal ko'rishadi. Bu ham erkaklarga xos gender xususiyatlaridan sanaladi.

Tilshunoslikda gender munosabatlar keng qamrovli tushunchalardan bo'lib, unda erkak va ayollarning o'ziga xos nutq shakllari o'rganiladi. Har bir erkak yoki ayol nutqida uchraydigan gender xususiyatlar betakrordir. Gender xususiyatlar ifodasini oddiy so'zlashuvda emas balki badiiy asarlardagi personajlar nutqida ham kuzatish mumkin. Badiiy asarda ifodalangan gender xususiyatlar personajlar xarakteri, holati, ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, millati, mental qarashlari va shunga o'xshash ko'plab xususiyatlari haqida retsepiyentga badiiy asarni yorqin ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani
2. Alimov B. Badiiy matnda "lisoniy shaxs" namoyon bo'lishining sotsiopragmatik talqini
3. Islomov Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragmatik xususiyatlari
4. Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigma sifatida

**INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN
FOYDALANISH**

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani 15-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Askarova Nigora Yaxshiboyevna

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish, ingliz tili o'qitishning maqsad va vazifalari, ingliz tili o'qitish metodikasining lingvistik asoslari, ingliz tili o'quv fanining xususiyatlari haqida to'liq bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'qitish metodikasi, lingvistik asos, psixolingvistik asos.

Kirish:

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ma'lumki, ingliz tili tabiiy sharoitda muvaffaqiyatli o'zlashtiriladi. Geografik jihatdan olisda joylashgan va til sohibi bilan muloqatda bo'lish imkoniyati mavjud bo'lmagan ta'lim sharoitidagi ingliz tili o'rganish jarayonida amaliy maqsadga erishish murakkablashadi. Aynan shu vaziyat ingliz tili o'quv predmetini o'qitishda qator qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shu sababdan o'quv jarayonini tabiiy muhitga

yaqitlashtirish, darslarda tabiiy nutq vaziyatlarini yaratish yuzasidan izlanishlar olib boorish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ta'limning sifati va samaradorligi maqsadning belgilanishidagi aniqlik darajasiga bog'liq. Ingliz tili o'qitishda amaliy (ustuvor), umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar e'tirof etilgan. Mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ingliz tili o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

Rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ingliz tili kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'rgatiladi.

Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi.¹ Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak.

Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi.

Natijalar:

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas.

Til o'zlashtirish jaryoni ongli va beixtiyor harakatlar umumlashmasida kechishi aniq, lekin bu harakatlarni ta'minlovchi mexanizmlarning «ishga tushishi» til o'rganishga qanday sharoitda, necha yoshda kirishilayotgani bilan bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ona tilidagi nutq va fikrlash jarayonlari o'ta tez rivojlanayotgan bo'ladi, o'z navbatida mexanik xotira o'rnini so'z mantiq xotirasi, taqqoslash, qiyoslash, analogiya, tasniflash, umumlashtirish egallagan bo'ladi.

Agar shu davrda ingliz tili taqlid qilish va yod olish asosida o'qitilsa bu mexanik xotirani rivojlantiradi va oqibat natijada ona tilida nutq rivojlanishini to'g'ri qolishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida nutq va tafakkur rivojlanishini, fikr shakllantirish va ifodalashni ham tormozlanib qolishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli xalqlarning ananalari tanishtiriladi, ularga tili o'rganilayotgan mamlakatdagi axloq-odob qoidalari, marosimlari va bayramlarini anglash o'rgatiladi. O'qituvchi ushbu yondashuvlardan foydalanib ayni yoshdagi ingliz tili sohiblarining kundalik turmushda sodir bo'ladigan voqealar va hodisalarni aks ettiruvchi leksika, matnlar, foto va videomateriallarni tanlaydi.

Muhokama:

Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".

Tillararo nazariyaga muvofiq ingliz tili o'rganish jarayoniga ta'sir etuvchi barcha omillar hisobga olinishi lozim. Bu omillar ingliz tili o'rganuvchining yoshga oid (psixologik va bilish faolligi) xususiyatlari, ta'lim mazmuni va maqsadi hamda ularga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim vositalaridan iboratdir.

Mazkur nazariyaga muvofiq ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchi til tajribasiga tayanib ingliz tilidagi kommunikatsiyaning yangi lisoniy tizimi «aralash/tillararo kod»ni shakllantiradi. Ya'ni ona tili tajribasi ikkinchi tilni o'rganishda, so'ngra ularning ikkovi ingliz tilini egallashda (tillararo transpozitsiya va interferensiya) ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababdan, darslik va dasturlar tuzishda tillararo interferensiya va o'quvchining til tajribasi hisobga olinadi, ta'lim berishga mo'ljallangan qoidalar (oddiy nazariy bilimlar) amaliy ko'nikma va malakalarning egallanishini tezlatish va soddalashtirish maqsadlariga bo'ysundiriladi. Ya'ni ayrim zaruriy qoidalar yoki

nazariyalarning elementlari ingliz tili o'rganish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirish maqsadida bayon etiladi.

Xulosa:

O'quvchining ingliz tilidagi nutqini rivojlantirishda fikr ifodalashning ingliz tilidagi, ya'ni ona tilida fikr ifodalash usuli bilan qiyoslanadigan muqobil usuli shakllantirilishi lozim. Buning uchun nutq namunalarini o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarni ingliz tilda fikr ifodalash usullari bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Chunki nutq namunalarining boy repertuari o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda va hali shakllanmagan grammatik ko'nikmalar o'rnini qoplashda muhim ahamiyatga ega. Bunda tildagi alohida birliklar emas, balki shu birliklarni o'z ichiga olgan yaxlit modellar yoki qurilma (konstruksiya)lar taqqoslanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
2. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Toshkent — 2012.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov. – Xalq ta'limi. – №4 – Toshkent, 2013.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012.

LIPIDLAR

Ubaydullayeva Mumtozbeqim Baxshillo qizi

Buxoro Muhandislik – texnologiya instituti K va OOT fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Lipidlar bilan umumiy tanishish, yog‘lar va moylar, to‘yingan va to‘yinmagan yog‘lar, triglitseridlar (triglitserollar), fosfolipidlar va steroidlarni yaqindan ko‘rib chiqish.

Kalit so‘zlar: Yog‘lar va moylar, to‘yingan va to‘yinmagan yog‘ kislotalari, trans yog‘lar, omega yog‘ kislotalari, mumlar, fosfolipidlar, steroidlar.

Yog‘lar va moylar

Yog‘ ikki qismdan iborat: glitserin asosi va uchta yog‘ kislotalari dumchasi. Glitserin uchta gidroksil (OH) guruhi bo‘lgan kichik organik molekuladir, yog‘ kislotalari bo‘lsa karboksil guruhiga birikkan uzun uglevdorod zanjiridan iborat. Odatda yog‘ kislotalari 12-18 ta ugleroddan tarkib topadi, ammo ba‘zilarida bor-yo‘g‘i 4 ta yoki 36 tagacha uglerod bo‘lishi mumkin.


Turli yog‘lar **yod soni** va **gidrolizlanish soni** deb ataladigan doimiylar bilan ham xarakterlanadi.

Yod soni moyning to‘yinmaganlik ko‘rsatkichi bo‘lib, 100g moyga birikkan yodning grammlar miqdori bilan ifodalanadi. Bu usul bilan yog‘ molekulasidagi qo‘shbog‘lar soni aniqlanadi.

Gidrolizlanish soni deb bir gramm yog‘ning glitserin va sovunga parchalanishi uchun sarflangan kaliy gidroksidning milligrammdagi miqdoriga aytiladi


Yog‘ molekulasini hosil qilish uchun glitserin asosidagi gidroksil guruhlar [degidratlanish reaksiyasi](#) natijasida yog‘ kislotalarining karboksil guruhlari bilan reaksiyaga kirishadi. Bu esa uchta dumchali yog‘ kislotalari molekulasini glitserin asosiga murakkab efir bog‘lari (karbonil yoki $C = O$ guruhi yonida kislorod atomi joylashgan bog‘lar) orqali bog‘laydi. Triglitseridlar uchta bir xil yoki uchta har xil va turli uzunlikdagi yog‘ kislotalari dumchalaridan tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Glitserol




+

Yog' kislotasi



(Bu uchta modda turlicha strukturaga ega bo'lishi mumkin)

Triatsilglitserol



Glitserin asosi va uchta yog' kislotasi zanjiridan iborat triatsilglitserin molekulasi sintezi, suvning uchta molekulasi ajralib chiqishi.

To'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari


Uglevodorod zanjiridagi qo'shni uglerodlar faqatgina oddiy bog'larni hosil qilgan bo'lsa, yog' deb aytiladi. (Yog' kislotalari vodorodga to'yinadi, to'yingan kislotasi yog'da iloji boricha ko'proq vodorod atomlari uglerod skeletiga birikadi.)

Uglevodorod zanjirida qo‘shbog‘ bo‘lsa, yog‘ kislotasi to‘yinmagan hisoblanadi, chunki endi unda vodorodlar soni kam bo‘ladi. Yog‘ kislotasida faqat bitta qo‘shbog‘ bo‘lsa, u mono-to‘yinmagan, bir nechta qo‘shbog‘ bo‘lganda esa u poli-to‘yinmagan deyiladi.

To‘yinmagan yog‘ kislotalaridagi qo‘shbog‘lar boshqa turdagi qo‘shbog‘lar singari *sis* yoki *trans* konfiguratsiyasida mavjud bo‘lishi mumkin. *Sis* konfiguratsiyasida bog‘ hosil qilgan ikkita vodorod bir tomonda, *trans konfiguratsiyada* esa qarama-qarshi tomonda joylashadi. *Sis* qo‘shbog‘ yog‘ kislotasida burchakli strukturani hosil qiladi va bu yog‘lar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatdir.


To‘yingan yog‘ kislotasi

Stearin kislotasi




To‘yinmagan yog‘ kislotalari

Sis – olein kislotasi



Trans – olein kislotasi



To‘yingan yog‘ kislotasiga misol: stearin kislotasi (to‘g‘ri zanjir). To‘yinmagan yog‘ kislotasiga misol: *sis* olein kislotasi (*sis* qo‘shbog‘, burchaksimon zanjir), *trans* olein kislotasi (*trans* qo‘shbog‘, to‘g‘ri zanjir).

To'yingan yog' kislotalari dumchalari to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi, shuning uchun to'yingan dumchali yog' molekulalari bir-biriga zich joylashadi. Ushbu zich joylashish xona haroratida (nisbatan yuqori erish haroratiga ega bo'lganda) yog'lar qattiq bo'lishini ta'minlaydi.

Sis-to'yinmagan yog' kislotasi dumchalari o'zining sis qo'shbog'i sababli burchakli strukturani hosil qiladi va bu bir yoki undan ko'proq sis-to'yinmagan yog' kislotasi dumchalarining zich joylashuvini qiyinlashtiradi. Shunday qilib, to'yinmagan dumchali yog'lar – biz biladigan o'simlik moylari xona haroratida (nisbatan past erish haroratida) suyuqlik ko'rinishida bo'ladi

Transyog'lar

Trans yog'lar aslida tabiatda juda kam uchraydi, ammo qisman gidrirlash yo'li bilan sanoat jarayonlarida osongina ishlab chiqariladi.

Ushbu jarayonda vodorod gazi (asosan sis-to'yinmagan yog'laridan tarkib topgan) moylardan o'tkaziladi va qo'shbog'larning ba'zilarini oddiy bog'larga aylantiradi. Qisman gidrirlashdan maqsad yog'larga xona haroratida qattiq holda bo'lish kabi to'yingan yog'larga xos ba'zi xossalarni berishdir, ammo kutilmagan tarzda sis qo'shbog'larining ba'zilarini o'z konfiguratsiyasini o'zgartirib, *trans* qo'shbog'ga aylanadi. *Trans*-to'yinmagan yog' kislotalari yanada zichroq joylashadi va xona haroratida ham qattiq bo'ladi. Misol uchun, margarinning ayrim turlari katta miqdorda *trans* yog'lardan tarkib topgan.

Qisman gidrirlash va *trans* yog'lar sariyog' sifat mahsulotlarni arzon narxlarda ishlab chiqarishning oson yo'li bo'lib ko'rinishi mumkin. Afsuski, *trans* yog'lar inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. *Trans* yog'lar va yurak qon-tomir kasalliklari o'rtasida kuchli bog'liqlik sababli AQSH oziq-ovqat va dori administratsiyasi (FDA – US Food and Drug Administration) yaqindagina oziq-ovqatlar tarkibida *trans* yog'lar bo'lishiga nisbatan taqiq qo'ydi. Kompaniya va firmalarga o'z mahsulotlari tarkibidan *trans* yog'larni chiqarib tashlash uchun 3 yillik muhlat berildi.


Omega yog' kislotalari

Yog' kislotalarining yana bir sinfi omega-3 va omega-6 yog' kislotalari hisoblanadi. Omega-3 va omega-6 yog' kislotalarining uch xil turi mavjud, ammo

bularning barchasi ikkita muhim shakldan hosil bo‘ladi: linolen kislotalari omega-6 uchun va alfa-linolen kislotalari omega-3 uchun.

Inson tanasi bu molekulalar (va ularning hosilalari)ga muhtoj, ammo alfa linolen kislotalarini ham, linolen kislotalarini ham sintezlay olmaydi. Shunga ko‘ra alfa-linolen kislotalari va linolen kislotalari muhim yog‘ kislotalari sifatida tasniflanadi va ratsionimizdan o‘rin olishi juda muhim. Losos kabi ba‘zi baliq turlari, chia va zig‘ir donlari omega-3 yog‘ kislotalarining manbaidir.

Omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalari kamida ikkita *sis*-to‘yinmagan bog‘lardan iborat bo‘ladi. Quyida ko‘rsatilgan alfa-linolen kislotalari biroz egri shakl hosil qilgan. Alfa-linolen kislotalari qo‘shimcha qo‘shbog‘larning hosil bo‘lishidan 6 ta *sis*-to‘yinmagan qo‘shbog‘ va yarim aylana shaklini hosil qilgan omega-3 – dokozageksaen kislotalariga misol bo‘ladi.



Rasmda alfa-linolen kislotalari va uning uchta *sis* qo‘shbog‘i yarim aylana shaklini hosil qilgani ko‘rsatilgan.

Omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalari tanada bir qancha vazifalarni bajaradi. Ular bir qator muhim signal uzatuvchi molekulalar, shuningdek, yallig‘lanish va kayfiyatni boshqaruvchi molekulalarni sintezlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, omega-3 yog‘ kislotalari yurak xurujida to‘satdan o‘lim xavfini hamda qondagi triglitseridlar miqdorini kamaytiradi, qonbosimni tushiradi va tromblar (qon laxtalari) paydo bo‘lishining oldini oladi.

Yog'larning ahamiyati

Yog'lar juda zararli deb aytiladi va bu to'g'ri. Chunki juda ko'p miqdorda qovurilgan va boshqa "yog'li" taomlarni tanovul qilish ortiqcha vazn paydo bo'lishiga va sog'lig'imiz bilan bog'liq muammolarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, yog'lar tana uchun kerakli va bir qancha muhim vazifalarni ham bajaradi.

Misol uchun, bir qancha vitaminlar yog'da eruvchandir, ya'ni bu vitaminlar tanada yaxshi so'rilishi uchun yog' molekulalari bilan bog'lanadi. Shuningdek, yog'lar energiyani uzoq vaqt mobaynida saqlab beradi, ular uglevodlarga nisbatan ikki baravar ko'proq energiya saqlaydi, shu bilan birga, tana uchun izolyatsiyani ham ta'minlaydi.

Mumlar

Mumlar – lipidlarning yana bir biologik jihatdan muhim bo'lgan turi. Ba'zi suv qushlarining patlari va ayrim o'simliklarning barglari mum bilan qoplangan bo'lib, uning gidrofob (suv o'tkazmaydigan) xossalari suvni so'rib olish yoki suvda ivib qolishning oldini oladi. Shuning uchun ko'plab o'simliklarning barglarida suv tomchi bo'lib qoladi va yomg'ir yog'ayotgan paytda ham ayrim qushlar ivib ketmaydi.

Struktura jihatidan mumlar odatda murakkab efir bog'lari orqali spirtlarga bog'langan uzun yog' kislotalari zanjirlarini o'z ichiga oladi, o'simliklarda hosil bo'lgan mumlar ko'pincha oddiy uglevodorodlar bilan ham yaxshi aralashadi.

Fosfolipidlar

Hujayra ichidagi suyuq shilimshiq modda (sitozol)ni nima himoyalab turadi? Hujayralar plazmatik membrana bilan qoplangan bo'lib, u hujayraning ichki muhiti va atrofdagi muhitdan to'siq bo'lib xizmat qiladi.

Fosfolipidlar deb nomlanuvchi lipidlar plazmatik membrananing asosiy komponenti hisoblanadi. Yog'lar kabi ular ham odatda glitserin asosiga birikkan yog' kislotalari zanjirlaridan iborat. Fosfolipidlarda odatda ikkita yog' kislotasi dumchalari bor va glitserin asosining uchinchi uglerodini modifikatsiyalangan fosfat guruhi egallagan. Turli xil fosfolipidlar fosfat guruhida har xil modifikatorlarga ega, xolin (azotli saqlovchi birikma) va serin (aminokislota) bularga umumiy misol bo'ladi. Modifikatorlar fosfolipidlarga turli xossa va funksiyalarni beradi.


Fosfolipid strukturasi: yogʻ kislotasining gidrofob dumlari va gidrofil boshchasi (murakkab efir bogʻlari, glitserin asosi, fosfat guruhi va fosfat guruhiga birlashtirilgan R guruhni oʻz ichiga oladi) koʻrsatilgan. Ikki qavat boʻylab tizilgan fosfolipidlardan iborat qoʻshqavatli membrana, yogʻ kislota boshchasi tashqi tomonga yuzlangan, yogʻ kislota dumi esa oʻrtada joylashgan.

Fosfolipid – amfipat molekula, yaʼni unda gidrofob va gidrofil qismlar mavjuddir. Yogʻ kislota zanjirlari gidrofob boʻlib, suv bilan aralashmaydi, fosfat saqlovchi guruh esa (oʻzidagi zaryad tufayli) gidrofil va suv bilan taʼsirlashadi. Membranada fosfolipidlar qoʻshqavatli strukturani hosil qiladi, ularning fosfat boshchalari suvga yuzlanadi va dumchalari ichki tomonga yoʻnaladi. Bunday joylashuv gidrofob dumchalarga suv tegishining oldini olib, uni past energiyali va barqaror tartibga aylantiradi.


Agar bir tomchi fosfolipid suvga tomizilsa, u oʻz-oʻzidan mitsella deb nomlanuvchi shar shaklidagi strukturani hosil qilishi mumkin, undagi gidrofil fosfat boshchalari tashqi tomonga yuzlanadi, yogʻ kislotalari esa ichki yuzada qoladi. Mitsellaning hosil boʻlishi energetik jihatdan afzaldir, chunki u gidrofob yogʻ kislota dumchalarini berkitib, gidrofil fosfat boshchalarining atrofdagi suv bilan oʻzaro taʼsirlanishiga imkon beradi.

Steroidlar

Steroidlar lipid molekulalarning yana bir sinfidir. Steroidlar toʻrtta halqaning birlashtirishidan hosil boʻlgan strukturani namoyon qiladi. Struktura jihatidan ular boshqa lipidlarga oʻxshamas-da, ular suvda eruvchan boʻlmagani va gidrofobligi sababli lipidlar turkumiga kiritiladi. Barcha steroidlarda toʻrtta bir-biriga bogʻlangan uglerod halqalari mavjud va ularning koʻpchiligida, jumladan, xolesterinda ham kaltagina dumcha bor. Shuningdek, koʻpgina steroidlar quyida xolesterin misolida koʻrsatilganidek, OH funksional guruhiga ega; bunday steroidlar spirtlar sifatida ham turkumlanadi va shuning uchun sterollar deb nomlanadi.



Xolesterol



Kortizol

Steroidlarga misol: xolesterin va kortizol. Har ikkida ham to‘rtta birlashgan uglevodorod halqalari mavjud.

Xolesterin eng ko‘p uchrovchi steroid bo‘lib, asosan jigarda sintezlanadi va ko‘pgina steroid gormonlar uchun boshlang‘ich asos hisoblanadi. Bularga jinsiy bezlar (urug‘don va tuxumdon)da ajralib chiqadigan jinsiy gormonlar – testosteron va estradiol kiradi. Xolesterin tanadagi boshqa muhim molekulalar, jumladan, D vitamini va safro kislotalari uchun boshlang‘ich modda sifatida ham xizmat qiladi, bu esa oziq-ovqatlardagi yog‘larni hazm qilish va tanada so‘rilishiga yordam beradi. Shuningdek, u hujayra membranalarining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ularning oquvchanligi va dinamikasini o‘zgartiradi.

Albatta, xolesterin qon tarkibida ham uchraydi va qondagi xolesterin darajasi haqida biz shifokorlardan yoki yangilik xabarlarida ham tez-tez eshitib turamiz. Qondagi xolesterin yurak-qontomir tizimiga (o‘zining yuqori zichligida) himoyalovchi ta’sir ko‘rsatishi ham, (o‘zining past zichligida) salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy biologiya.
2. Masharipov, Tirkashev.
3. Peluso, M. R. (n.d.). How are lipids stored in the body. In *Healthy eating*.
4. Saturated fat. (2015, June 13). Retrieved July 24, 2015 from.
5. Essential fatty acid. (2016, May 26). Retrieved May 30, 2016 from
6. Wikipedia: https://en.wikipedia.org/wiki/Essential_fatty_acid.

**АМИР ТЕМУР ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ
ВА УНИНГ ҲАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАРДАГИ МОХИЯТИ**

Абдуллаева Дилрабохон Зумратбековна

*Андижон вилояти Олтинкўл тумани 12-умумтаълим мактаби
тарих фанлари ўқитувчиси, АДУ мустақил илмий тадқиқотчиси*

Аннотация

Мақолада ўзбек ҳалқи дипломатияси тарихининг Амир Темур даври мисолида ўрганишга этибор қаратилиб, буюк саркарда томонидан олиб борилган дипломатик фаолиятнинг асосий тамойиллари, устивор жихатлари ва ўша давр ҳалқаро муносабатларидаги мохияти тарихий манбалар асосида ёритилган.

Калит сўзлар: Амир Темур, элчи, элчилик, дипломатия, дипломатик тамойиллар, ташқи сиёсат, ҳалқаро муносабатлар, Темур тузуклари.

Янги тараққиёт босичига кўтарилиб, ривожланиб ва такомиллашиб бораётган ҳар бир давлатнинг жаҳон майдонидаги мавқеи унинг дипломатик муносабатларидаги нуфузига боғлиқ ҳисобланади. Сўнги йилларда учунчи уйғониш даври ислоҳатларини амалга ошираётган Янги Ўзбекистонни ташқи сиёсатининг бугунги кундаги ҳолати ўзбек дипломатияси тарихи билан боғлилиги шубҳасиздир. Буюк саркарда Амир Темурнинг таржимаи ҳоли, ҳарбий юришлари ва маҳорати, бунёдкорлик ишлари, давлат сиёсати билан бир қаторда унинг ўз даврида олиб борган дипломатик фаолияти, ташқи сиёсатдаги мавқе, дипломатик тамойиллари ҳалқаро муносабатларда муҳим аҳамиятга эга.

Амир Темур дипломатиясининг асосий тамойиллари ҳалқаро муносабатлар ва ҳалқаро ҳуқуқ принципларига тўла мос тушишини далиллар ва тадиқотлар исботлайди. А.Темур элси ва элчилик даҳлсизлиги тамойилига қаттиқ амал қилади ва ўз мулоотдошларидан ҳам шуни талаб этади. “Элчига ўлим йўқ” шиори унинг асосий матлаби бўлиб қолади[1].

Миср султони Носир Фаригининг ҳақоратомуз мактубини келтирган ва ўз исмининг маъносини билмаган элчи Байсақа нисбатан Амир Темур “.. агарда подшоҳларнинг элчиларга озор етказмаслик одатлари бўлмаса эди, албатта мен сенинг ҳаққингга муносиб иш қилардим ва ўзингга лойиқ бўлган аҳволга сени етказар эдим” деб муносабат билдиради. 1370 йили Юсуф Сўфий ҳузурига юборилган элчиси қамаб қўйилганлигини эшитган Темур Хоразм шоҳига “Подшоҳлар удумию яхшилар иши, наҳот шуни билмас ул зукко киши, Элчига ўлим йўқ, қамаб ҳам бўлмас, буни инкор қилган хирадманд эмас” деб шеърӣ тарзда мактуб йўллайди.

Амир Темур тасарруфига олинган мулкларда нафақат элчилар ҳаёти, балки уларнинг моли, от-улови, анжом-ашёлари ҳам даҳлсиз ҳисобланган. Элчиларнинг бирор нарсаси йўқолса ўша жой маъмурлари тавон тўлашлари лозим бўлган. Сарҳадларда элчилик ва чопарлик фаолиятларининг тез ва беҳалал амалга ошувини таъминлаш учун кенг имкониятлар ва воситалар яратилган. Ўзга подшоҳлик элчиларига харажатлар учун махсус маблаҳ – алуфа инъом этишларини амр қилган. Холисона фикр қилганда ўша даврда дипломатик найранглар авж олган Европа, Шарқ ва бошқа, дунёнинг ҳеч бир давлатларида элчиларга нисбатан бундай эъзозу эътибор қаратилмаган[3].

Темур дипломатиясининг бошқа бир тамойили тузилган битимга ва аҳдга вафо илиш, унинг шартларига риоя этиш бўлиб, у қайси ҳукумдор билан битим тузса ёки сулҳ сафога борса унга матонат билан содиқ қолган. Бу тамойил ижросини Темур фаолиятининг турли даврларида кўриш мумкин, хусусан Амир Хусайн билан “ҳаёт ва мамотда бир жону тан бўлиб, то қиёмат кунигача жабру зулмга қарши бир-биримизга қалқон бўлишга аҳд қиламиз” деб тузилган битимга, Хусайн томонидан бир неча бор бузилган бўлсада Амир Темур аҳдига садоқатда бўлганлигини тарих манбалари исботлайди. Бу каби садоқат тамойили унинг Тўхтамишхон билан бўлган муносабатларида ҳам яққол кўринади. Кўрсувдан ўтиб, Тўхтамишга юзма-юз келган Амир Темур ўз аскарларига “Тўхтамиш подшоҳ билан ўртамизда аҳду паймонимиз бор, биз бу аҳдимизга

вафо қилмоқдамиз, агар лашкар уники эканлигини билсангиз, жангдан қўл тортиб, ортингизга қайтинглар” деб буйруқ беради[10].

Буюк Саркарда дипломатиясининг кейинги энг муҳим тамойили хушмуомалалик, мулоқотдошга назокат ва лутфда бўлишдир. У дунёнинг турли тарафларига мактублар йўллаб, катта кичик султонлар, ҳукмдорлар ва ноибларни ўз мулоқатига чорлардики, уларнинг қамрови Хуросон, Эрон, Кавказ сархадларию бутун Кичик Осиё, Европа маркази ва кенгликларидан то Чину Мочинга қадар бўлган ўлкаларни ўз ичига олган. Бу мактублардан яна шу нарса аёнки, Амир Темур қайси ҳукмдорга мактуб йўлласа, ўша мамлакат ҳукмдори кайфиятига мос сўзлар, ҳукмдорлар шаънига хос бўлган унвонларни танлай билган. Темур саройидаги мирзолар жуғрофия, тарих, этнография ва бошқа соҳаларда чуқур билимларга эга бўлиб, кенг маълумотлар хазинасини бунёд этганлар. Рақибларга нисбатан лутф ойинида бўлиш билан у ўз душманлари сафини камайтира олди[7].

Маълумки, элчилик мулоқатларининг мувофаққияти элчиларга кўп жиҳатдан боғлиқ бўлган. Шунга кўра, Амир Темур ўз элчиларини ақилли, доно, фаросатли, сўзамол ва ҳозиржавоб, обрўли ва асл зотли, замонасининг ақобирлари ва фузолolari орасидан танлар эди. Улардан Жалолиддин Кеший, Шамсуддин Олмолиғий, Жалолиддин Баҳодир шулар жумласидандир[8].

Айни пайтда Темур ўз элчиларига нисбатан талабчанг ҳам эди. Ўз вазифасига масъулиятсиз бўлган ва ишончни оқламаган элчилар баъзан мудхиш жазога дучор бўлардилар. Шу ўринда Шомийдан келтирилган маълумотга кўра, “Ҳожи Ҳожа (Ўлжайту Дароз билан Шох Шужоъга элчи қилиб жўнатилган) сафар асносида ўзига яраша ҳаёт кечирмай, ҳаддан ортиқ дабдабага берилгани учун оқибат уни гуноҳкор, деб билиб ёсоққа етказдилар” [5].

Маълумки, дипломатия ғалабага эришишнинг энг арзон, энг беталофат йўли ва воситаси ҳисобланади. “Қайси ишни чораю тадбир билан битиришнинг иложи бўлса, унда қилич ишлатмадим”, шунингдек, “...Мен тажрибамдан шуни билдимки, юз минг отлик аскар қила олмаган ишни бир бир тўғри тадбир билан амалга ошириш мумкин экан” дейилади “Темур тузукларида[2]. Араб муаррихи

Ибн Дўқмоқнинг “Ақд ал-жавоҳир” асарида ҳикоя қилинишича, Темур Дамашқни муҳсора қилганда (1400 йил декабрь-1401 йил март) қалъадагилар узок вақт таслим бўлмай, қаршилик кўрсатаётган бир пайтда Муҳаммад пайғамбар ҳарамларидан бўлмиш Умми ал-Ҳабибанинг қабрини ташландик ҳолда кўриб, Амир Темур қабр устига гумбаз қурдиради. Шундан сўнг шаҳарда Темурга ҳайрихоҳ кишилар кўпаяди ва улар сулҳ тузишни ташвиқот қиладилар.

Амир Темур томонидан ғанимларини ширинсўзлиги, сийлови билан ўз томонига оғдириб олиш ва рағбатлантириш усули ҳам кенг қўлланилган. Бу ҳақида Темурнинг ўзи: “Ғанимларни чучук сўз ва ширин ҳикояти билан ўз томонига эгмоқни ва улар вужудидаги ёндургувчи ғазаб ўтини тўғри тадбир суви билан ўчирмоқни маслаҳат кўрдим, шу тарза уларни ром қилмоқ бўлдим” дейди. Шунинг билан бирга, забт этган юртларда ўз мавқеини мустаҳкамлаш учун ўша ерлик ҳар бир фуқаронинг қалбига йўл топа билди, бунинг учун эса, ҳар бир мамлакатда “адолат эшигини очиб, зулм йўлини тўсди”. Темурнинг ўзи айтганидек: “... Ҳеч кимдан ўч олиш пайида бўлмадим. ...Ҳар эл ва мамлакатнинг улуғларини, бошлиқ ва оқсоқолларини қадрладим, уларга совға –саломлар бериб, хизматларидан фойдаландим....Ўша ернинг обрў-эътиборли кишиларини азиз тутдим” [6].

Амир Темур саройида ўша давр руҳи ва кайфиятига мос дипломатик қонун-қоидалар ҳам тадқиқ этилиши илмий нуқтаи назардан арзигулик ва қизиқарли масаладир. Мазкур қоидалар бутун дунёда амалда бўлгани каби ўрта асрлар мусулмонлар шарқида ҳам, Темур саройида ҳам жорий этилган[11].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Д.Абдуллаева, Амир Темур дипломатиясининг асосий тамойиллари. “Мозийдан садо” илмий-амалий журнали, “Шарқ” нашрети, Тошкент, 2003 й.
2. “Темур тузуклари”, таржимон Х.Бобобеков, “Фан ва технология” нашрети, Тошкент, 2014 йил.
3. Руи Гонсалес де Калвихо, “Амир Темур Испания элчиси нигоҳида”, таржимон У.Жўраев, “Замин нашр” нашрети, Тошкент 2019 йил.

4. Шарофиддин Али Яздий “Зафарнома” асари, “Камалак”, Тошкент, 1994 йил.
5. Низомиддин Шомий “Зафарнома” асари, таржимон Ю.Ҳақимжонов, “Фан” нашрети, Тошкент 2019 йил.
6. Амир Темур тузуклари, З.Муқимов, СамДУ нашриёти, Самарқанд, 2008 йил.
7. Л. Керен, А.Саидов, Амир Темур ва Франция, “Адолат”, Тошкент, 2016 йил.
8. Д.Абдуллаева, Б.Исроилова ““Зафарнома” асаридаги номалар ва уларнинг тарихий ахамияти”, республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари, Тошкент Давлат шарқшунослик институти, 2015 йил.
9. Ш. Ўлжаева, Амир Темур дипломатияси: илмий-оммабоп қўлланма, “IJOD-PRESS” нашриёти, Тошкент, 2018 йил.
10. “Ўзбек дипломатияси тарихидан” китоби, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Хега-Принт нашрети, Тошкент, 2003 йил.
11. Д.Абдуллаева, Амир Темур даври дипломатияси, Ёш олимлар ва татқиқотчилар илмий амалий анжумани тўплами, Тошкент 2004 йил.

**O'RTA OSIYODA YER-SUV ISLOHOTINING BIRINCHI BOSQICHINI
AMALGA OSHIRILISHI**

Mehritillayev Madiyor Doniyor o'g'li

TVCHDPU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer-suv islohotining birinchi bosqichi haqida so'z borib, o'lkamiz hududidagi sovet hokimiyatining ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlari haqida so'z boradi. Shuningdek, yer-suv islohotining sabablari, oqibatlari hamda natijalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: s'yezd, Stolippin, krestyan, qushchi, dekret, Ural, Oqmola, Semipalatinsk, kompartiya, agrar, RKP(b)MQ.

O'RTA OSIYODA YER-SUV ISLOHOTI — Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish maqsadida O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar (1921—29). O'rta Osiyo yer-suv islohoti 2-bosqichda: 1) 1921-22 yillarda Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSRda; 2) O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan. Sovet jamiyati tomonidan o'tkazilgan agrar islohot yangi bosqichining vazifalari RKP(b)MKning 1920-yil 29-iyul qarori, Turkiston Kompartiyasining 5-s'yezdi va Turkiston ASSR sovetlarining 9-s'yezdi (1920-yil sentyabr) qarorlarida belgilab berildi. Bu vazifalarni 3 guruhga bo'lish mumkin: mehnat bilan shug'ullanmaydigan boyquloq xo'jaliklarni tugatish va ko'chmanchi aholini o'troq holatga o'tkazish; katta yer egaligini yo'qotib, yerlarni ersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar, chorakorlar o'rtasida mehnat normalari bo'yicha taqsimlash; chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining ayrim sarqitlarini tugatishga qaratilgan bo'lib, stolipin islohotlari davrida Turkistonga ko'chirilgan kelgindi rus krestyanlari (dehqonlari) tomonidan egallab olingan yerlarni tortib olish. Islohotni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish 1921 yil bahorida boshlanib, dastlab u Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona oblastlari va Qozog'iston ASSRning Oqmo'la, Ural, Semipalatinsk gubernyalarida

amalgama oshirildi. Islohot favqulodda tartiblar shaklida o'tkazilib, uning asosiy vositasi — ma'muriy tazyiq o'tkazishdan iborat bo'ldi. Vaqf yerlari ham tartib olinib boshlandi. Terrorga uchragan islohot qurbonlari qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Mintaqaning butun hududi, jumladan O'zbekiston SSRda mulkdor dehqonlarning sovet hokimiyatiga qarshi ko'plab ommaviy g'alayonlari va isyonlari bo'lib o'tib, ayrim holatlarda u qo'zg'olon darajasiga o'sib chiqqan. Islohot qishloqdagi siyosiy vaziyatni jiddiy ravishda keskinlashtirdi. Islohotning 1-bosqichida yer tuzish jamg'armasiga 1 722626 desyatina yer qo'shildi. Ana shu resurslardan mahalliy aholiga faqat 600 000 desyatina yer (o'zbek aholisi uchun atigi 117 512 desyatina yer) ekin ekish va yaylovlar uchun ajratildi. Islohotning 2-bosqichi birinchisidan farqli o'laroq katta yer egaligini (rasmiy hujjatlarda quloqtar — mushtumzo'rlarni) butunlay cheklash va ularni sinf sifatida tugatish masalasini qo'ydi. "Agrar inqilobing strategiya va taktikasi" O'zbekiston kompartiyasining 2-s'yezdi (1925-yil noyabr) da tasdiqlandi. Bu bosqich O'zSSR MIKning "Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida" va "Yer-suv islohoti to'g'risida" dekretlari (1925-yil 2-dekabr) va Turkmaniston SSR MIK va XKSning 1925-yil 24-sentyabrdagi qarorlari, Qozog'iston ASSR va XKS ning 1926-yil 20-maydagi qarorlari bilan boshlandi. Mazkur bosqichda ham davlatning butun qudrati "Quloqboy unsurlar"ga qarshi kurashga qaratildi. 1925-29-yillardagi islohot jarayonida shakllangan kam quvvatli xo'jaliklar tartib olingan 474893 desyatina yer fondidan boryo'g'i 10%i olindi, xolos. O'rta Osiyo respublikalarida islohot davrida 6763 ta badavlat odamlar qo'lidagi mulk butunlay musodara qilindi, 37759 ta boyning yerlari keskin kamaytirildi, 415500 desyatina yer 123400 yersiz va kam yerli dehqonlar o'rtasida taqsimlandi. Bu bilan agrar islohot yer-suvni tartib olishni tugallab, qishloq xo'jaligini davlat monopoliyasiga olish uchun moddiy shart-sharoitlar yaratdi. Agrar siyosat. 1925-1929-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati, uning og'ir oqibatlari. Azaldan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati maskani hisoblangan hamda aholisining mutloq ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band bo'lgan Turkiston xalqlari uchun yer-suv, undan foydalanish masalasi favqulodda ahamiyat kasb etardi. Negaki, o'lka aholisining anchagina qismi yersiz edi. Bir parcha yerga muhtoj bo'lganlar boylar, zamindorlarning mulkida

chorakorlik bilan hayot kechirib, oila tebratib kelardi. Buning ustiga ko'plab serhosil, unumdor erlar Rossiyadan ko'chirib kelingan rus oilalari foydasiga majburan olib berilgan edi. Chorizmning Turkistondagi bu mustamlakachilik siyosati yersiz, batrak dehqonlarning ahvolini tanglashtirib yuborgan edi. Shu bois ham mahalliy yerli aholi yangi sovet hokimiyatining "Yer dehqonlarga" degan va'dalari, da'vatlariga umid bog'lab, uning yer to'g'risidagi dastlabki dekretning amalga oshuviga ko'z tikib kelayotgandi. Sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholisini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab er to'g'risidagi dekretni qabul qilgan bo'lsa-da, ammo uni amalga oshirishdan kuzatgan maqsadlari boshqacha edi. Sovetlarning yer-suv islohoti masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi xususiy yer-mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik sotsialistik xo'jaliklarni qaror toptirish edi. Turkistonda shu maqsadlarni ko'zlab yer-suv islohotini o'tkazishga kirishildi. Yer-suv islohoti Turkiston sovetlarining XI s'yezdida (1920-yil) o'lkada yer-suv islohoti masalasi ko'rib chiqildi, bu sohadagi asosiy vazifalar belgilandi. Bunga ko'ra aholining qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, Yevropalik kelgindi aholi bilan yerli xalqlar o'rtasida yer-suv maslasida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlariga barham berish, mehnatkash aholini sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topildi. Shu maqsadda joylarda qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi "Qo'shchi" uyushmalari tuzila boshlandi. "Qo'shchi"uyushmalari kommunistlarning dehqonlar orasidagi tayanchiga aylanib, yer-suv islohotini o'tkazishda partiyaga katta yordam 229 ko'rsatib bordi. Turkiston ASSR hududida 1921-1922-yillar davomida yer-suv islohotining birinchi bosqichi yirik yer-suv egalariga qarshi keskin kurash shiori ostida o'tkazildi. Masalan, Samarqand viloyatida 350 ta katta yer egalaridan 13 ming desyatina yerlar tortib olindi. Respublika bo'yicha boy va o'ziga to'q aholidan 1,7 mln. desyatina yer tortib olindi, ularning 117 ming desyatinasini yersiz kambag'allarga berildi, qolgan katta qismi asosida "Qo'shchi" uyushmalari tuzildi. Bu sovet hokimiyatining kambag'allarni o'z tomoniga og'dirib olishga qaratilgan harakati edi. O'rta hol dehqon xo'jaliklari saqlab qolindi. 1925-yil dekabrda bo'lgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Favqulodda sessiyasi "Yer va suvni milliylashtirish to'g'risida" dekret

qabul qildi. Dekretga binoan quyidagi tarzda yerlar batamom musodara qilinishi kerak edi: Qayerda turishidan qat'i nazar Farg'ona viloyatida 40 desyatinadan, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bo'lgan mulk egalarning yerlari, jami jonli va jonsiz mulki bilan; Qishloq va ovullarda yashamagan, o'zlari va oila a'zolaridan birortasi ham yerda ishlamaydigan shaxslarga qarashli yerlar, boshqa mol-mulki bilan;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr boshlari xususan, 20-30-yillar Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir, lekin shunga qaramasdan Ota-bobolarimiz, o'zlaridan juda katta madaniy va ma'naviy me'roslar ham qoldirishgan, bir tomondan, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun mustamlakachilarga qarshi qahramonona kurashdilar. 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti va uning oqibatlari ham bevosita ta'sir etmasdan qolmadi. Ikkinchidan, xalqimiz Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilib katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdilar. Uchinchidan, sovet mustamlakachiligi xalqimiz boshiga og'ir kulfatlar, yo'qotishlar keltirgan davrdir. Bu davrda xalqimiz ko'plab kulfatlarni boshidan o'tkazdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Zakiy Validiy. Rus mustamlaka siyosatining mohiyati va maqsadi. Vena, 1929 (B. Qosimov tarjimasi).[1]
2. Ahmad Zakiy Validiy. Xudoyorxonning so'nggi kunlari. O'zR FA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma, № 15743.[2]
3. Ahmad Zakiy Validiy. Bugungi turk eli (Turkiston va yaqin tarixi) Istanbul, 1981, 2-nashr.[3]
4. Azizxojaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T., «Sharq», 1992.
5. <https://arxiv.uz>
6. <https://wikipedia.org>

**TURKISTONDA OCHARCHILIK, SIYOSIY BUHRON,
BOLSHEVIKLARNING YAKKA BOSHCHILIK TIZIMINING
O‘RNATILISHI**

Mehritillayev Madiyor Doniyor o‘g‘li

TVCHDPU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda bolsheviklarning yakka boshchilik tizimi haqida so‘z boradi. Shuningdek, bolsheviklarning Turkistonda olib borgan ijtimoiy,iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Bolsheviklar, qurultoy, sotsializm, komunizm, kompartiya, markaziy hokimiyat, deputat, marksizm, leninizm.

Sovet hukumdorlari Turkiston muxtoriyatini qonga botirib tormor qilgan bo‘lsalar-da, o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning tobora taranglashib borishining oldini ola olmadilar. Uning eng asosiy va bosh sababi oktabr ilgari surgan g‘oyalarning Turkiston xalqlari talab va intilishlaridan uzoq va begonaligi edi. Hatto Oktabr harbiy to‘ntarishining dastlabki kunlarida ma’lum darajada uni qo‘llagan va turli sabablar taqozosi ila uning tomoniga o‘tgan kimsalar ham kunlar o‘tishi oqibatida oktabr yuzaga chiqarayotgan voqea-hodisalarni hayotda, tajribada ko‘rib undan tobora yuz o‘gira boshladilar. Buni quyidagi misollar ochiq-oydin ko‘rsatadi. 1917-yil, noyabr o‘rtalarida Toshkentda to‘plangan shahar idoralarining Qurultoyida so‘zga chiqqan deputatlardan biri Mirazimov (Toshkent) bunday degan edi: "Ishchi va askarlar soveti o‘z doirasidan yerli xalqning aksariyati – musulmonlarni chiqarib tashladi. Endilikda aqalliy bu guruh hammamizga o‘z shartlarini qo‘ymoqchi. Aslida aholining tarkibiga mutanosib bo‘lgan Markaziy hokimiyat tuzish lozim. Hozirgi hokimiyat esa fuqaroning manfaatiga zid".[1] Ushbu qurultoyda so‘z olgan qo‘qonlik deputat Obidjon Mahmudov esa bolsheviklar sovetiga o‘z munosabatini quyidagicha ifodaladi: "Garchi bolsheviklar mamlakat manfaatini ko‘zlar ekan, nechun ular ta’sis majlisining chaqirilishiga to’sqinlik qilishayotir! Biz, musulmonlar Rus inqilobi

bizlargacha hurriyat va tinch hayot keltirur, deb quvongan edik. Firqaviy bahslar ketida sizlar vatanni va o'lkamizni barobar nobud qilayotirsizlar"[2]

Ayniqsa, 1917–1920-yillarda Turkiston o'lkasi xalqlari boshiga vabodek yog'ilgan ochlik balosi xalq ommasining kulfatlarini yanada oshirdi. Bu ochlik va uning natijasi o'laroq kelib chiqqan kulfatlarning sababi va o'zagi qayerda degan savol tug'iladi. Buning sabablari quyidagilardir:

Birinchiidan, Turkistonda oktabr harbiy to'ntarishi zo'rlik yo'li bilan amalga oshirildi. Mamlakat oktabr to'ntarishiga umuman tayyor emas edi.

Ikkinchiidan, oktabr to'ntarishini mahalliy tub yerli aholi amalga oshirmadi, balki, yevropa millatiga mansub millatlar, asosan rus harbiylari amalga oshirdilar. Tub yerli aholi esa "Marksizm-Leninizm", "proletariat diktaturasi", "kompartiya", "sotsializm" va "kommunizm" kabi tushunchalardan uzoqda va undan begona edi.

Uchinchiidan, oktabr to'ntarishidan so'ng sovetlarning III qurultoyida saylangan Turkiston sovet hukumati mahalliy tub yerli aholining manfaatlariga zid va qarama-qarshi hukumat edi. Chunki bu hukumat yuz foiz kelgindi yevropa millatlariga mansub xalqlar vakillaridan tashkil etildi. Ular tub yerli mahalliy xalqning na tilini, na dinini, urf-odati, madaniyati va tarixini bilmas edilar. Hukumat tarkibiga mahalliy xalq vakillari umuman kiritilmadi.

To'rtinchiidan, eng asosiysi Turkistonda tashkil etilgan sovetlar hukumati sof mustamlakachi hukumat bo'lib, a'zolarining hammasi mahalliy musulmonlarga nisbatan butun vujudini millatchilik va shovinistik og'u qoplab bo'lgan shaxslar edilar. Ular mahalliy xalqqa nisbatan tobe, qul, [3] ikkinchi toifa xalq sifatida past nazar bilan qarar edilar. Buni Turkiston xalqlarining asl farzandi Turar Risqulovning quyidagi so'zlaridan ochiq-oydin bilib olish mumkin: "Turkistondagi oktabr to'ntarishining rahbarlaridan biri Tobolin Turkiston markaziy ijroiya qo'mitasi majlislaridan birida to'g'ridan to'g'ri Qirg'izlar iqtisodiy qoloq bo'lganlari uchun ham, ular bari bir qirilib ketishga mahkumdir". Shuning uchun inqilob butun kuchini ochlikka qarshi kurashishga emas, yaxshisi frontni mustahkamlashga qaratish kerak». Beshinchiidan, Turkiston o'lkasi sovetlar hukumati tepasida rahbarlik lavozimlarini egallab turgan

shovinstlar turli partiya va guruhlarga mansub bo'lib, g'oyaviy-siyosiy qarashlari ham sayoz bo'lgan.

Ular sovet tartib-qoidalarini joriy etish jarayonida Turkiston o'lkasidagi shart-sharoitni, bu yerda yashayotgan xalqlarning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy axloqiy urf-odatlarini, psixologiyasini bilmas edilar. Oltinchidan, 1917-yil noyabridan e'tiboran general Dutov Orenburg, Troitskiy, Chelyabinsk kabi muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni egallab oldi. Turkiston bilan Rossiya o'rtasidagi har qanday aloqa uzilib qoldi..Va nihoyat, yettinchidan, 1917–1919-yillarda Turkiston o'lkasida ro'y bergan qurg'oqchilik, qahraton qish va bahorgi sovuqlar birga qo'shilib o'lkadagi vaziyatni mislsiz bir holga keltirib qo'ydi. Ana shu yuqorida sanab o'tilgan barcha sabablar Turkistonda faoliyat ko'rsatayotgan sovetlar hukumatining mahalliy tub yerli xalqlarga nisbatan tutgan shovinstik va kamsituvchilik siyosati bilan birga qo'shilib xalqimiz boshiga son-sanoqsiz kulfatlar keltirdi. Rossiya Turkistonni bosib olgach bu o'lkani o'zining asosiy paxta yetkazib beruvchi hududiga aylantirgan edi.[4] Sovetlar hukumati ham chor Rossiyasi boshlagan yo'ldan bordi. V.I.Lenin Turkistonni Sovetlar Rossiyasining asosiy paxta yetkazib beruvchi bazasi deb qaradi. 1918-yil, 17-mayda uning Turkistonda sun'iy sug'orish ishlarini tashkil qilish uchun 50 million so'm ajratish to'g'risidagi dekretga qo'l qo'yishi bu ishning boshlanishi edi. Shu bois Turkiston o'lkasi o'zini o'zi g'alla bilan ta'minlay olmas edi. Bir tomondan jahon urushi, ikkinchi tomondan oktabr to'ntarishi va uchinchi tomondan Rossiyada boshlangan fuqarolar urushi natijasida Rossiyadan Turkistonga g'alla keltirish keskin kamayib ketdi. Jumladan, oktabr to'ntarishidan oldingi yillarda Turkistonga har yili 14 million puddan 20 million pudgacha g'alla keltirilgan bo'lsa, 1918–1919-yillardagi tayyorlov kompaniyasi davrida juda katta mashaqqat va qiyinchiliklar bilan 1,5 million puddan kamroq g'alla yetkazib berish ham amri mahol edi. Turkiston sovetlar hukumati ataylab paxta narxlarini kamaytirib, g'alla narxlarini ko'tarib borish siyosatini tutdi. Buni quyidagi dalillar yaqqol isbotlaydi: "1910-yili jahon bozori tarozusida I pud (16 kg 300 g mualliflar) Turkiston paxtasining narxi 4 so'm 75 tiyin bo'lgan bo'lsa, 1 pud bug'doyning narxi 1 so'm 65 tiyin baholangan. Inqilob arafasida, 1916-yili 1 pud paxta narxi 8 so'm 50 tiyin bo'lsa, 1 pud bug'doyning narxi 3 so'mga

to'g'ri keladi. 1917-yilga kelib 1 pud paxta 33 so'mga, 1 pud bug'doy esa 47 so'mga ko'tarilib ketdi. Bug'doy narxining ko'tarilishi 20-yillarning oxirlarigacha kuzatildi. 1917-yili Turkiston bo'yicha 52,5 million puddan ortiq non mahsuloti hosili yetishtirildi. Xuddi shu yili Turkiston aholisi faqatgina jon saqlash uchun 110 million puddan ortiq bug'doy iste'mol qilishi lozim edi". Mamlakatda vujudga kelgan bu vaziyat qishloq mehnatkashlarining paxta yetishtirishiga nisbatan ko'nglini sovutib yubordi. Ekin maydonlari keskin qisqarib ketdi. 1917-yilda bu 1915-yildagi 3,5 million desyatina o'rniga 2,3 million desyatinadan sal ko'proqni tashkil etdi. Dehqonlar qisqargan paxta maydonlari o'rniga bug'doy, sholi, arpa, tariq, jo'xori kabi mahsulotlar yetishtira boshladilar. Lekin bu hol muammoni hal qilmadi, aksincha ommaning turmush farovonligi pasaygandan pasayib bordi. Chunki almashtirishga paxta qolmadi va oziq-ovqat masalasi hal bo'lmadi.[5] 2. G'alla yetishtirish, oziq-ovqat sohasidagi tanqisliklar va paxta yetishtirishning kamayib ketishi sanoatga ham halokatli ta'sir ko'rsatdi. O'lka sanoatining asosiy va yetakchi tarmog'i hisoblangan [6] Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolsheviklarning o'lkamiz hududida olib borgan siyosati natijasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bu esa mamlakatimiz taraqqiyotiga jiddiy ta'sir qildi. Mamlakat hayotida leninizm g'oyalari avj oldi. Bu esa mamlakat mafkurasini tubdan o'zgartirib yubordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Политика Советской власти по национальным делам за три года. – М: 1920, стр. 8. [1]
2. "Туркестанские ведомости". 1917 г., 16 ноября. [2]
3. «Туркестанские ведомости». 1917 г., 16 октября. [3]
4. Ўзбекистон тарихи. (1917–1993 йиллар.) 38-бет. [4]
5. Севостьян И. Хлопководство и хлопковая промышленность Туркестана (Основные тенденции падения и возрождения современного хлопкового хозяйства). Высший Совет Нар. хозяйства. – М: 1921, стр. [5]
6. Ўзбекистон тарихи. (1917–1993 йиллар.) 38-бет. [6]

SHAKHRUX MIRZA'S ENTRY INTO THE FIELD OF POLITICS

Mehritillayev Madiyor Doniyor o'g'li

TRCSPU 3rd year student

Annotation: This article talks about Shahrukh Mirza's childhood, Sahibqiran's participation in military campaigns with Amir Temur, and Amir Temur's appointment of Shahrukh Mirza as governor of Khurasan, struggles for the throne after Sahibqiran's death, and changes during Shahrukh Mirza's time.

Key words: Amir Temur, Uncle Turkon, Saraymulkhanim, Samarkand, Khorasan, Taqvador.

Among the representatives of the Timurids, there are many rulers who did great things in history. one of such rulers is Shahrukh Mirza, the 4th son of Amir Temur. Before Shahrukh Mirza entered the political arena, I found it necessary to provide information about his personal biography. The son of Shahrukh Mirza ibn Amir Temur Koragon was born on Thursday, August 20, 1377, in the 14th Rabbius-Sani month of Hijri 779.[1] Shahrukh Mirza's mother was Toghai Turkon. Shahrukh Mirza's mother Togai Turkon was recorded in Khondamir's work Habib us-siyar. After the birth of Shahrukh Mirza, Saraymulkhanim, who was the beloved wife of Amir Temur, personally took care of his upbringing. Shahrukh Mirza strictly followed Sharia law from a young age and was interested in religious books.

History has witnessed that Shahrukh Mirza participated in the military campaigns of Amir Temur from the age of 14-15. Until the age of 20, he was on the floor of his father Sahibkiran and actively participated in military campaigns, including the Palestine campaign. During Amir Temur's campaign to the southern lands of Khurasan, Amir Temur himself, who was left in a very precarious situation, tells that Shahrukh Mirza saved Amir Temur's life in the battle with Shah Mansur. Amir Temur about that event. He confesses that his son Shahrukh Mirza was given strength by the Creator himself. Because Shahrukh Mirza was engaged only in obedient prayer, he was a

person who loved books a lot. His youngest son Shahrukh Mirza was appointed governor of Khurasan in 1397. Nizamiddin Shami writes in his Zafarnama: "Emirzada Shahrukh Mirza handed over the entire province of Khurasan and appointed some of the great amirs to serve him." We can see that Nizamiddin Shami recorded in his Zafarnama that Amir Temur gave his son Shahrukh Mirza an army of 12,000 during these events. Thus Shahrukh Mirza started his career as the deputy of Amir Temur in Khurasan, Mazandaran and Seistan from 1397. It is from this time that Shahrukh Mirza, the youngest son of Amir Temur, enters the big political arena. Under the protection and shadow of his father, Amir Temur, in all his campaigns and in matters of state importance, he is extremely entrepreneurial and with his far-reaching thoughts, he will gain great influence in the court of Amir Temur.

According to the writings of Fasih Khavafi, Shahrukh Mirza managed Khorasan governorship under the leadership of the influential lords of Herat.[2]

After Amir Temur gave him the governorship of Khorasan, Seistan and Mozandaran in 1397, he was satisfied with the title of the ruler of Khorasan until 1405.

According to the information of Fasih Khavafi: "In July 1399, according to the decree of Amir Temur, the construction of the Bogi Shahr Palace for Shahrukh Mirza began in Herat, and the Milkat tavochi was appointed to be responsible for this work.[3]" It was connected with Khurasan. Sahibgiron Amir Temur sends Khoja Shamsiddin Yahya Simnani to his son Shahrukh Mirza and appoints him as a minister. Some events related to Khurasan under the rule of Shahrukh Mirza are recorded in sources. lib, on the basis of which it is possible to illuminate the first periods of the activity of this prince. One of them is the events related to the officials in Shahrukh Mirza's court and their punishment by Amir Temur. By the way, according to the information given by Nizamiddin Shami and Sharafuddin Ali Yazdi, when Amir Temur approached Khurasan region, Khoja Fakhriddin Ahmad Tusi was sent to Khurasan to supervise the tax collection work. collected money and handed it over to the treasury.

We can get more detailed information about this event from Fasih Ahmad Khawafi's work. According to it, "while Amir Temur was staying in Nishapur, Khoja

Fakhriddin Ahmad Tusi was sent to Herat as an extraordinary autonomous representative. Tusi came to Herat and inspected the state affairs, and took the post of devanbeg. He hangs the famous Khwaja Ali Muhammadshah to the Malik gate of Herat for torturing the tax collectors.[4] There were serious reasons for such a punishment against Shahrukh Mirza's family. When Shahrukh Mirza was appointed as the administrator of Khurasan, he gathered the big lords of Herat around him and led the country under their leadership. As a result, the tax obligations in the country of Khurasan established by Amir Temur were lost. As a result, Khoja Ahmad Tusi was sent to Herat by Amir Temur to supervise tax affairs and inspect state affairs. This official performed the task assigned to him perfectly and gained respect in the palace of Amir Temur. Later, he was appointed by Amir Temur Khoja Fakhriddin Ahmad Tusi to one of the responsible positions in the Samarkand Divan. [5]In 1404, Amir Temur married the sons of Shahrukh Mirza, Ulugbek Mirza and Ibrahim Mirza, and other grandsons in Konigil.

In connection with this wedding, a big congress will be held in the city of Samarkand. The emirs told Sahibqiran that Shahrukh Mirza and Pirmuhammad Jahangir Mirza should participate in this meeting. Although Amir Temur allows Pirmuhammad Mirza to come to Samarkand, he does not allow Shahrukh Mirza to come, considering that he will support Mironshah Mirza, who is in Iraq and Azerbaijan. At this time Shahrukh Mirza was acting as the deputy of Khurasan, he did not participate in Amir Temur's Chinese campaign, he limited himself to providing the necessary troops and other supplies.

After the death of Amir Temur in 1405, Shahrukh Mirza, among the claimants to the throne, formed an alliance with Crown Prince Pir Muhammad Mirza and fought against Khalil Sultan, the ruler of Samarkand. After the tragic death of Pir Muhammad Mirza in 1407, he continued to fight alone, and in 1409, when he overpowered Khalil Sultan and won the throne, his eldest son Movaroonnahr He gave Ulughbek Mirza, Balkh to his second son Sultan Ibrahim Mirza, Hisar to Muhammad Jahangir Mirza, the son of the late Muhammad Sultan Mirza, and Fargana to Ahmed Mirza, the son of his late brother Umarshaikh Mirza. zi goes back to Herat.

Shahrukh Mirza gradually subjugated the descendants of his brothers Jahangir, Umarshaikh and Miron Shah in various ways and took the reins of a large state consisting of Movarunnahr, Azerbaijan, Iraq, Khorasan and Northern Afghanistan. enters, declares Herat as his capital and begins to rule the kingdom as "great khagan".

Nazorat mavjud bo'lmagan joylarda foydalanuvchilar ko'ngliga kelgan ishlarni qilishi, turli xil strategik va yaxshilikka yo'naltirilgan hamda ruhiyatga ta'sir etuvchi o'yinlarni o'ynashi, turli janrdagi musiqalarni tinglashi video filmlarni va rolidlarni tomosha qilishi mumkin. Bunday Internet kafelar yoshlarning tarbiyasida salbiy ahamiyat kasb etadi.

Bularning oldini olish uchun o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida darsdan keyin informatika to'garaklariga jalb qildim. To'garakda internetning salbiy va ijobiy taraflarini, ulardan to'g'ri foydalanish haqida qo'shimcha bilimlarni berib borish kerak.

Informatika fanini boshqa fanlarga tatbiq etish

Informatika shunday fanki, uni barcha fanlarga tatbiq etish mumkin. Na faqat mumkin, balki barcha fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan, zamonaviy kompyuter texnikasidan foydalanish zamon talabidir. Hozirda deyarli barcha fanlardan elektron darsliklar, turli tuman elektron qo'llanmalar, o'qituvchi-o'rgatuvchi dasturiy vositalar yaratilgan. Ulardan foydalanib samarali dars tashkil etish mumkin. Lekin darslarda kompyuterning standart dasturiy vositalari ofis dasturlar paketining o'zidan ham unumli foydalanish mumkin. Masalan, fizika, kimyo, matematika kabi tabiiy va aniq fanlardan misol va masalalar yechishda, natijalarni jadval shaklida tasvirlashda Excel dasturidan foydalanish faqatgina vaqtni tejab qolmay, o'quvchilarda fanga

qiziqishni ham orttiradi. Excel dasturi tarkibida dunyo xaritasi, undagi davlatlar haqida ma'lumotlar kiritilgan. Bulardan geografiya fanida unumli foydalanish mumkin. Matn muharrirlari (MS Word), taqdimot yaratish dasturlaridan (Power Point) barcha fanlarda foydalanish darsni qiziqarli o'tish imkonini beradi. Informatika fani yutuqlaridan xalq xo'jaligining ham barcha sohalarida foydalanib kelinmoqda.

Axborot texnologiyalarining qo'llanish sohalar

Axborot texnologiyalari faqat fan va texnika xodisasi bo'lmasdan, iqtisodiy rivojlanishning muxim omiliga aylanmoqda. Axborot bilan qamrab olinmagan biror muxim xo'jalik sektorini (ishlab chiqarish, transport, kredit-moliya sohasi, savdo) misol keltirish qiyin. Ayni paytda kompyuterlar va aloqa vositalari asosida axborotni to'plash, saqlash va taqdim etishning zamonaviy usullari, yangi axborot texnologiyalari va xizmatlarni sotish (tarqatish) maqsadlarida ishlab chiqarish mustaqil tarmoq sifatida shakllandi va ajralib chiqdi. Shunday qilib, xalq xo'jaligini axborotlashtirish kelgusiga yorib o'tish demakdir.

Axborot texnologiyalari, shu jumladan, kompyuterlar keng qo'llanilib kelayotgan ayrim sohalarni ko'rib chiqamiz.

Biznes sohasi

Axborot texnologiyalari yangi korxonalar yoki firmaning muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishida katta ro'l o'ynashi mumkin.

Masalan:

biznes reja tuzishda, kutilayotgan daromad va chiqimlarni hisoblashda;

kompaniya yoki firmaning emblemasini va tegishli xujjatlarini tartibga keltirishda;

kompaniya yoki firmaning taqdimot marosimini o'tkazishda;

reklamalarning loyixasini tuzish va reklama materiallarini tayinlash, hisobotlar, shartnomalarni tayyorlashda;

mijozlar xaqidagi ma'lumotlar ro'yxatini saqlash va u bilan ishlashda;

boshqa firmalar, potensial ta'minotchi, ulgurji xaridorlar bilan bog'lanishda;

mijozlar va ta'minotchilar bilan muzokara olib borish va xokazolarda.

Bank sohasi

Bank tizimi o'zining ish faoliyatida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega. Masalan:

yil davomida sutkasiga 24 soat mijozlarga aloqa uchun va tegishli ma'lumotlarni olish, balansni tekshirish, xisobni to'lash imkoniyatini yaratish;

mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish;

kredit kartochkalari yordamida telefon yoki Internet orqali xizmatni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Robototexnika sohasi

Ma'lumki, «robot» so'zi bizning tilimizga ilmiy fantastikadan kirib kelgan. Birinchi bor bu so'zni oltmish yil oldin taniqli chex fantast yozuvchisi Karel Chepek ishlatgan. Ammo «mexanik odamlar» undan oldinroq ham ma'lum edi. O'rta asrlarda inson iste'dodlariga ega bo'lgan musiqachi-qo'g'irchoq yoki rassom-qo'g'irchoqlar paydo bo'lganligi ma'lum.

Kompyuter asri boshlanishi bilan insonni og'ir va zararli mehnatdan ozod etadigan robotlar paydo bo'ldi.

Ular garchi odam qiyofasida bo'lmasa-da, ko'plab funksiyalarni (ishlarni) bajara oladilar. Masalan, UzAvtoMotors O'zbekiston – Koreya qo'shma avtomobil korxonasida turli ishlarni bajaradigan robotlar keng qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda robotlar mashinasozlik zavodlarida, po'lat quyish sexlarida, kimyoviy laboratoriyalarda, qurilishda keng qo'llanilmoqda. Robotlarni yaratish bilan shug'ullanadigan texnikaning maxsus shoxobchasi — robototexnika paydo bo'ldi.

Robotlar orasida keng tarqalgani bu robot manipulyatorlardir. Manipulyatorlar — o'ta sezgir va kuchli mexanik quldir.

Robotlarni kompyuter boshqarib turadi, ya'ni kompyuter robotning «miyasi»dir, ular telekameralar orqali «ko'rib», mikrofonlar yordamida «eshitadilar», ya'ni axborot qabul qiladilar. Maxsus datchiklar «sezgi» organi vazifasini o'taydi.

Marketing sohasi

Marketing inglizcha «market» (bozor) so'zidan olingan bo'lib, bozor, savdo sohasidagi faoliyatni anglatadi.

Marketingda eng asosiysi, bozorni, xaridorlar talab va extiyojlarini chuqur va har taraflama o'rganish va ishlab chiqarishni shuning asosiga qurish, ikkinchi tomondan esa bozorga, mavjud talab va extiyojga faol ta'sir kursatish, xaridorlarning muayyan mollarga bo'lgan talablarini shakllantirishdan iborat.

Marketingni kompyuterlarsiz, axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish sohasi

Ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida kompyuterlar qo'llanilib kelmoqda. Kompyuterlar ko'pgina texnologik jarayonlarni boshqarmoqda. Ular yordamida yangi maxsulotning chizmasini yaratishdan toki tayyor maxsulot bo'lib chiqqunga qadar bo'lgan barcha jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin.

Maxsulot shaklini konstruktor kompyuter ekranida chizib, tegishli o'zgartirishlar yasab, qog'ozga chop etishi mumkin.

Maxsulotni ishlab chiqarish uchun kerakli barcha qurilmaning imkoniyatlari, unga ketadigan sarf-xarajatlarni xisob-kitob qilishda va boshqa ishlarni bajarishda ham kompyuter beg'araz yordamchidir.

Maxsulotni ishlab chiqarishda axborot asosiy kompyuterdan ishlab chiqarish liniyalariga yetkaziladi. U yerda axborotni qabul qilishga tayyor turgan robotlar kompyuter uzatgan dastur asosida maxsulotni yig'a boshlaydi. Tayyor maxsulotlar esa robotlar yordamida tekshirilib, omborlarga jo'natiladi.

Tibbiyot sohasi

Ma'lumki, shifokorga borishni ko'pchiligingiz xush ko'rmaysiz. Birinchidan, siz bemorsiz. Sog'lom odam u yerga bormaydi. Ikkinchidan, u yerda xamma joyda navbatda turishga to'g'ri keladi. Masalan, registraturada kasallik varaqasi uchun, shifokorlar qabuliga kirish uchun va xokazo. Uchinchidan, shifokor yozib bergan dorilarni dorixonalardan izlash kerak bo'ladi.

Kompyuterlarning shifoxonalarda va poliklinikalarda paydo bo'lishi ko'p narsalarni, jumladan, yuqoridagi muammolarni ham tubdan o'zgartirib yuboradi. Endi siz to'g'ridan-to'g'ri shifokor xuzuriga yo'l olasiz. Uning ish stolida odatdagi meditsina ish qurollaridan tashqari kompyuter ham joy olgan: uning xotirasida barcha bemorlarning kasallik tarixi yozib qo'yilgan. Agar siz oldin xam murojaat etgan

bo'lsangiz, sizniki ham bo'ladi. Birinchi bor murojaat etayotgan bo'lsangiz siz xaqingizdagi barcha axborotni shu yerning o'zida shifokor kompyuterga kiritib qo'yadi. Kasalligingiz xaqidagi barcha ma'lumotlar kompyuterga kiritilgach, sizning kasalligingiz xakida tashxis qo'yiladi va chop etish qurilmasi yordamida dorilar uchun retsept chop etib beriladi. Retseptni olib, boshqa kopyuter yordamida ushbu dorilarni eng yaqin bo'lgan qaysi dorixonalardan topish mumkinligi xaqida axborot olishingiz mumkin.

Kompyuter meditsinada boshqa ishlarga xam qodir. Masalan, tomograf — ya'ni siljib xarakatlanadigan rentgen apparati insonning ixtiyoriy organi xaqida to'liq ma'lumot olishi, ulardagi mikroskopik defektlar, chet jinlar (masalan, buyrakdagi tosh) xaqida ma'lumot berishi mumkin. Tomograf uzatgan axborotni tezda qayta ishlash va ekranda ko'rsatish uchun albatta u kompyuter bilan bog'langan bo'lishi shart.

Kompyuter va san'at

Kompyuterning san'atga qanday aloqasi bor? Kompyuterlar aniq programma asosida ishlaydi. San'at esa — bu ijod, fantaziyadir. Lekin bu sohada xam kompyuter ijod ahliga yordam berishi mumkin. Kompozitor musiqa yaratishda kompyuterdan unumli foydalanishi mumkin. Buning uchun kichik royal yoki elektroorgan yordamida kompyuterga ulanib yozayotgan musiqa notalarini ekranda ko'rib turgan xolda yangi asar yaratishi va shu yerning o'zida, shu onda eshitib ko'rishi ham mumkin.

Kompyuterlar rassomlarga xam juda yoqib qolgan. Kompyuter grafikasi bo'yicha birinchi ko'rgazma 1956 yili o'tkazilgan. Turli eskizlar, chizmalar va rasmlar chizishda rassomlar kompyuterdan foydalanib kelmoqdalar.

Bundan tashqari, kino va televideniyaning ham kompyuterlarsiz tasavvur etish qiyin. Hozirgi davrda turli joylarda, mintaqalarda, xatto qit'alarda yashaydigan insonlar ishtirokida telekonferensiyalar o'tkazish an'anaga aylanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Novosardova S.A., Gaynutdinova F.X., Otajonov U.A. Metodika prepodavaniyakursa "Informatika": Uchebnoe posobi e. – T.: TGEU, 2003.
2. Farberman V.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qiti shning zamonaviy usullari . – T., 2002. 118-157 b.

THE HISTORY OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Xojiqulov Sh.

O'zDJTU, boshlang'ich ta'limda ingliz tili kafedراسi katta o'qituvchisi

Annotation

The English language teaching tradition has been subject to tremendous change, especially throughout the twentieth century. Perhaps more than any other discipline, this tradition has been practiced, in various adaptations, in language classrooms all around the world for centuries.

English is a West Germanic language that originated from Anglo-Frisian languages brought to Britain in the mid 5th to 7th centuries AD by Anglo-Saxon migrants from what is now northwest Germany, southern Denmark and the Netherlands

Key words: Methods, English, history, teaching, learning.

Introduction

Language teaching and learning remains central to Applied Linguistics as an academic journal and as a field of enquiry. That's why we decided to write article about the history of English language teaching. The English language teaching tradition has been subject to tremendous change, especially throughout the twentieth century. Perhaps more than any other discipline, this tradition has been practiced, in various adaptations, in language classrooms all around the world for centuries. While the teaching of Maths or Physics, that is, the methodology of teaching Maths or Physics, has, to a greater or lesser extent, remained the same, this is hardly the case with English or language teaching in general. As will become evident in this short paper, there are some milestones in the development of this tradition, which we will briefly touch upon, in an attempt to reveal the importance of research in the selection and implementation of the optimal methods and techniques for language teaching and learning.

The Classical Method

The English language teaching tradition has been subject to tremendous change, especially throughout the twentieth century. Perhaps more than any other discipline, this tradition has been practiced, in various adaptations, in language classrooms all around the world for centuries. While the teaching of Maths or Physics, that is, the methodology of teaching Maths or Physics, has, to a greater or lesser extent, remained the same, this is hardly the case with English or language teaching in general. As will become evident in this short paper, there are some milestones in the development of this tradition, which we will briefly touch upon, in an attempt to reveal the importance of research in the selection and implementation of the optimal methods and techniques for language teaching and learning.

In the Western world back in the 17th, 18th and 19th centuries, foreign language learning was associated with the learning of Latin and Greek, both supposed to promote their speakers' intellectuality. At the time, it was of vital importance to focus on grammatical rules, syntactic structures, along with rote memorisation of vocabulary and translation of literary texts. There was no provision for the oral use of the languages under study; after all, both Latin and Greek were not being taught for oral communication but for the sake of their speakers' becoming "scholarly?" or creating an illusion of "erudition." Late in the nineteenth century, the Classical Method came to be known as the Grammar Translation Method, which offered very little beyond an insight into the grammatical rules attending the process of translating from the second to the native language.

It is widely recognised that the Grammar Translation Method is still one of the most popular and favourite models of language teaching, which has been rather stalwart and impervious to educational reforms, remaining a standard and sine qua non methodology. With hindsight, we could say that its contribution to language learning has been lamentably limited, since it has shifted the focus from the real language to a "dissected body" of nouns, adjectives, and prepositions, doing nothing to enhance a student's communicative ability in the foreign language.

Gouin and Berlitz - The Direct Method

The last two decades of the nineteenth century ushered in a new age. In his *The Art of Learning and Studying Foreign Languages* (1880), Francois Gouin described his "harrowing" experiences of learning German, which helped him gain insights into the intricacies of language teaching and learning. Living in Hamburg for one year, he attempted to master the German language by dint of memorising a German grammar book and a list of the 248 irregular German verbs, instead of conversing with the natives. Exulting in the security that the grounding in German grammar offered him, he hastened to go to the University to test his knowledge. To no avail. He could not understand a word! After his failure, he decided to memorise the German roots, but with no success. He went so far as to memorise books, translate Goethe and Schiller, and learn by heart 30,000 words in a dictionary, only to meet with failure. Upon returning to France, Gouin discovered that his three-year-old nephew had managed to become a chatterbox of French - a fact that made him think that the child held the secret to learning a language. Thus, he began observing his nephew and came to the conclusion (arrived at by another researcher a century before him!) that language learning is a matter of transforming perceptions into conceptions and then using language to represent these conceptions. Equipped with this knowledge, he devised a teaching method premised upon these insights. It was against this background that the Series Method was created, which taught learners directly a "series" of connected sentences that are easy to understand. For instance,

I stretch out my arm. I take hold of the handle. I turn the handle. I open the door. I pull the door.

Nevertheless, this approach to language learning was short-lived and, only a generation later, gave place to the Direct Method, posited by Charles Berlitz. The basic tenet of Berlitz's method was that second language learning is similar to first language learning. In this light, there should be lots of oral interaction, spontaneous use of the language, no translation, and little if any analysis of grammatical rules and syntactic structures. In short, the principles of the Direct Method were as follows:

- Classroom instruction was conducted in the target language
- There was an inductive approach to grammar

- Only everyday vocabulary was taught
- Concrete vocabulary was taught through pictures and objects, while abstract vocabulary was taught by association of ideas

The Direct Method enjoyed great popularity at the end of the nineteenth century and the beginning of the twentieth but it was difficult to use, mainly because of the constraints of budget, time, and classroom size. Yet, after a period of decline, this method has been revived, leading to the emergence of the Audiolingual Methods.

Literature:

1. The history of the English – book by J.D.Burnle
2. <https://www.google.com/search?q=the+history+of+english+language&sxsrf=ALiCzsaz0BeOnVnhHdhjgDwWcBsEbW23cg%3A1656246564027&ei=JFG4YsuhAafrrgS5uqioCw&ved=0ahUKEwjLw-->
3. [gj8v4AhWntYsKHTkdCrUQ4dUDCA4&uact=5&oq=the+history+of+english+language&gs_lcp=Cgdnd3Mtd2l6EAMyBAgjECcyBAgAEEMyBAguEEMyBQgAEMsBMgUIABDLATIFCAAQywEyBQgAEMsBMgUIABDLATIFCAAQywEyBQgAEMsBOgcIABBHELADSgQIQRgASgQIRhgAUJUnWJUnYLguaAJwAXgAgAGaBogBmgaSAQM2LTGYAQCgAQHIAQjAAQE&sclient=gws-wiz](https://www.google.com/search?q=the+history+of+english+language&gs_lcp=Cgdnd3Mtd2l6EAMyBAgjECcyBAgAEEMyBAguEEMyBQgAEMsBMgUIABDLATIFCAAQywEyBQgAEMsBMgUIABDLATIFCAAQywEyBQgAEMsBOgcIABBHELADSgQIQRgASgQIRhgAUJUnWJUnYLguaAJwAXgAgAGaBogBmgaSAQM2LTGYAQCgAQHIAQjAAQE&sclient=gws-wiz)

HAYDOVCHILARGA YORDAM TIZIMLARINING TAHLILI

Nasirov Ilham Zakirovich

Andijon mashinasozlik instituti - t.f.n., dotsent

Soliyev Boburjon Abdirayim o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Soliyeva Xilola Faxriddin qizi

Andijon mashinasozlik instituti magistranti

Annotatsiya

ADAS (Advancyed Driver Assistancye Systems)- avtomobilga o'rnatilgan o'zini-o'zi boshqariladigan tizim bo'lib, u haydovchiga baxsiz hodisadan qochishga (faol xavfsizlik) yoki uning oqibatlarini kamaytirishga (passiv xavfsizlik) yordam beradi. Hozirda haydovchilarga yordam berish uchun 43 ta aqlli tizimni ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan eng ko'p ishlatiladiganlari To'siqlarni aniqlash tizimi, Harakatlanuvchi obektni aniqlash tizimi, Buriqish yordami tizimi va Chorraha yordamchisidir.

Kalit so'zlar: Avtomobil, haydovchi, ogohlantirish tizimi, tormoz yordamchisi, to'siq, tizim, chorraha, to'qnashuv, piyoda, datchik

Avtomobil muhandislari jamiyati (SAE) SAE J3016 standartini, avtotransport harakatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari uchun SAE tasnifi standartini tayyorladi. Ushbu standartning tasnifi eng keng tarqalgan bo'lib kelganligi sababli, u 1-jadvalda ko'rsatilgan [1].

1-jadval - Avtotransport vositalarining harakatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari uchun standart SAE.

	Nomi	Tavsif	
	Avtomatlashtirishsiz	Butun haydash jarayoni haydovchi tomonidan boshqariladi, avtomobil dinamikasini boshqarish vazifasi butunlay unga yuklanadi, hatto avtomobil tizim bilan jihozlangan bo'lsa ham ogohlantirishlar va ta'sirlar.	Haydovchi atrof-muhitni mustaqil ravishda kuzatib boradi

	Shu jumladan haydovchi yordami	Rulda tizimini yoki tormoz va gazni boshqarishda haydovchiga tashqi muhit haqidagi ma'lumotlardan foydalangan holda yordam berish. Tizim haydovchidan boshqa amallarni bajarishini kutadi. Bu tizim tomonidan chiqarilgan.	
	Qisman avtomatlashtirilgan	Boshqarish rejimi ikkita ADAS tizimini o'z ichiga oladi, ular ikkala rul boshqaruviga ham, tezlashtirish yoki tormozlashga ham ta'sir qilishi mumkin.	
	Shartli ravishda avtomatlashtirilgan	Haydashni avtomatlashtirish tizimi oladi to'liq nazoratga olish avtomobil dinamikasi, lekin faqat ichida agar haydovchi mast bo'lsa uning signaliga munosabat bildiriradi.	Tizim avtomatlashtirish haydash irodasi kuzatish
	Yuqori avtomatlashtirilgan	Haydashni avtomatlashtirish tizimi oladi hamda avtomobilni boshqarish, garchi haydovchi so'rovga javob bermasa ham boshqaruv jarayoniga aralashish, ya'ni haydovchilik guvohnomasi zarur emas deb hisoblanadi.	
	To'liq avtomatlashtirilgan	Haydashni avtomatlashtirish tizimi bir xil funksiyalarni oladi hamda haydovchi sifatida, imkoni boricha har qanday muhitda ishlashi kerak bo'ladi.	

ADAS (Advancyed Driver Assistancye Systems)- avtomobilga o'rnatilgan o'zini-o'zi boshqariladigan tizim bo'lib, u haydovchiga baxsiz hodisadan qochishga (faol xavfsizlik) yoki uning oqibatlarini kamaytirishga (passiv xavfsizlik) yordam beradi. Avtomobil ishlab chiqaruvchilari haydashni yanada qulay va xavfsizroq qilish uchun ushbu tizimlarning tobora ko'proq yangi modellarni yaratmoqdalar.

Haydovchilarga yordam berish tizimlari uchta asosiy toifaga bo'linadi [2]:

- haydovchiga maslahatlar;
- haydovchiga ogohlantirishlar;
- haydovchiga bevosita yordam.

Ishora funksiyasi to'siqlarni aniqlash bilan bog'liq: masalan, tungi ko'rish va faralarni yo'lda egilishlarga moslashtiradigan moslashtirilgan yoritish tizimi. Bularga mashinani xavfsiz saqlashga yordam beradigan Tezlik belgisini aniqlash va atrofni ko'rish kiradi.

Haydovchilarni ogohlantirish tizimlari mumkin bo'lgan xavf haqida signal berish funksiyasini bajaradi. Masalan, Parking Assist, Oldinga to'qnashuv va Lane Departion ogohlantirish.

Uchinchi guruhga avtomobilni faol ravishda barqarorlashtiradigan yoki to'g'ridan-to'g'ri manevrani amalga oshiradigan haydovchiga yordam berish funksiyalari kiradi. Moslashuvchan kruiz nazorati avtomobilingiz oldidagi avtomobildan doimiy masofani saqlash uchun avtomobil tezligini sozlaydi; Tormoz yordami oldingizda turgan transport vositasi bilan to'qnashuvning oldini olish yoki uning ta'sirini kamaytirishga yordam beradi va Lane Assist sizni bo'lakdan chiqib ketishingizga yo'l qo'ymaydi.

Bugungi kunga kelib, 43 ta aqlli haydovchilarga yordam berish tizimini ajratib ko'rsatish mumkin [3]:

- 1) Shinalar bosimi monitoringi tizimi (TPMS)
- 2) Tormoz yordamchisi (Brakeassist, BAS, HBB, EBA, AFU)
- 3) To'siqlarni aniqlash tizimi (oldindan to'qnashuv haqida ogohlantirish)
- 4) Harakatlanuvchi obektni aniqlash tizimi
- 5) Burilish yordami tizimi (burilish yordamchisi)
- 6) Chorraha yordamchisi
- 7) Avtoturargohni teskari yo'nalishda tark etishda yordam berish tizimi (orqa o'zaro harakat haqida ogohlantirish)
- 8) To'qnashuvdan oldingi tizim (to'qnashuvdan qochish tizimi, Precrashsystem)
- 9) Kruiz nazorati/Moslashuvchan kruiz nazorati (Cruisecontrol/Adaptive Cruisecontrol)
- 10) Alkozamok (AlcoholInterlockDevicye)
- 11) Tepalikdan tushishni boshqarish
- 12) Tepalikdan boshlash tizimi (HAS)
- 13) Traffic Assistant
- 14) avtomagistral uchuvchisi
- 15) Moslashuvchan yoritish tizimi (Adaptivelightcontrol: aylanuvchi egri chiroqlar)

- 16) Uzoq / past nurni avtomatik almashtirish tizimi (Yorqinsiz uzoq va pikseli yorug'lik)
- 17) Ko'r nuqta monitori
- 18) Yo'lakni o'zgartirishga yordam
- 19) Chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi
- 20) Lane Sasist
- 21) Haydovchi charchoqni aniqlash tizimi (Driverdrowsinessdetection)
- 22) Favqulodda haydovchi yordamchisi (Emergencydriverassistant)
- 23) Parkga yordam berish tizimi
- 24) Masofadan boshqarish pulti bilan aqlli to'xtashga yordam tizimi (RemoteParkAssistSystem)
- 25) Treyler parking yordamchisi
- 26) Bloklanishga qarshi tormoz tizimi (ABS), shu jumladan tortishni boshqarish (TCS)
- 27) Surround Viyew tizimi
- 28) Svetoforni aniqlash tizimi
- 29) Yo'l harakati belgilarini aniqlash tizimi
- 30) Haydovchiga noto'g'ri yo'l haqida ogohlantirish, noto'g'ri yo'l haqida ogohlantirish)
- 31) Haddan tashqari tezlik/moslashuv yordamchisi (Intellektual tezlikni moslashtirish)
- 32) Tungi ko'rish tizimi (Avtomobilni tungi ko'rish)
- 34) Video yozuvchisi
- 35) Avtomobil navigasiya tizimi (Avtomobil navigasiya tizimi)
- 36) Elektr avtomobilining ogohlantirish tovushlari
- 37) Piyodalarni himoya qilish tizimi
- 38) Yomg'ir va yorug'lik sensori
- 39) Avtotransport vositalari o'rtasidagi aloqa tizimi (Avtomobil aloqa tizimlari, V2V)
- 40) Elektron barqarorlik dasturi (ESP)

41) Treyler yordamchisi (Treylerassist)

42) Tom yopishni aniqlash tizimi

43) Shamolni o'zaro o'tkazish yordamchisi (chamolni o'zaro barqarorlashtirish)

Har bir tizimni alohida ko'rib chiqing:

1) Shinalar bosimi monitoringi tizimi (TPMS)

TPMS (Tire Pressure Monitor System) shinalar bosimini nazorat qiladi, ya'ni shinalardagi havo miqdori o'zgarganda, shinaning atrofi ham o'zgaradi [4,5]. Shu sababli, g'ildirak aylanadigan burchak tezligi ortadi. TPMS tizimi ushbu ko'rsatkichlarni nazorat qiladi. Belgilangan me'yordan oshib ketgan bo'lsa, signal yuboriladi, maxsus chiroq yoqiladi va haydovchiga paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklar haqida ogohlantirish yuboriladi. Hozirgi vaqtda Android qurilmalari bilan ishlashga mo'ljallangan TPMS tizimlarining analoglari mavjud. Foydalanuvchining smartfoni yoki planshetiga yuborilgan ma'lumot shinalardagi bosimni kuzatib boradi va me'yordan chetga chiqish bo'lsa, haydovchini ogohlantiradi. Shinasi yorilib ketgan mashinada sayohatni davom ettirish yo'l-transport hodisasi uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diradi [6].



1-rasm- TPMS tizimi ishlamoqda.


Tormoz yordamchisi (tormoz yordami, BAS, HBB, EBA, AFU)

BrakeAssist avariyaviy tormoz tizimi sirpanchiq yo‘lda to‘qnashuvning oldini olishga yordam beradi, oldidagi avtomobil kutilmaganda manevr qilganda yoki keskin burilish sodir bo‘lganda, bu sizga tezkor avtomatlashtirilgan javob tufayli avariyaning oldini olishga imkon beradi [7]. Bunday sxemani qo‘llash, haydovchi avtomobilning tormozlanish masofasini deyarli yarmiga qisqartirishi mumkin. Bundan tashqari, tezlik yuqori bo‘lsa ham, favqulodda tormozlash samaradorligini oshiradi. Tizim quyidagicha ishlaydi:

Tizim bosim akkumulyatori, g‘ildirak aylanish datchiklari, elektr nasos, elektron boshqaruv bloki va elektromagnit klapanlar blokidan iborat.

Boshqaruv tizimi tormoz pedalini bosish kuchi va tezligini tahlil qiladi, shundan so‘ng rejimni faollashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Avtomobilning tormozlanishining kuchayishi tormoz tizimida bosimning ko‘tarilishi tufayli yuzaga keladi, bu sizga g‘ildiraklarni to‘sib qo‘ymaslik, bir qator tormoz impulslarining oldini olish imkonini beradi [8].



2-rasm - Tormoz yordami tizimi.

To‘siqlarni aniqlash tizimi (ForwardCollisionWarning)

Oldinga to‘qnashuv haqida ogohlantirish (FCW) haydovchini shox va ogohlantirish chirog‘i bilan ogohlantiradi, agar sizning avtomobilingiz bir qatorda boshqa transport vositasiga juda yaqin bo‘lsa [9]. Ushbu tizim 5 km/soat dan ortiq avtomobil tezligi uchun mo‘ljallangan. FCW old bamper ostida joylashgan datchikdan

keladigan signallardan foydalanadi, bu esa oldingi avtomobilgacha bo'lgan masofani o'lchaydi. Agar tizim avtomobilingiz transport vositasiga juda yaqinlashayotganini aniqlasa, oldindagi avtomobil indikatorini miltillaydi va ogohlantirish signali eshitiladi [10]. Biroq, FCW to'qnashuvning oldini olishga qodir emasligini tushunish kerak. Haydovchi doimo ehtiyot bo'lishi va transport vositasini boshqarishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, FCW tizimi piyodalar, hayvonlar, yo'lda to'siqlar yoki bir qatorda kelayotgan transport vositalarini aniqlamaydi.

Harakatlanuvchi ob'ektni aniqlash qo'shimcha sensorlarni o'rnatishni talab qilmaydi. Ma'lumot manbai haydovchining keyingi harakatlari uchun signal sifatida xizmat qiluvchi tasvirni aks ettiruvchi kameralar bo'ladi.




3-rasm - Harakatlanuvchi jismlarni tanib olish tizimi

Burilishga yordam berish tizimi (burilish yordamchisi)

Datchiklar avtomobilning joriy bo'lakdagi o'rnini aniqlashi va haydovchi manevrni boshlashi bilan burilishga yordam berish tizimi avtomatik ravishda ishga tushadi. Chapga burilish amalga oshiriladigan bo'lakni tanib olish ikki darajada amalga oshiriladi: navigasiya tizimining bir qismi bo'lgan avtomobilning joylashishini aniqlash funksiyasi uning chorrahadagi o'rnini aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. metrgacha, maxsus kamera esa chapga burilish uchun chiziq belgilarini va yo'l belgilarini ko'radi .

Chapga burilishga yordam berish tizimi yoqilganda, avtomobil oldidagi uchta lazerli skaner avtomobil oldidagi 100 metrgacha bo'lgan masofani kuzatib boradi. Agar sensorlar yaqinlashib kelayotgan transport vositalarini aniqlasa va mashina harakatlanishda davom etsa va chorrahaga kirsa, yordam tizimi 10 km/soatgacha past tezlikda avtomatik tormozlashni boshlaydi. Avtomatik tormozlash funksiyasi yuqori tezlikdan to'satdan tormozlanishga olib kelmaydi [10].



4-rasm - Burilish paytida yordam tizimining ishlash sxemasi.

Chorraha yordamchisi

Intersection Assist avtomobillar va piyodalarni oldindan aniqlash uchun old qismga o'rnatilgan radar sensorlaridan foydalanadi.

30 km/soatgacha tezlikda datchiklar avtomobil oldidagi hududni kuzatib boradi va agar kesishgan tirbandlik aniqlansa, haydovchini vizual va ovozli signallar bilan ogohlantiradi. Agar yaqinlashib kelayotgan transport vositasi ko'rinmasa va sizning avtomobilingiz soatiga 10 km tezlikda oldinga siljigan bo'lsa, to'qnashuvning oldini olish uchun favqulodda tormoz qo'llaniladi.

"Ko'r" ko'rish va cheklangan ko'rinishga ega chorrohalarda harakatlanayotganda ushbu yordamchi hududlarni tark etishda yordam beradi.

1) Orqaga to'xtashga yordam berish tizimi (RearCrossTrafficAlert)

Bugungi kunda muammo bor: to'xtash joyidan orqaga qaytganda, to'xtash kamerasi mashina chiqmoqchi bo'lgan bo'lakda nima sodir bo'layotgani haqida ma'lumot berishga jismonan dosh berolmaydi.



5-rasm- Avtoturargohdan orqaga qaytishdagi muammo.

Baliq suyagi to‘xtash joyi bilan muammo unchalik keskin emas, lekin u ham mavjud. Qiyinchilik quyidagilarda: to‘xtash kamerasi bilan standart ko‘rish burchagi (120-170 daraja) haydovchi teskari yo‘nalishda harakatlanmoqchi bo‘lgan chiziqda avtomobil mavjudligining rasmini jismoniy jihatdan ta‘minlay olmaydi . Bu harakat xavfli harakatga aylanadi, qachonki haydovchi o‘zi shu bo‘lakda haydashga, yoki uni o‘tkazib yuboradigan haydovchiga tayanishi yoki qator bo‘sh bo‘lishiga umid qilishi kerak. Endi esa yordamchi bo‘lgan RearCrossTrafficAlert tizimi ishga tushadi. qutqarish BSD radariga asoslangan. BSD sensorlari orqa bamper ichidagi ma‘lum joylarda o‘rnatilgan. Ular burchak va diapazon kabi hususiyatlarga ega [11].

1) Haydovchiga to‘siq to‘g‘risida xabar berish old ustunlarga, old oyna yonidagi kichik diodli ko‘rsatkichlarni o‘rnatish orqali amalga oshiriladi, ular to‘siq mavjud bo‘lganda porlaydi va ovozli signal beradi.

2) Piyodalarni aniqlash tizimi Piyodalarni aniqlash tizimi piyodalar bilan to‘qnashuvning oldini olish uchun mo‘ljallangan. Tizim mashina yaqinidagi odamlarni taniydi, mashinani avtomatik ravishda sekinlashtiradi, zarba kuchini kamaytiradi va hatto to‘qnashuvning oldini oladi.

3) Tizimdan foydalanish yo‘l-transport hodisasida piyodalar o‘limini 20 foizga, og‘ir jarohatlar olish xavfini esa 30 foizga kamaytirish imkonini beradi. Piyodalarni

aniqlash tizimi o'zaro bog'liq funksiyalardan foydalanadi: piyodalarni aniqlash, to'qnashuv haqida ogohlantirish, avtomatik tormozlash. Piyodalarni aniqlash uchun 40 m gacha masofada samarali ishlaydigan videokamera va radardan foydalaniladi. Piyoda videokamera tomonidan aniqlanganda va bu fakt radar tomonidan tasdiqlanganda, tizim piyodaning harakatini kuzatib boradi, uning keyingi harakatini bashorat qiladi va avtomobil bilan to'qnashuv ehtimolini baholaydi.

Umumiy natijalar multimedia tizimining ekranida ko'rsatiladi. Agar tizim avtomobil harakatining hozirgi xarakterini hisobga olgan holda piyoda bilan to'qnashuvning oldini olish mumkin emasligini aniqlasa va haydovchining reaksiyasi bo'lmasa, piyodalarni aniqlash tizimi avtomatik ravishda mashinani to'xtatadi.

Adabiyotlar

1. Isayev E.U., Solomatin Nyu S., Kisulenko B.V., Karipov V.M., Kovtun V.V., Kravets V.N. Avtomobil dizayni: o'quv qo'llanma. - Tolyatti: TDU nashriyoti, 2013-260 b.
2. Nasirov I.Z., Gaffarov M.T. Accession of the Republic of Uzbekistan to the Kyoto convention / Процветание науки. Научно-методический журнал- 2021. № 2 (2), Иваново: Умы Современности. DOI 10.24412/2713-0738-2021-22-41-57. с. 26-33.
3. У.М.Турдиалиев, И.З.Насиров. Транспорт воситалари учун интеллектуал бошқарув тизими.// Рақамли ҳаёт ва ижтимоий фанларнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги ўрни ва аҳамияти: долзарб муаммолар ва истиқбол. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар тўплами. 5-шўъба. Муҳандислик фанлари.- Андижон: АндМИ, 2022. 672 б. 15-18 б.
4. Насиров, И. З., & Иброхимова, М. М. (2019). "Дамас" автомобили учун интеллектуал бошқарув тизими. *Молодой ученый*, (22), 686-689.
5. Насиров И, Тулкинхужаева Н. Интеллектуальные программы для управления транспортными средствами// "International Scientific and Practical conference "Topical Issues of Science". Part 4, 10.04.2022- p. 290-293. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6439534>.
6. B.Soliyev, I.Nasirov, I.Sirojiddinova. Yo'l- transport jahoxatlari statistikasi o'rganish tahlili.//Рақамли ҳаёт ва ижтимоий фанларнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги ўрни ва аҳамияти: долзарб муаммолар ва истиқбол. Халқаро илмий – амалий конференция илмий мақолалар тўплами. 5- шўъба. Муҳандислик фанлари.- Андижон: АндМИ, 2022. 325 б. 295-297 б.

7. Насиров Ильхам Закирович, Солиев Бобуржон Абдираим Угли. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ADAS ДЛЯ ПОМОЩИ ВОДИТЕЛЯМ. *Американский журнал междисциплинарных исследований и разработок*, 5, 94-105. Извлечено из <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/112>.

8. Насиров Илхам Закирович, Таваккалова Саидахон Орифжон кизи, Тулкинхужаева Нилуфархон Расулжон кизи. АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА ЙЎЛ ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ РАҚАМЛАШТИРИЛИШИ// *Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»*. Выпуск №25 (том 7) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022. с. 1276-1279.

9. Насиров Ильхам Закирович, Абдуллаев Яшинбек Бахрамович. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКЕ НУЖЕН АНАЛИЗ// *Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»*. Выпуск №25 (том 3) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022- с. 1575-1580.

10. Насиров Илхам Закирович, Зўхриддинов Дилмуроджон Каримжон ўғли. Автомобилларни масофавий диагностика қилиш усули// *International Scientific and Practical conference "Actual issues science" 7nd part*, 2-679 pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6624788-585-588> б.

11. Насиров Илхам Закирович, Зўхриддинов Дилмуроджон Каримжон ўғли. «ЙЎНАЛИШДАГИ ТАКСИЛАРНИ ДИАГНОЗЛАШНИНГ ХОЛАТИ»// *Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»*. Выпуск №26 (том 9) (май, 2022). Дата выхода в свет: 31.05.2022. с. 228-230

**XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA TINGLAB TUSHUNISH
KO'NIKMASINING O'RNI**

Iroda San'at qizi Tohirova

O'zbekiston jahon tillari universiteti talabasi

Annotasiya: Bu maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda tinglab tushunish ko'nikmasidagi uchraydigan muammolar borasida so'z boradi. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga 60 yillarda ahamiyat berila boshlangan. Xorijiy tilni o'rgatishda bu kompetensiyani rivojlantirishning zarur jihatlari ko'rsatib o'tilgan, yangi pedagogik texnologiyalarning ba'zi ko'rinishlari berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, tarjima, o'zbek tili, tinglash, tushunish, kompetensiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117 sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori¹da xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Ushbu qarorda respublikamizda yoshlarga chet tillarni o'rgatishning majmuaviy tizimi, mustaqil fikrlovchi yangi yosh avlodni tarbiyalash, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada integrasiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratilganligi alohida ta'kidlanadi. Shu maqsadda chet tillarini o'rgatishga e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumiy evropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umumiy e'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) ham e'tiborga olindi. Unda chet tilini o'zlashtirish darajasi "A1 – boshlang'ich" bosqichdan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentini "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbiri to'g'risida"gi 2021-y, 19-maydagi PQ-5117 son, lex.uz

boshlab “B2+ tilni mustahkam egallash va erkin muloqot qila olish” bosqichigacha bo‘lgan ko‘nikmalar doirasidagi bilimlarni qamrab olishga qaratilgan. Bunda tinglash, tushunish, yozish, o‘qish, gapirish kompetensiyalarini mukammal darajada bilish nazarda tutilgan. Shu maqsadlardan tinglab tushunishga qaratilgan ushbu tadqiqot ishi intensiv tarzda til o‘rganuvchini tinglab, tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgani bilan ham dolzarb sanaladi. Talaffuzga o‘rgatishda o‘quvchining to‘g‘ri eshitish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi. XX asrda ta‘lim olgan o‘quvchilar ongiga radio, televideniya, kompyuter, internet kabi texnik vositalarning ta‘siri bo‘lmagan. Hozirga kelib yuqoridagi texnik vositalarining yoshlarimiz ongiga beixtiyor ta‘siri sezilayapti. Bunday sharoitda maktabda dars berayotgan o‘qituvchi ham, oliy dargohlarda ta‘lim berayotgan muallimlar ham o‘zlarining dars berish vositalarini yangilashlariga, usullarini esa zamonaviy usullarga almashtirishlariga to‘g‘ri kelayapti. Hozirgi o‘qituvchi zimmasiga avvalgi o‘qituvchilar avlodi mehnatiga qaraganda ko‘proq mas‘uliyat yuklanayapti. Ko‘proq harakat qilishga to‘g‘ri kelayapti. Sabab, hozirgi zamon yoshlari ongiga ta‘sir qilayotgan ob‘ektlar ularning e‘tiborini ko‘proq o‘ziga jalb qilayapti. Bu esa har bir o‘qituvchiga o‘z ustida ko‘proq ishlashga, izlanishga, yangilikka intilishga va nihoyat qiziqarli dars o‘tishlariga undayaptiki, ularning darslari tashqaridan kelayotgan, ba‘zan yoshlarni chalg‘itadigan taassurotlarga qaraganda ko‘proq jalb qila oladigan bo‘lishi kerak. Shuning uchun yangi pedtexnologiyaning ta‘lim-tarbiya jarayoniga kirib kelishi – bu hayot taqozosi, hayotiy ehtiyojdir. Bu haqiqatni to‘g‘ri tushungan har bir o‘qituvchi iloji boricha, yangi texnologiya imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda dars o‘tishi hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo‘lishi lozimdir.

To‘g‘ri eshitish qobiliyati rivojlanmagan o‘quvchilar hatto ona tilimizda uchraydigan tovush va jummalarni talaffuz qilishda ham qiynaladilar. Biz tovushlarning "fonologik xususiyatlari" deganda aslida nimani nazarda tutamiz? Bu savolga filolog tilshunos Nargiza Erkaboyeva shunday javob bergan: "Nutq tovushlari bir qancha akustik va artikulyatsion (talaffuz) belgilarga ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki mazkur belgilarni to'la hisobga olgandagina u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin fonologiya uchun

yuqoridagi belgilarning ko'pchiligi muhim sanalmaydi. Fonlogiya uchun faqat bir tovushning ikkinchi tovushga taqqoslanganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilargina ahamiyatlidir. Bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonida yangi tinglayotgan materialnini oldin bilgan materialga qiyoslab, zidlab, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarini topishga harakat qilinganda, bilish faoliyatida tinglashlarning ahamiyati muhimligi namoyon bo'ladi²".

O'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini yoki inovatsiyon o'quv uslublarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilarning o'quv faoliyatining o'zgarishiga, ularning o'rganish va o'zlashtirish mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi.

“Tez so‘z aytish” o‘quv o‘yini

O'quvchilarni koreys tiliga bo'lgan qiziqish va intilishlarini oshirish maqsadida “So‘z aytish” usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh a'zolari so'z aytishni boshlashadi, Ikkinchi guruh a'zosi so'zning oxirgi harfiga o'zining bosh harfidagi so'zini aytadi, uchunchi guruh a'zosi esa, aytilgan so'zning oxirgi harfiga so'zini keltiradi va hakozi shunday davom etadi. Bunday usul talaba va o'quvchilarni topqirlikka, koreys tili grammatikasidagi muammolarni tez hal etishga o'rgatadi³. Quyida bu usulning borish jarayonini namuna sifatida beramiz. Guruh a'zolarining aytgan so'zlari shunday tizimni tashkil etishi mumkin:

“Antonim so‘zlar” o‘yini

Bu o'yin qiziqarli va ehtirosli o'tadi. O'yinda talabalar jiddiy holatda o'ynay olmaydilar, chunki o'yin kulgi va hazil mutoyiba asosida o'tadi. Bunda xar bir guruhdan bittadan talaba o'yinga qatnashish uchun doskaga chiqadi. Qur'aga ko'ra birinchi talaba biror so'zni aytadi, uning raqibi esa o'sha so'zning teskari ma'nosidagi so'zni keltiradi. Bu o'yinda barcha talabalarning ishtirok etishlarini ta'minlash uchun

² Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent, Navro'z-2016. 76 b.

³ Aliev D. Arab tili darslarida noan'anaviy usullar. T., 2009. – B.18-19

o‘yinda qatnashayotgan ikki talaba faqat belgilangan 4-5 tadan so‘zlarni aytadi holos. Keyingi ikki talaba ham shu tartibda bir – birlarini sinaydilar. So‘z bahsida qaysi guruh talabasi yutsa unga “to‘liq oy” shaklidagi yashil qog‘oz, yutqizsa, “yarim oy” shaklidagi yashil qog‘oz beriladi.

O‘yin oxirida tarqatilgan yashil qog‘ozlar hisoblanganda qaysi guruhning g‘alaba qozonganligi aniq bo‘ladi. Mazkur o‘yinga avvaldan tayyorgarlik ko‘rish lozim. Talabalarga antonim so‘zlar beriladi va uni yodlaydilar.

Bu o‘yin orqali tezda so‘zlarni tushunib olish imkoniyati rivojlanadi⁴.

Yuqoridagi kabi zamonaviy texnologiyalar talabalarning bir tomondan so‘z topish qobiliyatini ham kuchaytirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan lug‘at boyliklarini oshirishga, ko‘proq tinglab, tushunish qobiliyatlarini kuchaytirishga yo‘naltiradi.

Ma‘lumki suhbatga kirishuvchilar, odatda navbatma navbat gapirgan holda bir-birini tushunishga harakat qilishadi. O‘z fikrini gapirgan holda og‘zaki bayon qilish, ko‘pchilik tomonidan amalga oshiriladigan nutq faoliyati turidir. Xorijiy suhbatdosh yoki video materialni tinglash jarayonida so‘zlovchining ifoda etmoqchi bo‘lgan mulohazalarini qisman yoki ukammal tushunib yetmaslik holatlari ham bo‘lishi mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda yetarli e‘tibor qaratilmaganligidadir. Chet til o‘qitish metodikasi tarixiga nazar tashlasak o‘tgan asring 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi⁵. Avvallari unga gapirishning uzviy qismi deb qarab kelingan edi. Chet til

darsida tinglab tushunishga atayin mashqlar berilmas edi. Ma‘lum bo‘lishicha, gapirishni o‘rganishdan ko‘ra tinglab tushunishga erishish qiyinroq kechadi. Ushbu sohaga oid bir-biriga yaqin ikki termini farqlash talab qilinadi: „tinglash“ — quloq solish (Oz so‘zla — ko‘p tingla) va „eshitish“ — eshitish sezgisi (quloq) yordamida tovushni qabul qilish (Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit). Tinglovchi tushunishga intiladi, eshituvchi tinglaganini

⁴ Aliev D. Arab tili darslarida noan‘anaviy usullar. T., 2009. – B.21-22

⁵ З. А. Кочкина: Понимание звучащей речи (аудирование). Обзор американских работ. // Вопросы психологии, 1963, № 3;

tushunmasligi ham mumkin. Eshitish qobiliyatiga molik shaxs muayyan axborotni tushunish maqsadida soʻzlovchiga quloq soladi, yaʼni tinglash, aniqrogʻi tinglab tushunish sodir boʻladi. Eshitdingmi, deyilganda, tinglab tushunganlikni aniqlamoqchi boʻlinadi. Xullas, „tinglab tushunish“ birikmasi oʻzgalar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish maʼnosini ifodalaydi. Tinglash va tushunish (fahmlash) vaqt eʼtibori bilan bir paytda (psixologiya tilida simultan) sodir boʻladi, bu ikki nutqiy hodisa faqat ilmiy tahlil uchungina ajratiladi, xolos.

Inson maʼnaviy kamolotga, odatda, eshitish, koʻrish (kuzatish) va, qolaversa, oʻqish tufayli erishadi. Axborot toʻplanishida uchala faoliyat orasida tinglab tushunish eng muhimidir.

Qizigʻi shundaki, falon tilda tinglab tushunasizmi, savoli berilmaydi, gapira olasizmi, deyiladi. Idrok aqlning oʻlchovidir. Gapirish va tinglab tushunish ogʻzaki nutq demakdir⁶.

Tinglab tushunish kompetensiyasi buyicha talaba quyidagilarni bilishi lozim:

A1 daraja - kishilar sekin va aniq gaplashishganda talaba oʻzi va oilasi haqidagi soʻz va iboralarni tushunishi lozim.

A2 daraja - oʻziga tanish mavzularga (masalan, sodda bayon qilingan oila, xarid, mahalliy hududlar, kasb, ish) oid koʻp ishlatiladigan soʻz va iboralarni shuningdek, qisqa, aniq, sodda xabar va eʼlonlarning asosiy mazmunini tushuna olishi kerak.

V1 daraja - oʻziga tanish boʻlgan mavzular boʻyicha (ish, taʼlim muassasasi, hordiq va b.) aniq aytilgan gapning asosiy mazmunini anglay olishi, bunda asosan matndagi muhim soʻzlarga ahamiyat karatgan holda butun gap mazmunini tushunishi nazarda tutiladi.

V2 daraja - maʼruzalar yoki televideniye orqali beriladigan katta hajmdagi nutqni, tanish mavzulardagi qiyinroq nutqni tushunishi, TV va radio orqali beriladigan yangiliklarni tinglab, tomosha qilish jarayonida muhokama qilinayotgan mavzularning asosiy gʻoyasini anglashi, adabiy tilda namoyish qilinadigan filmlar mazmunini yaxshi tushunishi lozim.

⁶ Jalolov J. Chet tili oʻqitish metodikasi. T.: Oʻqituvchi, 2012. – B.220-222

Demak, nutq faoliyatining to'rtala turidan birortasi darsda mashq qilinmasligi mumkin, biroq bu qoida tinglab tushunishga tegishli emas. Xohlagan bir mashg'ulotda gapirish yoki o'qish, yoki yozuv mashq qilinmasligi mumkin. Biroq dars bor ekan, tinglab tushunish bo'ladi. Chunki o'qituvchi chet tilda gapirish bilan dars boshlaydi, darsni o'tadi va uni yakunlaydi, va nihoyat, talaba tinglovchi sifatida bo'ladi.

YEVROPA ITTIFOQI VA MDH DAVLATLARIDA ZAMONAVIY
MIGRATSIYA JARAYONLARI

Murodullayev Bekzod Murodullo o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistr 1-kurs talabasi

Tel: +998 94 471 16 66

ANNOTATSIYA

Maqolada Yevropa Ittifoqi va MDH mamlakatlaridagi migratsiya jarayonlari hamda O'zbekiston siyosati ko'rib chiqilib, bu yerda ko'plab olimlarning tadqiqotlari hamda turli manbalardagi maqolalardan foydalanilgan. Migratsiya dunyoning aksariyat davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi, mehnat resurslarining nisbiy ortiqcha bo'lgan mamlakatlar o'rtasida ishchi kuchiga talab ortib borayotgan mamlakatlarga qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot ushbu mamlakatlar migratsiyasining xususiyatlari va muhim xususiyatlarini tushunishga imkon beradi va ushbu migratsiya oqimini tartibga solish va nazorat qilish choralarini ko'rish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *migratsiya jarayonlari, O'zbekiston, siyosat, migratsiya, migratsiya oqimlari, ishchi kuchi, migrantlar, aholi, ishchi kuchi, immigrantlar, MDH, Yevropa Ittifoqi*

Migratsiya iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarning kuchli harakatlantiruvchi kuchi va muhim natijasidir. Shuning uchun XXI asr boshidan beri globallashuv ta'sirida davlatlararo migratsiya oqimlari ko'lami sezilarli darajada oshdi. Inson resurslarining harakatchanligi yanada murakkablashdi. Aholi migratsiyasining mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotining, ichki va tashqi siyosatining barcha jabhalariga ta'siri, ular migratsiya mezbonligi yoki migratsiya manbai bo'lib xizmat qilishidan qat'i nazar, kuchayib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlarda migratsiya siyosati davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Demografik va

migratsiya muammolarini hal qilish uchun davlat tomonidan tartibga solish vositalarining barchasidan foydalaniladi.

Yevropa Ittifoqining migratsiya siyosatiga e'tibor qaratgan holda shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa Ittifoqi migratsiya siyosatining o'ziga xosligi uning ikki darajada – milliy va milliy darajada tartibga solinishidadir. YIning umumiy siyosati direktivalar va qoidalar, shuningdek, harakat dasturlari va integratsiya dasturlari mavjudligiga qaramay, maslahat xarakteriga ega, ammo uni amalga oshirish uchun vositalar va mexanizmlarni tanlash milliy darajada amalga oshiriladi. Umumyevropa migratsiya siyosati hali shakllanish va yangi migratsiya vaziyatiga moslashish jarayonida. Shunga qaramay, Yevropa Ittifoqi asosan milliy migratsiya qonunlarini birlashtirish va uyg'unlashtirish va migrantlar integratsiyasi bo'yicha milliy dasturlarni muvofiqlashtirishda muvaffaqiyatga erishdi. Shuningdek, migratsiya dunyoning aksariyat davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida, mehnat resurslarini mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Жамоатчилик билан алоқалар технологияларини қўллаш бошқарув органлари ва мансабдор шахслар устидан жамоатчилик назоратини ўрнатиш зарурати билан ҳам шартланган. Сиёсатга хос қонуниятлардан бири - ҳар қандай ҳокимият кенгайиб боришга мойил бўлиши билан боғлиқ. Шу сабаб, бошқарув бўғини фуқаролар томонидан назорат қилинмаса, унинг жамиятни бошқаришда қандай услуб ва воситаларга таяниши жамоатчиликка ошкор қилинмаса, бундай бошқарув оқибатида жамиятдаги демократик тартибларга путур етиши мумкин.

² Мишелетти М. Государственное управление в демократическом обществе // Научные доклады по проблемам государственного и муниципального управления. Вып. 2. - СПб.: 2002. - С. 24.

Одатда, жамоатчилик назорати деганда нодавлат ташкилотлар, сиёсий партиялар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва бошқа гуруҳлар, фуқаролар томонидан давлат идоралари ва мансабдор шахслар фаолиятининг кузатиб борилиши назарда тутилади. Ҳокимият органи, мансабдор шахс фаолиятининг жамоатчилик назорати остида эканлиги жамият ривожига катта аҳамиятга эга. Шунингдек, жамоатчилик назоратининг кучайиши айни вақтда ҳокимиятнинг аҳоли олдидаги масъулияти ва жавобгарлигини таъминлашга, инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг кафолатланишига хизмат қилади.

Шу боис, «давлат органлари фаолиятининг шаффофлиги» атамаси кириб келди. Бу атама давлат идоралари, мансабдор шахслар фаолиятининг аҳоли учун очиқ ва ошкор бўлишини назарда тутди. Давлат органлари фаолиятининг «шаффоф»лиги масаласининг бу қадар долзарб аҳамият касб этишининг сабаблари бор. Давлат идоралари фаолиятининг «шаффоф»лиги, бир томондан, амалга оширилаётган ислохотлар, қабул қилинган қарорлар ҳақида фуқароларга ахборот бериб, бу жараёнга кўпроқ кишиларни жалб қилиш имконини берса, иккинчи томондан, давлат идоралари ва мансабдор шахслар фаолиятининг фуқаролар томонидан доимий кузатиб борилишига олиб келади. Натижада, коррупция, порахўрлик, уруғ-аймоқчилик, мансабни суистеъмол қилиш каби ҳодисаларнинг олдини олиш имкони туғилади. Шунингдек, давлат бошқарувининг «шаффофлиги» қарорлар қабул қилиш жараёнига фуқароларни жалб қилиш имконини беради ва қарорларнинг самарали ижро этилишини таъминлайди. Умуман, давлат органлари фаолиятининг «шаффофлиги» бугунги кунда муҳим демократик тамойилга айланиб, жамиятда ошкоралик муҳитининг қарор топишини шартлаб қўяди.

Олимлар шаффофликка давлат бошқарувининг муҳим тамойили сифатида ёндашадилар. Шаффофлик фуқароларга бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнида иштирок этиш учун имконият яратади. Албатта, бу иштирок давлатнинг ваколатли органи ишига аралашув бўлмай, балки ўз манфаатларини қондириш йўлида давлат билан мулоқотга киришишга хизмат қилади. Шундай экан, давлат органлари фаолиятининг шаффофлигини таъминлашда

«Жамоатчилик билан алоқалар» технологияларидан фойдаланиш ана шу «ўрталиқ»ни топишда кўл келади. Зеро, бу жараёнга «Жамоатчилик билан алоқалар» технологияларини жорий этиш бир қатор имкониятларни очиб беради.

Булар:

- давлат идоралари фаолияти ҳақида фуқароларга доимий ахборот тарқатиш; бунда давлат идоралари томонидан қабул қилинган қарор матнларидан ташқари, уларнинг моҳияти, қарордан кўзланган мақсад, ушбу қарордан манфаатдор тарафлар каби масалалар ёритиб борилади;
- давлат муассасаси (худуд) раҳбарининг вужудга келган муаммоларни ҳал қилиш мақсадида фуқаролар билан конструктив мулоқотини ташкил этиш; бунда фуқаролар ва мансабдор шахс ўртасида ўтказиладиган доимий учрашувлар ҳар қандай вазиятда муаммони ечишнинг энг мақбул ва самарали йўллари топиш имкониятини туғдиради;
- асосланмаган ахборотлар (миш-мишлар) тарқалишининг олдини олиш; бунда аҳоли билан доимий мулоқотнинг ўрнатилиши туфайли ахборот маконида вужудга келадиган ўзига хос «ахборот бўшлиғи» доимий тўлдириб турилади. Натижада, давлатнинг, мансабдор шахсларнинг обрўсига путур етказувчи, инсонларнинг ҳокимиятга бўлган ишончини камайтирувчи ахборотлар бу макондан сиқиб чиқарилади;
- фуқароларга доимий ахборот хизматини кўрсатиш ва жамоат бирлашмалари билан узлуксиз алоқаларни таъминлаш. Бунда, бир томондан, давлат ва жамоатчилик ўртасидаги мулоқотларга профессионал равишда ёндашилса, иккинчи томондан, давлат манфаатлари ҳам акс эттирилади;
- маҳаллий даражадаги қарорлар қабул қилиш жараёнига фуқаролар, ўзини ўзи бошқариш органлари фаоллари, жамоатчилик вакиллари жалб қилиш.

Демак, давлат идоралари фаолиятининг «шаффофлиги» таъсирчан демократик механизм сифатида жамоатчилик назоратининг негизини ташкил

этади. Яъни, жамоатчилик назорати фуқароларнинг ахборотга бўлган эҳтиёжларини тўла қондириш ҳисобигагина амалга оширилиши мумкин.

Хулосага сифатида айтиш мумкинки, замонавий жамиятда «демократия» тушунчаси янги мазмун касб этиб, фуқаролар ҳокимият идоралари сайловларида иштирок этиш билан чекланмай, ўзларини ташвишга солаётган ва яқин вақтларгача фақат ҳокимият идоралари шуғулланган кундалик муаммо ва масалаларни ҳал қилишда бевосита иштирок этишларини шартлаб қўймоқда. Бу эса ҳокимият идоралари билан фуқаролар, уларнинг уюшмалари, фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги ўзаро таъсирнинг янги шакллари ва моделларига эҳтиёж туғдирмоқда.

**IKKINCHI REJIM (MODE 2) XIZMATLARI EKSPORTI BO'YICHA
MUVAFFAQIYATGA ERISHGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDAN
O'ZBEKISTONDA TADBIQ QILISHIMIZ MUMKIN BO'LGAN
5 TA DARS**

Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li

JIDU xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti

Magistratura 1-kurs

Tel 97 7632110

[*rbobur801@gmail.com*](mailto:rbobur801@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Maqolada biz 2-rejim xizmatlari eksportida muvaffaqiyatga erishgan davlatlar hamda ularni muvaffaqiyatga erishishi yoki ba'zida mavjud imkoniyatkaridan ham to'liq foydalana olmay qolishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni o'rgandik. O'zbekiston iqtisodiyoti jihatidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'proq o'xshagani uchun, maqolada biz asosan rivojlanayotgan davlatlarni tahlil qildik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki infratuzilmaning sifati va uning hamyonboblighi, xizmatlarni yetkazib berishda davlat va jamiyat birgalikda, muvofiqlikda ishlashining muhimligi, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, biznes muhiti va inson kapitali kabi omillar 2-rejim xizmatlari eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning muvaffaqiyatga erishishida juda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xulosada rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o'rgangan holda O'zbekistonga tadbiq qilishimiz mumkin bo'lgan tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: xizmatlar eksporti, 2-rejim (mode 2), turizm, inson kapitali, biznes muhit, transport va havo yo'llari infratuzilmasi.

Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan tuzilgan GATS (General Agreement on Trade in Services) xizmatlar savdosi to'g'risida umumiy bitim (keyingi o'rinlarda XSTUB) shartnomasiga ko'ra ikkinchi rejim (mode 2) xizmatlariga ma'lum bir davlat fuqarosi

boshqa bir davlatga ma'lum turdagi xizmatlarni iste'mol qilish uchun borsa va o'sha davlat xizmatlaridan foydalansa, bu fuqaro 2-rejim xizmatlaridan foydalangan hisoblanadi. Sayyohlik va turizm, davolanish yoki ta'lim olish uchun borish shular jumlasidandir[1]. Biz bu maqolada 2-rejim xizmatlari eksporti bo'yicha dunyoda qaysi davlatlar yetakchilik qilayotgani va ularning bu sohada muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni ko'rib chiqamiz. Xulosa o'rnida O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinroq bo'lgani uchun, 2-rejim xizmatlari eksporti bo'yicha yetakchilik qilayotgan rivojlanayotgan mamlakat tajribalaridan bizning davlatimizga tadbiiq qilishimiz mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Jadval 1.1: 2-rejim xizmatlari bo'yicha yetakchilik qilayotgan davlatlar (2020)

Ranking	Country	Travel (Current US\$)	Travel (%)
	<i>World</i>	<i>858.144.675.932,17</i>	
1	United States	121.131.159.000,00	14,12%
2	Spain	53.337.397.109,00	6,22%
3	France	49.450.246.129,09	5,76%
4	Italy	40.311.142.315,03	4,70%
5	China	39.675.000.000,00	4,62%
6	Germany	34.781.088.004,83	4,05%
7	United Kingdom	30.497.539.396,49	3,55%
8	Turkey	21.250.000.000,00	2,48%
9	Austria	19.176.010.817,85	2,23%
10	Macao SAR, China	17.885.776.849,10	2,08%
11	Malaysia	15.797.476.084,45	1,84%
12	Thailand	15.664.841.881,85	1,83%
18	India	11.135.941.273,57	1,30%
19	Egypt, Arab Rep.	10.755.300.000,00	1,25%
26	Singapore	9.200.199.275,69	1,07%
29	South Africa	7.624.449.913,15	0,89%
31	Morocco	6.626.075.910,63	0,77%
36	Brazil	5.304.560.800,00	0,62%
51	Philippines	2.329.000.000,00	0,27%
72	Ghana	968.040.000,00	0,11%
127	Zambia	97.680.000,00	0,01%

Manba: Jahon Banki ma'lumotlari asosida tayyorlangan[2]

Turizm va sayyohlik ko'plab rivojlanayotgan davlatlar asosan Karib (Caribbean) va Tinch okeanidagi kichik orollar asosiy daromad manbayi, xorijiy valyuta va aholini ish bilan ta'minlovchi muhim soha hisoblanadi. Jadval 1.1 dan shuni ko'rishimiz mumkinki Xitoy, Malayziya, Tailand, Hindiston va Misr davlatlari 2-rejim xizmatlari eksporti bo'yicha dunyoda eng yuqori 20 talikdan o'rin olishgan. Ashley va Mitchellarning aytishiga qaraganda turizm eng past daromadli davlatlar

iqtisodiyotlarida ham muhim o'rin tutgan, ya'ni eng qashshoq 50 ta davlatning 41 tasida turizm YaIM ning 5% dan ko'prog'ini yoki jami eksportning 10% dan oshiqrog'ini tashkil qilgan[3].

Jahon tajribasidan nimani o'rganishimiz yoki tadbiriq qilishimiz mumkin

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar turizmga faol qatnashalarda yoki bu sohada muvaffaqiyat qozonishlariga imkoniyatlari bo'lishiga qaramay, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan orttirilgan muvaffaqiyat ular erishishi mumkin bo'lgan potensial bilan qiyoslaganda ancha kam. Jadval 3.2 ga qaraydigan bo'lsak, Misr davlati judayam zo'r taassuroq qoldiradigan madaniy va tarihiy yodgorlikga ega bo'lishiga qaramasdan 2009-yil dunyo xizmatlar sohasidagi jami ulushdan faqatgina 1.25% i Misrga tog'ri kelgan xolos. Boy tabiiy parklari va hayvonot olamiga ega bo'lishiga qaramay, 2009-yildagi jami sayyohlik eksportining 0.01% ulushi Zambia davlatiga tog'ri kelgan. Unchalik kuchli ta'sirot qoldirishga qodir bo'lmagan hamda ov ekspeditsiyasi uyushtiriladigan markaz hisoblanmasada, Janubiy Afrika davlati dunyo sayyohlik xizmatlari eksportining 1% ga egalik qilgan[4].

Mattu, Kattaneo, Gosvani, Mattu and Sáez larning taadqiqot natijalariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan 5 ta muhim narsani o'rganish mumkin. Malayziya va Tailand rivojlanayotgan davlatlar ichida 2-rejim xizmatlari eksporti bo'yicha yetarlicha muvaffaqiyatga erishgan davlatlar hisoblanadi. Zambiya, Misr va Filippin kabi davlatlar esa ma'lum omillar sabab o'zlarining bor imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishmagan[5]. Biz hozir sayyohlik va turizm xizmatlari sohasida muvaffaqiyatga erishgan davlatlarning muvaffaqiyat sabablari hamda o'z imkoniyatlaridan to'la foydalana olmagan davlatlarning muvaffaqiyatsizligi sabablarini qisqacha tahlil qilamiz.

Avvalo, infratuzilmadan foydalanish imkoniyati oson hamda xarajat nuqtai nazaridan arzon bo'lishi kerak. Sayohat xizmatlari infratuzilmaga, xususan, transport infratuzilmasiga tayanadi. Tabiiy va yovvoyi tabiat ob'ektlari yoki madaniy ob'ektlarga boy mamlakat yoki ish safari eksporti uchun kuchli salohiyatga ega bo'lgan mamlakat, agar avtomobil yoki temir yo'l tarmoqlari turistik diqqatga sazovor joylarga yetarli darajada ulanmagan bo'lsa yoki transport juda qimmat bo'lsa, o'zining qiyosiy

ustunligidan foydalana olmaydi. Zambiyada infratuzilma imkoniyati va uning narxi bilan bog'liq muammolar mavjud. Masalan, Yevropaga faqat bitta to'g'ridan-to'g'ri reys mavjud bo'lib, u Janubiy Afrika bilan bir qatorda Zambiya turizm savdosi eksporti uchun asosiy bozor hisoblanadi va boshqa barcha uzoq masofali reyslar Janubiy Afrika bilan hamkorlikda amalga oshiriladi[6]. Bundan tashqari, Zambiya avtomobil va temir yo'l tarmoqlari samarasiz hamda yetarlicha emas va ichki havo transporti juda qimmat. Misr va Filippinda ham infratuzilmalar, ayniqsa yer usti infratuzilmasi ancha zaif ahvolda[7]. Boshqa tomondan, Malayziya hukumati sayohat xizmatlari eksportini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2001 yilda mamlakatning birinchi arzon narxlardagi aviatashuvchisi bo'lgan Air Asiani tashkil etishni ma'qulladi. U Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng muvaffaqiyatli arzon tashuvchi bo'ldi. Air Asianing paydo bo'lishi mintaqaviy sayohatni avvalgidan ko'ra arzonroq qildi va mamlakatga keladigan sayyohlar kelishini osonlashtirdi[8].

Ikkinchi saboq shundan iboratki, hukumat va davlat o'rtasidagi siyosat bir-biriga muvofiq bo'lmasa, bu ham ta'minlanayotgan xizmat sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Zambiyaning turizm sektori o'nlab xususiy uyushmalar bilan ifodalanadi, ular muvofiqlashtirish va umumiy strategiya yo'qligi sababli sektor manfaatlari uchun samarali lobbichilik qila olishmaydi. Bundan tashqari, Mattuning so'zlariga ko'ra, Zambiyadagi xususiy uyushmalar turizm biznesida faoliyat yurituvchi aksariyat korxonalar tomonidan obstruktiv, samarasiz va professional bo'lmagan deb hisoblanadi[4]. Shuningdek, Misr turizm faoliyatini nazorat qiluvchi muassasalar o'rtasida muvofiqlashtirishning yo'qligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda, bu esa ruxsatnomalar va litsenziyalarni rasmiylashtirishda kechikishlar va mahalliy operatorlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga olib kelgan[7].

Uchinchi saboq shuki: ko'rsatilayotgan xizmat sifati juda muhim ahamiyatga ega. Kattaneoning so'zlariga ko'ra, Tailand tibbiy turizm bo'yicha oltita eng yaxshi markazlardan biriga aylandi, chunki uning kasalxonalari yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishi bilan mashhur. Misr turizmi esa sotuvchilarning xatti-harakati ustidan nazorat yo'qligi tufayli yuzaga kelgan salbiy obro'dan katta zarar ko'radi[7].

To'rtinchi dars ishbilarmonlik muhiti bilan bog'liq: biznes muhiti qancha jozibador bo'lmasa, sayohat xizmatlarining rivojlanishi shunchalik qiyinlashib boraveradi. Zambiya, Filippin va Misrda biznes muhiti turizm sohasida o'sish uchun unchalik qulay emas. Biznes yuritish indeksiga ko'ra, Zambiya, Filippin va Misr mos ravishda 76, 148 va 94-o'rinlarni egallaydi [9]. Shartnomalarni bajarish, biznes ochish va qurilish ruxsatnomalari bilan shug'ullanish turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar duch keladigan asosiy ma'muriy to'siqlardandir. Bundan tashqari, korruptsiya, xavfsizlik va xavfsizlik bilan bog'liq muammolar, shuningdek, sog'liq va gigiena muammolari ham biznes muhitini turizm faoliyati uchun kamroq jozibador bo'lishiga olib keladi.

Oxirgi saboq shuki, inson kapitali sayohat xizmatlarining o'sishining asosiy omilidir. Turizm turistik xizmat ko'rsatuvchi provayderlar va mijozlar o'rtasidagi bevosita aloqaga asoslanadi. Shunday qilib, turistik faoliyatda faoliyat yurituvchi ishchi kuchining ko'nikma va malakalari turistlarni jalb qilish va sayohat xizmatlarini gullab-yashnashida asosiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, Zambiya va Misr ishchi kuchining past sifatidan aziyat chekmoqda, bu zaif ta'lim tizimlari va ta'lim tizimining natijalari va iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi. Turizm sektori xalqaro standartlarga javob beradigan maxsus tayyorgarlik va malakalarga muhtoj[6]. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar ko'pincha bunday maxsus treningni ta'minlay olmaydi.

Xulosa

Xulosada shuni aytishimiz mumkinki, biz bu maqolada sayyohlar uchun yaratilgan infratuzilmaning sifati va uning hamyonboblighi, xizmatlarni yetkazib berishda davlat va jamiyat birgalikda, muvofiqlikda ishlashining muhimligi, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, biznes muhiti va inson kapitali kabi omillar 2-rejim xizmatlari eksportini rivojlantirishda va davlatning mavjud salohiyatidan maksimal foydalanishda eng muhim omillar ekanini guvohi bo'ldik. Shunga tayangan holda O'zbekistonning xizmatlar eksportini rivojlanishi qilinayotgan islohotlar jarayonida hukumat infratuzilmani yaxshilash jumladan transport va havo yo'llari

infratuzilmasini sifatini yaxshilash va bozorni erkinlashtirish orqali narxning tushishiga olib keladigan qonunlar ishlab chiqishi zarur. Xizmat yetkazib beruvchilarga ularning so'rovlaridan kelib chiqqan holda, ularni tinglagan holda siyosat yuritish orqali davlat va jamiyat muvofiqligini oshirishga erishish. Ko'rsatilayotgan xizmatlar ustidan nazoratni kuchaytirish orqali, xususiy xizmat ko'rsatuvchi bizneslarning hodimlariga treninglar tashkil qilish orqali xalqaro maydonda ya'ni eksport jarayonida sifatning o'ta muhimligini uqtirish orqali xizmatlar eksportida sifatni yaxshilashlari zarur. Va oxirgi hamda eng muhim omillardan bo'lgan inson kapitalini oshirish hamda sifatini yaxshilash uchun davlat ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va ko'proq aholini oliy ta'lim bilan qamrab olishga orib boruvchi qarorlar qabul qilishi hamda uning ijrosini ta'minlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soprana M. *Services exports and developing countries: competitiveness challenges according to mode of supply*. World Trade Institute, p 49
2. World Bank, 'Data: Indicators', <http://data.worldbank.org/indicator>.
3. Ashley, C. & Mitchell, J. 'Can tourism accelerate pro-poor growth in Africa?', *Overseas Development Institute*, November 2005, www.odi.org.uk/resources/download/504.pdf, p. 1.
4. Mattoo, A. & al. *Services trade and development: the experience of Zambia*, New York: Palgrave Macmillan, Washington (D.C.): World Bank, 2007, p. 218.
5. Mattoo, A. & al. *Services trade and development: the experience of Zambia*, New York: Palgrave Macmillan, Washington (D.C.): World Bank, 2007, p. 218.
6. Mattoo, A. & al., see note 191, p. 245.
7. World Bank, *Exporting Services: a Developing Country Perspective*, Washington: PRMTR, International Trade Department, World Bank, February 2011
8. Sáez, S. & Goswami, A. G. 'Uncovering Developing Countries' Performance in Trade in Services', in *Economic Premise*, N. 39, World Bank, November 2010
9. Doing Business, 'Economy Rankings', June 2010, www.doingbusiness.org/rankings

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONADA
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH

Buronov Otabek Bahodirovich

JIDU tashqi iqtisodiyot faoliyat fakulteti

Magistratura 1 kurs

Tel: +99890 3913999

Buronov.97@mail.ru

ANNOTATSIYA

Innovatsiya har bir sohada bo'lishi mumkin. Masalan, fanda, uning bir yo'nalishida yirik yangiliklarga erishish, kashfiyotlar yaratish, izlanishlarda, ilm sohasida yangi ilm va bilimlarni ochish, texnika va texnologiyalarni yangi avlodini yaratish, ishlab chiqarish sohalarida, xizmat ko'rsatishda yangi usullarni kiritish va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyotda esa fan, texnika, texnologiyalar sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni korxonada faoliyatida qo'llashni bildirishi mumkin. Innovatsion faoliyat qaysi sohada bo'lmasin, kashfiyotlar, e'lon qilingan yangiliklar, texnika va texnologiya yutuqlari va texnologik jarayonlarni yangilash, mahsulot bilan ta'minlash va boshqa yo'nalishlardagi barcha yangiliklarni tizimli ravishda uzluksiz joriy etib borishni ta'minlaydi.

***Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsion faoliyat, texnologiya, innovatsion boshqaruv, resurs, investitsiya.*

Innovatsion boshqaruv g'oyatda murakkabdir. Innovatsion jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish uchun innovatsion menejerlar bo'lgan mutaxassislar zarur, ular yangilik kiritishlarning har xil tashkiliy – iqtisodiy jihatlari bilan shug'ullanadilar. Ularning innovatsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifasi – innovatsion jarayonni ilgari surish, ehtimoli bo'lgan to'siqlarni bashorat qilish va ularni bartaraf qilish yo'llarini belgilashdir.

Ishlab chiqarish va mahsulotning qayd etilgan ishlab chiqarish omillari va determinatsiyalangan turiga mo'ljallangan markazlashgan boshqaruv

qaytarilmaydigan holda o‘tmishda qoldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida har qanday firma o‘z innovatsion strategiyasi va tashkiliy tuzilmasini mustaqil ravishda belgilaydi, qo‘llaniladigan texnologiyalar turini tanlaydi, zarur texnologik uskunalarni tanlab oladi va kerakli miqdor va sifatdagi moddiy va nomoddiy resurslarni oborotga jalb etadi.

Hozirgi paytdagi korxonada iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan murakkab holat avval amalda bo‘lgan boshqaruvning ma‘muriy buyruqbozlik tizimi bilan bog‘liqdir. U resurslarni ishlab chiqarishning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olmasdan markazlashtirilgan holda rejalashtirish va taqsimlash, davlat byudjeti hisobidan ishlab chiqarish investitsiyalarini tekinga moliyalashtirish, ishlab chiqaruvchilarning yakka hokimligi, mulkchilikning davlat shaklidan farqlanuvchisining yo‘qligi va xo‘jalik yuritishning bir turdagi shakllarini ko‘zda tutadi. Bundan tashqari quyidagilar mavjud bo‘lgan: boshqaruvning ko‘p bosqichi tuzilmasi va faoliyatning yakuniy natijalaridan olingan daromadlar va investitsiyalar bog‘liqligini yo‘qligidan kelib chiqqan muassasaviy uzilish va ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining ajralib qolishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sabablar, hamda xo‘jalik aloqalarining uyg‘unligini buzilishi bilan bog‘liq bir qator boshqalar qayta ishlab chiqarishning har xil sohalari va xo‘jalik sohalari mutanosibsizlikni keltirib chiqargan, defitsitni chuqurlashuvi va ishlab chiqarish intizomini pasayishi mamlakatdagi iqtisodiy tanazzul va iste‘mol bozori va pul muomalasidagi holatni keskinlashuviga sabab bo‘lgan innovatsion sohada tanazzul paydo bo‘lishiga ko‘maklashganlar.

Korxonadagi strategik innovatsion rejalashtirishning obyektini innovatsion faoliyatdan iborat bo‘ladi, uni ko‘rib chiqib, quyidagilarni aytish mumkin:

- ✓ xozirgi sharoitlarda korxonadagi innovatsion faoliyat strategiyasi innovatsion strategiyalarni korxonani rivojlanishining asosiy maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqqan xolda, resursli ta‘minlash va xatar omilini hisobga olish,
- ✓ Tashqi muhitning holati va shaxsiy innovatsion imkoniyatlarni oldindan bashoratlash va mustaqil ishlab chiqarishning obyektivi zaruriyati pishib etilganligi;

- ✓ ehtimol bo‘lgan katta foydani olish maqsadlarida yangi raqobatbardosh mahsulotni yaratish va uni texnika va texnologiyalarning zamonaviy darajasida ishlab chiqarish sohasidagi ilmiy – texnik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish innovatsion faoliyatning asosiy mazmuni bo‘lib qolgan;
- ✓ innovatsion strategiyani amalga oshirishda korxonaning strategik ahamiyati o‘sadi, va shuning bilan bir vaqtda ularni amalga oshirishdagi xatar darajasi oshadi;
- ✓ innovatsion faoliyat korxonadagi faoliyatning qolgan barcha turlari va hammadan avval, ishlab chiqarish va marketing bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Innovatsion strategiya korxonadagi qayta ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishining, uning sifatli ta’riflari nuqtai nazaridan samarali dinamikasini ta’minlaydi. U umumiy strategiyada dvigatel rolini o‘ynagandek bo‘ladi. Bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlarda xuddi innovatsion strategiya korxonaning raqiblar, iste’molchilar, yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarini ta’riflaydi. Korxonaning umumiy strategiyasining turlari o‘zaro bog‘liqdir. Demak, innovatsion strategiya yo‘nalishlarini belgilash, istiqbolli rivojlanishning ustuvorliklarini tanlash, korxonaning rivojlanishi va sanab o‘tilgan, maqsadlarga erishish uchun tadbirlar majmuasiga talablarni ishlab chiqish bo‘yicha maqsadga qaratilgan faoliyatdan iborat bo‘ladi. Innovatsion strategiya, korxonaning strategiyasi, iqtisodiy holati, ilmiy – texnik salohiyati, ilmiy – texnik vazifalar portfeli va bu vazifalarning o‘zlarining bir birlari bilan bog‘lovchi har xil bog‘liqliklarni baholash va tahlil qilishning uzluksiz jarayoni natijasidan iborat bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarga yaxshi mahsulotga ega bo‘lish yetarli emas, u raqiblardan orqada qolmaslik uchun yangi texnologiyalarni paydo bo‘lishi orqasidan e’tibor bilan kuzatishi va ularni o‘z firmasiga tadbiriq etishni rejalashtirish kerak. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun bir qator strategik vositalar mavjud. Strategiyani qarorlar qabul qilish jarayoni sifatida belgilash mumkin. Uni tanlash rejalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning boshqa shakllarini o‘tkazishni belgilab beradi.

Innovatsiyalarni boshqarishning asosida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida belgilash yotadi. Har qanday innovatsion loyiha samaradorligini baholash innovatsion faoliyatdagi investitsiyalar samaradorligini belgilashning yagona metodologik tamoyillari asosida quriladi. Innovatsion loyihalarni boshqarishga tizimli yondoshish investitsiya kiritishdan oldingi bosqichda investitsion qarorlarning muqobil variantlarini ko‘rib chiqish va tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Muqobillarning tahlil qilish investitsion qarorlardagi innovatsion loyihalardan foydalanish bosqichidayoq topiladigan xatolarning yuqori narxi tufayli g‘oyatda muhimdir. Bunday xatolardan qochish-demak loyihaning yuqori samaradorligini ta‘minlashdir. Loyiha samaradorligining moliya-iqtisodiy tahlili odatda uni ishlab chiqishini majmuaviy ekspertiza qilishning yakuniy bosqichida o‘tkaziladi, ammo haqiqatda u innovatsion loyiha elementi bo‘ladi. Shunday qilib, innovatsion faoliyat samaradorligining tahlili innovatsiyalar menejmentining dolzarb vazifasi bo‘ladi, u innovatsion loyihalarni boshqarishga tizimli yondoshishni qo‘llash asosida hal qilinishi mumkin.

Xulosa

Korxonaning umumiy boshqaruvida va ilmiy – texnik taraqqiyot sohasidagi strategiya o‘rtasidagi aloqa, hammadan avval, yangi mahsulotni tadbiq etish va ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zgarishlarda amalga oshiriladi. Ilmiy-texnik yangiliklar sohasidagi strategiya korxonadagi, uning faoliyat muammolarining butun majmuasi bilan uzluksiz bog‘langan qayta ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlanishi strategiyasi doirasida amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat korxonasi strategiyasi, iqtisodiy holati, ilmiy-texnik salohiyati, ilmiy -texnik vazifalar portfeli va vazifalarning o‘zlarini bir birlari bilan bog‘lovchi har xil bog‘liqliklarni baholash va tahlil qilishning uzluksiz jarayonining natijasi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Borut Likar, co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole ; translation Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. - 1st. ed. - El. knjiga. - Ljubljana INNOVATION management
2. Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik.
3. Ergashev F. , D. Raximova, A. Sagdullaev, O.Parpiev, Sh. Zaynutdinov Innovatsion menedjment darslik
4. <http://www.bookzzz.com>
5. <http://www.cer.uz>
6. <https://www.cfr.org>

**YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARINING O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI BILAN SAVDO HAMKORLIGI**

Pardabekov Sarvarjon Anvar o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Tashqi iqtisodiyot faoliyat fakulteti

Magistratura I kurs

Tel 99 008 2535

pardabekovsarvar0g@mail.com

ANNOTATSIYA

Yevropa Ittifoqining Global strategiyasi qabul qilinishi barqarorlik va farovonlik uchun hamkorlik, intensiv qo‘shma faoliyat hamda o‘zaro bog‘liq iqtisodiy va siyosiy makon Markaziy Osiyo uchun yangi mintaqaviy strategiyani ishlab chiqishda turtki bo‘ldi. Yangi strategiya 2021-2027-yillarda Yevropa Ittifoqining rivojlanishga ko‘maklashish dasturlarini yaratishda ham asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi. Hamkorlikning yangi bosqichiga o‘tish va avvalgi Strategiyaning maqsadlarini davom ettirish Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi siyosatining ajralmas qismidir.

***Kalit so‘zlar:** Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, Global strategiya, eksport, import, Global tovar.*

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va transformatsiyasini jadallashtirish, unumdorlik va raqobatbardoshlikni oshirish hamda Markaziy Osiyo davlatlarining global iqtisodiyotda to‘liq ishtirok etishiga imkon yaratishda ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalarning muhim rolini ta’kidladilar. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida, shu jumladan qulay shart-sharoitlar yaratish orqali hamkorlikni kengaytirishni niyat qilmoqdalar.

Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi oʻrni alohida eʼtirofga molik. Jahonda ishlab chiqariladigan umumiy ichki mahsulotning 28 foizi, yaʼni 15 trln. AQSH dollari Ittifoq hisobiga toʻgʻri keladi. Bu jahon iqtisodiyotining oltidan bir ulushi demakdir. Dunyodagi eng katta daromadga ega deb eʼtirof etilgan 500 ta yirik kompaniyaning 161 tasi Yevropa Ittifoqida joylashgan. Yevropa Ittifoqining jahon savdo aylanmasidagi eksport-import ulushi esa 20 foiz, yaʼni 3,645,933 mln. yevroga tengdir. Shundan import ulushi – 1,714,224 mln. yevro, eksport ulushi esa 1,931,709 mln.yevrodir. Global tovar eksportida (jami 13 636.6 mln. yevro) Ittifoqining ulushi 15,6 foizni tashkil etsa (jami 2 131.7 mln. yevro), global tovar importida (jami 13 958.4 mln. yevro) esa uning ulushi 13.9 foizga tengdir (yoki 1 935.3 mln. yevro). Global xizmatlar eksport-importida Ittifoq oʻrtacha 22 foiz ulush bilan dunyoda birinchi oʻrinni egallaydi.

Yevropa Ittifoqi tashqi savdo munosabatlarining oʻziga xosligi shundaki, uning tashqi savdo aylanmasi har yili taxminan 200 mlrd. yevro hajmidagi ijobiy saldo bilan yakunlanadi. Dunyoning 209 ta mamlakati bilan hamkorlik qiluvchi Ittifoq savdo aylanmasida xalqaro standartdagi 6-raqamli uygʻunlashtirilgan tizimda roʻyxatga olingan (Harmonized System (HS6)) 4,555 turdagi mahsulot oldi-sottisi amalga oshiriladi. Oʻzida 27 ta davlatni birlashtirgan, aholisi jihatdan Xitoy va Hindistondan keyingi uchinchi, yer maydoni jihatdan esa, dunyodagi yettinchi oʻringa chiqib olgan Yevropa Ittifoqining Oʻzbekiston tashqi siyosatidagi oʻrni salmoqlidir. Yevropa Ittifoqi tashkiloti va uning aʼzo davlatlari bilan koʻp tomonlama va ikki tomonlama aloqalar mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston tashqi siyosatining tub prinsiplarini belgilab beruvchi hujjatlarda mazkur ustivorlik alohida qayd etib oʻtilgan. Ikki tomonlama munosabatlarning Oʻzbekiston uchun ahamiyati quyidagilarda oʻz aksini topadi.

Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish uchun tomonlar muhim strategik hujjatlar qabul qilmoqda. 2019-yil 19-iyunda Ittifoq Markaziy Osiyo boʻyicha oʻzining yangi strategiyasini qabul qildi. “Yevropa ittifoqi va Markaziy Osiyo: mustahkam hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar” deb nomlangan hujjat Byursselning mintaqaviy davlatlari bilan munosabatlari tarixida yangi sahifa ochishga xizmat qiladi. Bryussel

rasmiylariga ko'ra, yangi geosiyosiy voqelik hamda hamkorlik aloqalarini mustahkamlash zarurati ushbu hujjatni ishlab chiqishga undagan. Ayni paytda Yevropa Ittifoqining O'zbekiston uchun 2021-2027-yillarga mo'ljallangan dasturi ishlab chiqilmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda qabul qilingan Bayonnomasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish Rejasi amalga tizimli tatbiq etib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil iyunda "Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangilangan Strategiyasini amalga oshirishda O'zbekistonning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi" ishlab chiqilib amalda tatbiq qilinmoqda.

Yevropa Ittifoqi O'zbekistonni jahon hamjamiyatiga, ayniqsa, xalqaro iqtisodiy tuzilmalarga a'zo bo'lib kirish orqali jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga alohida ko'mak ko'rsatib kelmoqda. 2019-yil 11-noyabrdayoq Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi uchun 5 million yevro grant ajratdi. Ushbu mablag' tashkilotga a'zo bo'lish jarayonida zarur hujjatlarni tayyorlash, o'zbekistonlik mutaxassislarining JST kelishuvlari va xalqaro savdo tizimiga oid bilimlarini oshirishda ishlatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Yevropaliklar tomonidan "qo'shnilarimizning qo'shnilari" deb atalayotgan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan aloqalari yangi sifat bosqichiga chiqdi. Ikki tomonlama aloqalar yangicha xarakter kasb etib, turg'unlikdagi hamkorlikdan o'zgarishlar davri sherikchiligiga aylanmoqda.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqining moddiy ko'magiga ko'z tikuvchi benefitsiar davlatdan savdo-iqtisodiy munosabatlardagi teng manfaatli hamkoriga aylanmoqda. Eng muhimi, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi aloqalarining yangi bosqichi nafaqat yuqori darajadagi hukumatlararo darajada, balki jamiyatning nodavlat tuzilmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ishlab chiqaruvchilar va biznes guruhlari, ilm-fan namoyondalaridan iborat "quyi qatlam" doiralarida ham o'z ta'sirini sezdirmoqda.

Davlat va hukumatlararo oliy darajadagi aloqalar oddiy insonlar o'rtasidagi kundalik muloqot tusini olmoqda.

So'nggi so'z o'rnida, Yevropalik hamkorlar tomonidan katta e'tibor bilan kutilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yevropa Ittifoqiga tashrifi ikki tomonlama aloqalarning keyingi istiqboli uchun, albatta, muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.consilium.europa>.
2. <https://central.asia-news.com/>
3. <https://www.osce.org/>
4. <https://www.un.org/>
5. <https://www.worldatlas.com/articles/the-world-s-most-war-torn-countries.html>

**“ИҚТИСОДИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ ГЛОБАЛ ТИЗИМИНИНГ
ШАКЛЛАНИШИДА БОЖХОНА ТЎЛОВЛАРИНИНГ ЎРНИ”**

Самадова Дилноза Илхомжон қизи

*“Жахон Иқтисодиёти ва Дипломатия университети”нинг
Ташиқи Иқтисодий фаолият факултети 1 курс магистранти
100007, Ўзбекистон, Тошкент шаҳар, Мустақиллик кўчаси, 54
Тел.: (97)759-77-11, e-mail:moxisamadova640@gmail.com*

**"THE ROLE OF CUSTOMS PAYMENTS IN THE FORMATION OF
GLOBAL SYSTEM OF ECONOMIC REGULATION"**

Samadova Dilnoza Ilkhomjon kizi

*1 st year master degree student of the Foreign Economic Activity faculty
the University of World Economy and Diplomacy
54 Mustakillik Ave., Tashkent 100007, Uzbekistan.
Tel.: (97)759-77-11, e-mail:moxisamadova640@gmail.com*

Аннотация. Магистрлик диссертацияси ишида Ўзбекистон Республикасини Халқаро иқтисодий интеграцион ташкилотлар (ЖСТ ва ЕОИИга)га аъзо бўлиш жараёнида божхона тўловлари йўналишидаги таркибий ўзгаришлар таҳлили амалга оширилган бўлиб, ҳозирги кунда амалда бўлган божхона тўловларини халқаро талабларга унификациялаш билан бирга янада такомиллаштириш бўйича вужудга келаётган муаммолар ва уларнинг ечимлари тадқиқ қилинган. Мазкур йўналишни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Аннотация. В магистерской диссертации анализируются структурные изменения в сфере таможенных пошлин в процессе присоединения Республики Узбекистан к Международной организации экономической интеграции (ВТО и ЕОИИ), существующие проблемы и способы их решения для дальнейшего

совершенствования, а также приведение существующих таможенных пошлин в соответствие с международными требованиями. Были разработаны предложения и рекомендации по улучшению этой области.

Annotation. *The master's thesis analyzes the structural changes in the field of customs duties in the process of joining the Republic of Uzbekistan to the International Organization for Economic Integration (WTO and EOII), existing problems and ways to solve them for further improvement, as well as bringing existing customs duties in line with international requirements. Suggestions and recommendations were developed to improve this area.*

Ключевые слова: *Всемирная торговая организация, Евразийский экономический союз, экономическая интеграция, таможенные пошлины, ввозные таможенные пошлины, налог на добавленную стоимость, таможенные пошлины, инвестиции, таможенные тарифы. Таянч сўзлар:* *Бутунжахон Савдо Ташкилоти, Евроосиё Иқтисодий Иттифоқи, иқтисодий интеграция, божхона тўловлари, импорт божхона божси, қўшилган қиймат солиғи, божхона йиғимлари, инвестиция, бож тарифи.*

Keywords: *World Trade Organization, Eurasian Economic Union, economic integration, customs duties, import customs duties, value added tax, customs duties, investments, customs tariffs.*

Иқтисодий ривожланган давлатларнинг шаклланиш ва ривожланиш тажрибаси давлатнинг фаол мувофиқлаштирувчи ва тартибга солувчи ролисиз самарали ташқи иқтисодий стратегияни амалга ошириш мумкин эмаслигини тасдиқламоқда. Миллий бозор ва маҳаллий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ташқи иқтисодий алоқаларни эркинлаштириш ва иқтисодиётнинг очиқлигини таъминлашнинг зарурий шarti ҳисобланади.

Иқтисодиёт соҳасида ўзаро муносабатлар ва ҳамкорлик жараёнларининг кенгайиши халқаро савдонинг умумий нормалари ва қоидалари ишлаб чиқилишига ва ихтисослаштирилган ташкилотларининг тузилишига олиб келди. Жумладан Жаҳон савдо ташкилоти, Шанхай ҳамкорлик ташкилоти, Евроосиё

иқтисодий ҳамжамияти кўп тарафлама савдо тизимининг ҳуқуқий ва институционал асосини таъминловчи, халқаро савдонинг деярли барча жабҳаларини қамраб олган йирик халқаро муассасалар ҳисобланади.

Хусусан, жаҳон иқтисодиётида кечаётган жараёнларни таҳлили натижалари шуни кўрсатадики, ташқи савдони эркинлаштириш жаҳон хўжалиги ривожланишининг асосий тенденцияларидан бирига айланмоқда. Барча мамлакатларда божхона божларининг пасайиши, кўплаб турдаги чеклашларнинг бекор қилиниши кузатилмоқда. Кўплаб мамлакатлар яширинча протекционистик (давлатнинг ўзини ички бозорини ҳимоя қилиш сиёсати) чора-тадбирлардан ҳам кенг фойдаланадилар. Бундай чора-тадбирлар жумласига миллий ишлаб чиқариш турларига дотациялар бериш, экспортни субсидиялаш, турли хил меъёрлар ва стандартлар жорий қилиш ва бошқаларни киритиш мумкин. Жаҳон хўжалигида эркин савдо ва протекционизм ўртасида вужудга келаётган зиддиятларни ҳал этишда, халқаро савдони бошқариш, унинг тараққиётига бўлган тўсиқларни йўқ қилиш ва эркинлаштиришида халқаро ташкилотлар ва конвенциялар муҳим ўрин эгаллайди.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Биз аввало иқтисодиётни ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш борасидаги ишларимизни янада чуқурлаштириш, унинг соҳа ва тармоқларини таркибий жиҳатдан ўзгартириш бўйича бошланган ишларни жадаллаштиришимиз керак”¹.

Хозирга кунда, Ўзбекистон Республикаси олдида Жаҳон савдо ташкилотига аъзо булиш муҳим вазифа саналмоқда. Айни пайтда, мамлакат бу борадаги музокараларни фаоллаштиришга киришиш босқичида бўлиб ушбу ташкилотга киришнинг асосий шартларидан бири эса ташқи иқтисодий фаолиятни (ТИФ)ни бошқаришда тариф ставкаларини пасайтириш талаб қилинади.² Шу сабабли, давлат томонидан бож-тариф сиёсатини ислоҳ қилиш ҳозирги кун талаби бўлиб қолмоқда.

¹ Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқидан, Тошкент шаҳри, 2016 йил 14 декабрь

² Роль всемирной торговой организации в глобальном управлении. Весь мир-2004. Восстановление доверия в многосторонней торговой системе: следует ликвидировать “разрыв в легитимности” Рубенс Рукперо 72-С.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегиясининг учинчи устувор йўналиши борасида мамлакатимизда валютани тартибга солиш, ташқи савдо, божхона ва солиқ қонунчилигини либераллаштиришда тубдан ислохотлар амалга оширилмоқда, бу ўз ўрнида Ўзбекистоннинг Жаҳон савдо ташкилотига киришда қулай шароит яратиб беради.

Шуни таъкидлаш жоизки, бугунги кунда ЖСТга аъзо бўлиш муаммоларини ўрганиш алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, бу борада Ўзбекистоннинг Жаҳон савдо ташкилотига аъзо сифатида кириши юзасидан музокараларни фаоллаштириш юзасидан 2018 йилда Ташқи савдо, Молия ва Иқтисодиёт вазирлигидан иборат таркибда ишчи гуруҳ тузилиб, 34 банддан иборат “Йўл харитаси” ишлаб чиқилган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, танланган мавзунинг долзарблиги қуйидагиларда намоён бўлади:

➤ **биринчидан**, 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида халқаро иқтисодий ҳамкорликни янада ривожлантириш, жумладан, етакчи халқаро ва хорижий молиявий институтлар билан алоқаларни кенгайтириш белгиланганлиги;

➤ **иккинчидан**, Ўзбекистонда бож-тарифи ставкаларини Жаҳон савдо ташкилоти талабларига миллий иқтисодиёт манфаатларини ҳисобга олган ҳолда мувофиқлаштириш зарурияти;

➤ **учинчидан**, Ўзбекистон Республикаси бож-тарифи ставкаларини уйғунлаштиришга йўналтирилган илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқишга бўлган зарурат.

Иқтисодий интеграциянинг биринчи босқичи **эркин савдо ҳудудини** ташкил этишдир. Бунда мамлакатлар эркин савдо ҳудуди доирасида иштирокчи ўзаро савдо тўсиқларини бекор қилади, лекин уларнинг ҳар иккаласи учинчи мамлакатларга нисбатан савдо тўсиқларни бузмайди. Бундай маконда қатнашувчи мамлакатлар чегаралардаги божхона назорати сақлаб

қолиниши керак. Унинг мақсади - қўшни қатнашчи мамлакатнинг сустроқ божхона тўсиғи орқали учинчи мамлакатлардан ҳудудга кириб келиши мумкин бўлган импорт товарлар учун солиқ ундириш ёки уни тақиқлашдан иборат. Бу қоида учинчи мамлакатларга товар экспорт қилишга ҳам тааллуқлидир.

Иқтисодий интеграциянинг иккинчи босқичи савдода, меҳнат ва капитал ҳаракатида ягона тарифларни ўрнатиш орқали **божхона иттифоқи**ни яратишдир. Бу босқичда қатнашчи мамлакатлар ўзаро савдода барча чеклашларни бартараф этибгина қолмай, ташқи савдо тўсиқларининг ягона тизимини таъсис этадилар. Бу билан ички чегараларда божхона хизматини сақлаш заруратини соқит қиладилар. Божхона иттифоқи эркин савдо ҳудудларига нисбатан такомиллашган интеграция тузилмани ўзида акс эттиради. Божхона иттифоқи доирасидан қатнашчи мамлакатларнинг ишлаб чиқариши ва истеъмоли тузилишида сезиларли ўзгаришлар юз беради. Божхона тарифларига нисбатан ягона ташқи савдо сиёсатини ўтказиш, протекционизм ва шу кабиларни қўллаш орқали мамлакатлар ташқи тариф даражасини ҳисобга олган ҳолда товар оқимларни тартибга солади. Бу эса ўз навбатида ресурсларни қайта тақсимлашда, истеъмол ва ишлаб чиқаришда муҳим туртки бўлади.

Божхона иттифоқидан **ягона бозор** (учинчи босқич)га ўтиш иқтисодий омиллар каби, сиёсий омиллар билан ҳам асосланади. Халқаро айрибошлашдан тариф тўсиқлари йўқолишига қарамай, нотариф тўсиқлар мавжуддир ва улар қийинчиликларни юзага келтиради. Уларга техник меъёрларнинг турли - туманлиги, товарларнинг миллий белгиларини қонуний ҳимоялаш ва шу кабиларни мисол келтириш мумкин. Божхона иттифоқи доирасида амалга ошириш мумкин бўлмаган йирик вазифаларни хал этиш орқали ягона бозорни яратиш мумкин. Шунини таъкидлаш лозимки, божхона иттифоқи аъзо давлатлар ўртасида божхона божларини қисқартириш ва учинчи мамлакатларга нисбатан ягона савдо сиёсатини ишлаб чиқиш орқали ягона бозорга ўтиш шарт - шароитларини яратади.

Бироқ ягона бозорни яратиш учун яна қуйидаги вазифаларни хал этиш лозим:

- иқтисодиётнинг алоҳида тармоқлари ва бўғинлари ривожлантиришнинг умумий сиёсатини ишлаб чиқиш;

- товарларнинг тўсиқларсиз кўчиши, хизматлар, ахборот, капитал, ишчи кучини эркин ҳаракатланиши учун шароитларни яратиш;

- интеграция жараёнларининг афзалликларини ҳақиқатда хис этишга имкон берувчи ижтимоий ва ҳудудий тараққиётга кўмаклашувчи умумий фондларни (жамғармаларни) шакллантириш;

Ягона бозорни яратиш ягона иқтисодий, ҳуқуқий ва ахборот маконини ташкил этиш билан тугалланади. Бунда иқтисодиёт соҳасининг барча ҳуқуқий асослари бирхиллаштирилган ҳолда ягона ахборот макони, яъни барча аъзо давлатларнинг ҳудудда юзага келадиган иқтисодий вазият тўғрисида барча йўналишларда тезкор ахборот алмашиш имкониятини берувчи дастур ва бошқарув органини ташкил этишни назарда тутлади. Бу иқтисодий интеграциянинг сифат жиҳатдан янги босқичи **тўла иқтисодий иттифоққа** (тўртинчи босқич) ўтиш учун туртки бўлади.

Тўла иқтисодий иттифоқда қатнашувчи мамлакатлар ўз иқтисодий сиёсатларини, шу жумладан пул, солиқ ва ижтимоий сиёсатни, шунингдек савдога ҳамда ишчи кучи ва сармоя оқимига тааллуқли сиёсатларини бир хиллаштирадilar.

Энг сўнгги босқич **тўлиқ иқтисодий ва сиёсий иттифоқ** бўлиб, бунда аъзо давлатлар ягона ташқи сиёсатни олиб боришлари керак бўлади.

Ҳозирги кунда дунёда 5 та асосий иқтисодий блок мавжуд бўлиб, улар **Европа Иттифоқи**, **MERCOSUR** - Жанубий Америка давлатларининг давлатлараро иқтисодий бирлашмаси, **NAFTA** – Шимолий Америка эркин савдо зонаси, **АСЕАН** – Жанубий-Шарқий Осиё давлатлари уюшмаси ва **Евроосиё иқтисодий иттифоқи (ЕОИИ)** ҳисобланади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси устувор йўналишлари ижросини таъминлаш бўйича халқаро майдонда тенг ҳуқуқли савдо шерикчилигини таъминлаш мақсадида иқтисодий либераллаштириш ва миллий қонунчиликни халқаро савдо нормаларига интеграция қилиш бўйича босқичма-босқич ишлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, глобализация ва дунё бозорида ривожланиб бораётган рақобат шароитида Жаҳон савдо ташкилоти ва ЕОИИга аъзолик Ўзбекистон Республикасининг асосий мақсадларидан бири саналади. Шу сабабли иқтисодий ташкилотларга аъзолик жараёнларидаги музокаралардан олдин Ўзбекистон Республикаси учун устувор бўлган йўналишларни аниқлаш ва уларни имкон даражада ҳимоясини таъминловчи шартлар имзоланишига эришиш лозим.

Жаҳонда ва Миллий иқтисодийтимиздаги жадал ривожланишлар ва уларнинг давлатлар томонидан тартибга солиниши ва ўзаро истиқболли режаларини амалга ошириш учун қуйидагиларни белгилаш мумкин:

–республикада ишлаб чиқаришнинг потенциал имконияти бўлмаган ёки норентабел бўлган товарларни аниқлаш ва уларга нисбатан импорт божи ставкаларини оптималлаштириш (*масалан: цитрус мевалар, алкоголь ичимликларнинг айрим турлари, ишлаб чиқариш асбоб-ускуналари ва ҳк.*);

–ҳозирда мавжуд инвестиция лойиҳалари доирасида ишлаб чиқарилиши режалаштирилган товарларга нисбатан мавжуд импорт божи ставкаларини ушлаб туриш ва мазкур лойиҳалар “ўзини оқлагандан” (ишлаб чиқарилган маҳсулот ички ва ташқи бозорда ўзининг харидорига эга бўлиши) сўнг бож ставкаларини тушириш бўйича чоралар кўриш (*масалан: машиний техникалар, тўқимачилик маҳсулотлари, тайёр кийим-кечак маҳсулотлари ва ҳк.*);

–республикада етарли ҳажмда ишлаб чиқариладиган ҳамда аҳоли саломатлигага салбий таъсир ўтказадиган ижтимоий муҳим аҳамиятга эга бўлмаган товарларга нисбатан импорт божи ставкаларини ошириш (*масалан: тамаки ва алкоголь маҳсулотлари ҳамда ҳк.*);

–айрим товар ва ташкилотларга нисбатан ҳозирда мавжуд имтиёз ва субсидияларни қайта куриб чиқиш ҳамда уларни қисқартиришга доир қатъий чоралар кўриш (масалан: қурилиш ташкилотлари ва авто эҳтиёт қисмларни ишлаб чиқарувчи ташкилотлар, “Artel”, “GM-Uzbekistan” компаниялари ва ҳк.);

–мавжуд монопол ташкилотга ЕОИИга аъзоликдан кейинги эркин бозор режими шароитида юзага келиши мумкин бўлган муаммолар бўйича тавсиялар бериш ва мазкур ташкилотларга берилган имтиёزلарни аъзоликка қадар бекор қилиш;

–мамлакатнинг иқтисодий манфаатларини акс эттирган “Миллий бож-тариф Стратегияси”ни ишлаб чиқиш;

–ташкилотга аъзо бўлиш бўйича музокаралар жараёнида имкон қадар Ўзбекистон Республикаси учун узок муддатга мўлжалланган ўтиш даври тақдим қилинишига эришиш (масалан: камида 5 йил).

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва методологик аҳамиятга молик
 - 1.1 Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси 20.01.2016 йил
 - 1.2 Президентининг 2018 йил 29 июндаги «Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолиятини янада тартибга солиш ҳамда божхона-тариф жиҳатдан тартибга солиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3818-сон қарори.
 - 1.3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 26 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5837-сон фармони.
 - 1.4 “Евроосиё иқтисодий иттифоқи тўғрисида”ги Битим. 03.10.2014 йил.
 - 1.5 СмитА. Исследования о природе и причинах богатства народов.- М.:Итисод, 1962.
 - 1.6 Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқидан, Тошкент шаҳри, 2016 йил 14 декабрь. [1,]
 - 1.7 Роль всемирной торговой организации в глобальном управлении. Весь мир-2004. Восстановление доверия в многосторонней торговой системе: следует ликвидировать “разрыв в легитимности” Рубенс Рукуперо. [2, 72]
 - 1.8 Сайтлар:
 2. <http://www.kun.uz>
 3. <http://www.lex.uz>
 4. <http://www.religions.uz>
 5. www.unctad.org.

TURKISTONDA ARMAN DASHNOQSUTYUNCHILARI VA ULARNING
FAOLIYATLARI

Mehritillayev Madiyor Doniyor o'g'li

TVCHDPU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Arman dashnoqlarining paydo bo'lishi ularning o'lkamiz hududidagi faoliyati haqida so'z boradi. Shuningdek ularning faoliyati ustidan fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qorabog', Zangezur, Kaufman to'plami, garnizon, yangi pretoriyalar, proletar inqilob, dashnaktsutyun, Trans-Kaspiy temir yo'li.

